V.V.Bartoldning shaxsiy va kasbiy fazilatlaridagi o‘ziga xoslik, ayniqsa, uning takrorlanmas iqtidori tadqiqotchilar va biograflar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan va uning hayotiga bag‘ishlab ko‘pgina asarlar bitilishiga sabab bo‘lgan. V.V.Bartoldning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab yozilgan asarlar qatoriga I.I.Umnyakov, N.N.Tumanovich , B.V.Lunin, N.M.Akramov, Yu.S.Fliginlarning biografiya va risolalarini kiritish mumkin. Shuningdek, B. Ahmedov, A.Nazarov , V.V.Voropoyeva , N.D.Nurtazina S.S.Sharofiddinov , Ye.G.Zastrojnova va boshqalarning tadqiqotlarida ham muayyan darajada olimning hayoti va ilmiy faoliyati yoritilgan. Akademik V.V.Bartoldning sevimli shogirdi I.I.Umnyakov uning

hayoti va faoliyatini batafsil yoritgan ilk biograf hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi N.P.Ostroumov arxiv fondida sharqshunos olim V.V.Bartoldning hayoti va ilmiy faoliyatini yanada oydinlashtiruvchi 1893-1930 yillar davomida islomshunos olim bilan turli mavzularda yozilgan 277 ta yozishma saqlanadi. Arxiv hujjatlari olimning N.P.Ostroumov bilan ilk tanishuvidan umrining oxiriga qadar o‘zaro yozishmalaridan iborat bo‘lib, ikkala tomonning biografiyasi va qalin do‘stlik aloqalari haqida batafsil ma’lumot beradi. Mazkur hujjatlar O‘rta Osiyo ijtimoiy-siyosiy va ilmiy hayoti xususida ham ma’lumotlarga boy hisoblanadi.[1]

V.V.Bartoldning yoshlikdan tarixga qiziqishini va shu yo‘nalishda iste’dodi borligini sezgan otasi bo‘lajak tarixshunosni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi . V.V.Bartold 1887-yilda 8-Peterburg gimnaziyasini oltin medal bilan bitiradi. Yu.S.Fliginning arxiv hujjatlariga tayanib ma’lumot berishicha, bo‘lajak olim gimnaziyada tahsil olgan vaqtida Sharq tarixi bilan alohida qiziqa boshlaydi . Shundan so‘ng Peterburg universitetining arab-fors, turk, tatar turkumidagi sharq tillari fakultetiga o‘qishga kiradi. V.V.Bartold universitetda tahsil olish yillarida N.I.Veselovskiy, V.A.Jukovskiy, K.P.Patkanov, V.D.Smirnov, V.R.Rozen kabi mahoratli sharqshunos ustozlarining saboqlarini oladi.

V.V.Bartold Peterburg universitetidagi ta’lim yillarida talabalar orasida o‘z qobiliyati bilan ustozi V.R.Rozenning e’tiborini o‘ziga tortgan. Fakultetda o‘qitiladigan zaruriy fanlarni tirishqoqlik bilan o‘rgangan bo‘lajak olimda sharqshunoslikka nisbatan erta qiziqish paydo bo‘lgan.

V.V.Bartoldning ustozlari xotirlashicha uning kelgusida Sharq tarixchisi bo‘lib yetishishi ravshan bo‘lib, betakror qobiliyati bilan boshqa talabalardan farqlanib turgan . Sharq tillarining zo‘r bilimdoni va mutaxassisi, o‘rta asr Sharq yozuvlari, yodgorliklarini chuqur tahlil qilish usullarini mohirona egallagan akademik V.R.Rozen yosh Bartoldning sevimli o‘qituvchisi va ustozi bo‘lgan.

V.V.Bartold Sankt-Peterburg universitetiga o‘qishga kirgan vaqtdan Yaqin va O‘rta Sharq tarixini o‘rganishni o‘z oldiga qat’iy maqsad etib belgilaydi. Sharq tillari fakultetida tahsil olayotganida u arab, fors va turk tillarini mukammal o‘rganadi va keyinchalik yevropaliklarga Sharqning ma’lum bo‘lmagan ko‘plab qo‘lyozmalarining ilmiy tarjimalarini taqdim etgan hamda ularning ommaviy o‘rganilishiga imkon yaratib bergan. Olimning ushbu qobiliyatini ustozlari V.R.Rozen, N.I.Veselovskiy va boshqalar payqashgan va tadqikot ishlariga moyilligini e’tirof etishgan.

V.R.Rozenning maslahati bilan o‘z bilimlarini oshirish va ilmiy tadqiqotlarga kirishish uchun ilk bor xorijiy mamlakatlarga: Finlyandiya, Germaniya, Shveysariya, Shimoliy Italiya, Avstro-Vengriyaga safarga chiqadi.

Bartoldning Gall shahrida bo‘lishi ayniqsa foydali bo‘lib, bu yerdagi universitetda u norasmiy talaba sifatida g‘arbiy Yevropaning yirik sharqshunos olimi Avgust Myullerning ma’ruza va mashg‘ulotlariga qatnashib turgan. Myuller (1848-1892 yy.) ham rus ilmiy adabiyotiga e’tibor bilan qarar va rus tilini yaxshi bilar edi. Bartoldiipg o‘zi ham keyinchalik Myuller bilan tanishgani uning xayotidagi eng yaxshi xotiralardan biri ekanligini ta’kidlab,

ma’ruzalaridan foydalanish baxtiga muyassar bo‘lganini, marhum ustozinnng xotirasini har doim samimiy minnatdorchilik bilan eslashini kayd qilib o‘tgan.

Shuningdek, Bartold Eduard Meyer (1855-1930), Teodor Neldeks (1836-1930) va boshqa tanikli olimlarning ma’ruzalarini tinglash baxtiga ham sazovor bo‘ladi. Bartold chet ellarda bo‘lgan vaqtida Sharq tillari bo‘yicha o‘z bilimini oshirib, sanskrit tilini o‘rganishga kirishadi.

V.V.Bartold G‘arbiy Yevropa olimlarining chuqur ilmiy bilimlariga va o‘z sohalarining ulkan bilimdoni ekanliklariga tan bergan holda, ayni chog‘da, ularning umum tarixiy karashlariga qo‘shilmaydi. Ayrim olimlarning Sharq xalqlari va ularning tarixiy o‘tmishini mensimasliklari Bartoldning g‘azabini qo‘zg‘atdi.

V.V.Bartold ilmiy faoliyati davomida sayohat va ilmiy komandirovka bilan bir necha bor xorijiy mamlakatlarga safar kildi, masalan 1895 yilda u Vildbad, Parij, London, Oksford shaharlarida ishladi, Gollandiyada bo‘ldi; 1898-yilda Germaniya (Bavariya), Gollandiya, Belgiya, Angliya, Fransiyada; 1905-yilda Germaniya (Prussiya, Saksoniya) va Shveysariyada (Tirolda); 1906-yilda Avstro-Vengriya (Serbiyada), Bolgariya, Turkiya, Misrda; 1908-1909 yillarda Finlyandiya, Italiya, Avstro-Vengriyada (Budapesht); 1911-yilda Angliya, Amerika, Germaniya, Fransiyada; 1921-yilda Vena, Tyubengen, Gamburg, Lyubek shaharlarida; 1912-1913 yillarda Shvetsiya va Norvegiyada; 1914-yilda Shvetsiya, Daniya, Angliya, Italiya, Gretsiya, Bolgariya, Ruminiyada; 1917-yilda Finlyandiyada; 1921-1923 yillarda Finlyandiya, Angliya, Belgiya, Gollandiya, Germaniya, Estoniyada; 1926-yilda Turkiyada; 1929-yilda Germaniyada bo‘ldi.

Xorijiy mamlakatlarga qilingan safarlar jarayonida O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi manbalarni chuqur o‘rganish bilan shug‘ullanish zarur degan fikr V.V.Bartoldni butunlay qamrab olgan. Bartold Rozenga yo‘llagan maktublaridan birida: “Tarixiy rivojlanishning Yevropa tarixi uchun ishlab chiqilgan qonuniyatlarini qo‘llagan holda, qiyosiy usul yordamida O‘rta Osiyo tarixining aqalli bir qismini o‘rganishga biror kishi urinib ham ko‘rmagan bo‘lsa kerak”, -deb yozadi. “O‘rta Osiyo tarixidan jiddiyroq ilmiy kurs yaratishni... hozir tasavvur qilish qiyin. O‘z- o‘zidan ma’lumki, buni (O‘rta Osiyo tarixini) men yaratolmayman, lekin vujudga kelishini o‘z asarlarim bilan (agar o‘lmasam va salomat bo‘lsam) aqalli birmuncha tayyorlab ketish umididaman”.[2]

Nixoyatda kamtar va o‘ta talabchan Bar¬told O‘rta Osiyoniig ilmiy tarixini yaratish vazifasi o‘z zimmasiga tushishini aslo o‘ylamagan vabu xususda o‘z vazifasini shu tarixning “vujudga kelishini aqalli birmuncha tayyorlash”dan iborat deb bilgan edi . Bartold bu vazifani sharaf bilan va o‘z zamonasi uchun imkoni bo‘lgan darajada ado etdi.

V.V.Bartold 1893-yilda ustozi V.R.Rozenning maslahati bilan o‘lka tarixini chuqurroq o‘rganish maqsadida O‘rta Osiyoga tashrif buyuradi. Ilk tashrifi omadsiz bo‘lib, bir umr hassaga tayanib qolishiga qaramasdan, V.V.Bartold Turkiston tarixini qunt bilan o‘rganish fikrida dadil qoldi. Uning bu boradagi qiziqishlari kuchayishiga ustozi V.R.Rozenning xizmati katta. U o‘z shogirdiga yozma manbalardan tegishli Sharq mamlakati va viloyatlarining tarixiy geografiyasi hamda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir

bo‘lgan, shuningdek, xronologiya va voqealar borishini aniq belgilashda yordam beruvchi ma’lumotlarni mumkin qadar ko‘proq bilib olish bo‘yicha zaruriy uslubiy yordam ko‘rsatgan. V.V.Bartold ustozi V.R.Rozenning Sharq mamlakatlari va xalqlarining jahon tarixida o‘ynagan roli to‘g‘risidagi qarashlarini ham qabul qilgan.

Konservativ g‘arb olimlari tomonidan bu rolni pasaytirish, jahon tarixi solnomasida Sharqni ikkinchi yoki uchinchi darajali o‘ringa tushirishga, Sharq tarixini mensimaslikka karatilgan urinishlar Rozen singari Bartold uchun ham doimo yot tushuncha bo‘lgan. V.V.Bartold ustozi izidan borib, irqchilik ko‘rinishlariga, Sharq xalqlari tarixiga, jumladan, insonga dushmanlik bilan qarashga qarshi chiqqan.

V.V.Bartoldning ustozi V.R.Rozenga Yevropaga qilgan safari vaqtida yullagan maktubida nemis professorlaridan o‘rganish mumkin va lozim, biroq ularga ergashish kerak emas, degan fikrda ekanini ma’lum qiladi. Shunisi xarakterliki, V.V.Bartold G‘arbiy Yevropa olimlarining o‘z sohalarini chuqur bilishi va ulkan ilmiy bilimlar egasi ekanligini e’tirof etsa-da, ularning umumtarixiy karashlariga qo‘shilmaydi. B.V.Lunin V.V.Bartoldning bu maktubi alohida diqqatga sazovor ekanligini hamda yigirma uch yoshli olim tasavvurida paydo bo‘lgan qarashlarni yuqori baholaydi. V.V.Bartold ustozi V.R.Rozenning vasiyatlariga sodiq qolib, shunday xotirlaydi: “Baron Rozenning vasiyatlari qon-konimga singib ketdi, men uning vasiyatlarini vujudimga go‘yo ona suti bilan birga kirgandek his etaman. Men V.R.Rozen maktabidan kim bo‘lib chiqqan bo‘lsam, shundoqligimcha qabrga kiraman”. [3]

V.V.Bartoldning ilmiy qiziqishlarini turk, fors, arab tillaridagi matnlar, xalqaro huquq, siyosiy iqtisod, sharq tarixi, semit xalqlari tarixi, turk, arman, tillari, fors, hind, yahudiy adabiyotlarini o‘rganish borasidagi faoliyati tasdiqlaydi.

V.V.Bartold talabalik davridan boshlab arab va fors tillaridan rus tiliga, rus tilidan turkchaga tarjimalar bilan mashg‘ul bo‘lgan. 1899-yili Stanley Lan-Pulning “Musulmon sulolalari” tarjima kitobi V.V.Bartoldning ko‘pgina tuzatishlari bilan nashr etiladi. V.V.Bartold 1891-yilda universitetni a’lo darajada tamomlab, 1892-yildan shu dargohda faoliyat yurita boshlaydi. 1900-yilda “Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida” mavzusida dissertatsiyasini himoya qilib (1-va 2-qismlar, Sankt-Peterburg, 1898-1900) V.V.Bartold “Sharq tarixi doktori” ilmiy darajasini olgan. Shundan so‘ng olim mashhur sharqshunos bo‘lib yetishadi. Dissertatsiya himoyasi 1900-yil 19-noyabr (2-dekabr) kuni Peterburg universitetining Sharq tillari fakulteti majlisida o‘tkaziladi. Bu vaqtda V.V.Bartoldning dissertatsiyaga asos qilib olgan tadqiqotlari kitob holida ikki qismda bosmadan chiqqan: uning birinchi - “Tekstlar” qismi 1898-yilda, ikkinchi “Tadqiqotlar”- qismi 1900-yilda nashr etilgan.

Olimning so‘ziga qaraganda, asarning ikkinchi qismida u: “O‘lkaning mo‘g‘ullar kelguniga qadar bo‘lgan davrdagi tarixi nima bilan belgilanadi, mo‘g‘ullar Turkistonga nima olib keldi va o‘lkani zabt etish kanday sodir bo‘ldi”,-degan savollarga javob berishga intiladi. Olimning mazkur tadqiqot ishi nomlanishiga ko‘ra Mo‘g‘ullar bosqini arafasida O‘rta Osiyoning tarixini yoritishi kerak bo‘lsa-da, xronologik jihatdan asar Turkistonning qadim tarixini yoritishdan boshlanadi.

V.V.Bartold 1903-yilda Markaziy va Sharqiy Osiyoni o‘rganish uchun tashkil etilgan Rossiya qo‘mitasining kotibi lavozimida faoliyat ko‘rsatgan. 1904-yilda Samarqand atrofida arxeologik qazish ishlarini amalga oshirgan bo‘lsa, 1906-yilda Sankt-Peterburg universitetida oddiy professor sifatida favqulodda tayinlanadi. 1910-yilda Fanlar akademiyasining tegishli a’zosi, 1913-yilda esa “Osiyo xalqlarining adabiyoti va tarixi” yo‘nalishida akademik etib saylandi.

A.Yu.Yakubovskiy sharqshunos olim tomonidan Sharq tarixining dunyo tarixida alohida o‘ringa ega ekanligini isbotlashga bo‘lgan urinish xususida mulohaza yuritadi va uning ilmiy faoliyatiga quyidagicha ta’rif beradi: “V.V.Bartold V.R.Rozen maktabidan Sharq tarixisiz chinakam jahon tarixini yaratib, insoniyatning tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini to‘la-to‘kis ochib bo‘lmaydi, degan xulosani chiqarib oldi. Rozenning boshqa shogirdlari singari Bartold ham Sharq xalqlarining madaniy yutuklarini yuksak baholadi. Bu madaniyatning qadimda va o‘rta asrlar davrida Yevropa madaniyatiga ko‘rsatgan ta’sirini tan oldi va bu ta’sirni xalqlar tarixidagi faktlarda hamda tasviriy san’at, me’morchilik hamda madaniy hayotning boshqa sohalarida ko‘rsatishga harakat qildi”.

V.V.Bartold tadqiqotlarining deyarli barchasini sharq tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan. Olimning dunyo bo‘ylab sayohatlari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini dadil davom ettirishiga otasi tomonidan taqdim etilgan mablag‘lar imkoniyat yaratib bergan. Juda katta mablag‘ bilan ta’minlangan V.V.Bartold o‘quv hamda ilmiy faoliyatida moliyaviy muammolarga duch kelmagan. Muammolarga duch kelmagan va o‘ziga qoldirilgan barcha mablag‘larni ilmiy izlanishlari yo‘lida sarf qilgan olimning harakatlarini ilm yo‘lidagi haqiqiy fidokorona mehnat deya baholashimiz mumkin.

V.V.Bartold 1893-1928 yillar davomida O‘rta Osiyoga o‘lka tarixini o‘rganish maqsadida yeti marotaba o’z sayohatlarni amalga oshirgan. Olim dastlab Toshkentda 1893-1894 yillarda, ya’ni o’zining Turkistonga qilgan birinchi safarida V.V. Bartold “Turkistanskiy vedmost” va “Okraina” gazetalari bilan yaqindan hamkorlik qildi. Qo‘lyozma manbalar bilan bog‘liq masalalarni aniqlash uchun ko‘pincha u Turkiston Arxeologiya Xavaskorlar to‘garagi tomonidan Toshkentdagi oliy o‘quv yurtlarida ham ma’ruza qilishga tez-tez taklif etilgan.

1893-yilda V.V.Bartoldning O‘rta Osiyoga birinchi marta uyushtirgan ilmiy ekspeditsiyasi tarkibida rassom va etnograf S.M. Dudin ham bor edi. Ular o’sha yilning yozida Toshkentga yetib keldilar va bu yerda bir necha kun dam olganlaridan so’ng, Avliyo Otaga (xozirgi Jambul) jo’nab ketdilar. Ular o’sha yili Sayram, Chimkent, Avliyo Ota va ularning tevarak atrofidagi diqqatga sazovor joylarni, shuningdek, Talos vodiysini ko’zdan kechirib ulgurdilar xolos. Ushbu safardan ko‘zlangan asosiy maqsad “Bu o‘lkaning o‘tmishi to‘g‘risidagi yozma ma’lumotlarga qo‘shimcha o‘laroq qadimiy xalqlar manzilgohlaridan qolgan izlar to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash hamda qadimiy shahar va istehkomlar xarobalarining mumkin qadar qisqacha ta’rifini keltirish”dan iborat edi.[4]

O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha hali umumlashtirilgan katta va jiddiy asarlar yaratilmagan bo‘lib, bunday turdagi asar yaratish uchun o‘sha vaqtlarda olimlar qo‘lida faktik materiallar juda xam ozchilikni tashkil qilardi.

V.V.Bartold haqiqiy olimlarga xos mukammal xislatlarga ega ajoyib olim bo‘lgan. Uning hayoti va faoliyati tadqiqodchi olimlar uchun ibrat namunasi bo‘la oladi. B.V.Luninning olim haqida keltirgan fikri ayniqsa e’tiborli: “Bartold doimo vaqtni qattiq hisobga olar, o‘zining butun kuch va quvvatini ilmiy ishlarga bag‘ishlab, har soat, har daqiqadan unumli foydalanishga tirishardi. U nihoyatda serg‘ayrat odam edi. Bartold keraksiz mavzulardagi tuturiqsiz gap-so‘zlarni yomon ko‘rar, fan olamida daydib yurgan tasodifiy kishilarga munosabati keskin va murosasiz edi ”.

Bundan tashqari B.V.Lunin o‘z asarida qator olimlarning V.V.Bartold haqida bildirgan fikrlarini keltirib o‘tadi. Shulardan professor A.Yu.Yakubovskiy ustozi V.V.Bartold to‘g‘risida shunday yozadi: “U naqlga aylanib ketgan zo‘r xotiraga va o‘zini soat yanlig‘ aniq harakat qiladigan mexanizmga aylantirib yuborgan ishchanlik qobiliyatiga ega edi” . A.Yu.Yakubovskiyning mazkur ta’rifi V.V.Bartoldga nisbatan bir necha olimlar tomonidan bildirilgan iliq qarashlarning mazmunini yanada mustahkamlaydi. Bartold hech kimning munofiqligini, agar u o‘zining tug‘ishgan birodari bo‘lsaham sira kechirmasligini akade¬mik N.Ya.Marr ta’kidlab o‘tgan.

1902-yilgi tashrif doirasida V.V. Bartold Toshkentdan tashqari Ashxobod, Samarqand, Qo’qon, Marg’ilon, Andijon va O’shda ham bo’lib, bu shaharlarda saqlanayotgan va ilm faning bir talay soxalariga oid ko’pgina qo’lyozma asarlarni diqqat e’tibor bilan ko’zdan kechirdi. Masalan, toshkentda u bir qancha jamoat muassasalari va shaxsiy odamlarga tegishli kutubxonalar bilan tanishish sharafiga muvaffaq bo’ldi. Turkiston xalq kutubxonasi (1870 y)da tublangan maxsus qo’lyozma asarlar kolleksiyasi bilan yaqindan tanishadi. O’sha paytda bu kolleksiya 281 jilddan iborat edi xolos. V.V. Bartold o’zining ilmiy hisobotida shu asarlardan ikkitasiga: G’iyosiddin Alini Jahonigir Amir Temurning 1398-1399 yillarda xindistonga uyushtirilgan yurishi tarixini o’z ichiga olgan. “Ruznoma-i g’azovot-i Xindiston” (1399-1403 y) hamda xorazmlik muarrix O’tamish hoji qalamiga mansub bo’lgan “Chingiznoma” asari (XVI asr boshi)ga tuxtalib o’tgan.[5]

“Bartoldning oq ko‘ngil, qalbi ochiq, kamtar, ilmdagi o‘z safdoshlariga sodiq do‘st, yosh olimlarga g‘amxo‘r ustoz bo‘lgan chin inson ekanligini har kim ham darhol bilib olmas edi”- degan B.V.Luninning qarashlari V.F.Minorskiyning xotiralariga hamohang: “Ish sohasida Bartold bilimdon, sodiq do‘st hamda birovning iqtidor va tashabbusini birinchi bo‘lib ko‘llab-kuvvatlaydigan kishi edi”. Har ikki ta’riflashda ham olimning inson qadri va ilmga nisbatan yuksak hurmat bilan qarashi ta’kidlab o‘tilgan.

A.N.Kononov “Bartold tarjimaning filologik aniqligini qo‘lyozmaning o‘ziga xos badiiy xususiyatlari bilan chinakam mohirona birlashtirgan olim” – deb ta’riflaydi . Shu o‘rinda ta’kidlash muhimki, arab, fors, tojik, eski o‘zbek va boshqa sharq tillarini a’lo darajada bilgan V.V.Bartold hayoti davomida sermashaqqat ilmiy mehnat yo‘lini bosib o‘tgan.

Rus geografiya jamiyati Turkiston bo‘limining sobiq kotibi N.P.Arxangelskiy shunday eslaydi: “Vasiliy Vladimirovichning o‘sha vaqtlarda Peterburgda ta’lim olayotgan turkistonlik talabalarga ko‘rsatgan g‘amxo‘g‘ligini alohida ta’kidlash lozim” .

S.F.Oldenburg va I.Yu.Krachkovskiy ta’biri bilan aytganda qomusiy olim yozib

qoldirgan asarlari olamshumul ahamiyatga ega. Uning qiziqish doirasi nihoyatda keng bo‘lib, uni hammadan ko‘proq odamlar qiziqtirardi. U faqat olimgina emas, balki otashin jamoat arbobi edi.

V.V. Bartold 1916-yili yana Turkistonga keladi va Toshkentdan tashqari Qo’qon, Samarqand, Buxoro va Chorjuy shaharlarida ham bo’ldi va qadimiy madaniyat yodgorliklari, shuningdek shaxsiy kolleksionerlar bilan ham yaqindan tanishdi. Chunki Turkiston tarixiga oid qadimiy qo’lyozma asarlarini aniqlash va o’rganish olimning har bir sahifadan ko’zatgan asosiy maqsadi edi. Masalan, Toshkentda bo’lgan kezlari A.A. Semyonov va Boqijonboy va boshqalarning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan qo’lyozma asarlarini ko’rib chiqdi. O’shanda V.V. Bartold Boqijonboyning kutubxonasida saqlanayotgan sharqiy Turkistonning XV-XVI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan hikoya qiluvchi Shoh-Mahmud Churos qalamiga mansub bo’lgan “Tarix” nomli qimmatli asariga alohida e’tibor berdi.

Bundan tashqari u 1920-yil Toshkentda ta’sis etilgan Turkiston universitetining ilmiy va tashkiliy ishlariga qatnashadi. Universitet huzurida Sharq kafedrasini tashkil etish va uni malakali kadrlar bilan taminlash ishining tepasida turdi. Tarix filologiya fakultetida Turkistonning qadimgi va o’rta asrlar tarixidan mil.avv. IV asrdan to mil. XIX asrgacha bo’lgan tarixi bo’yicha dars berdi, aspirant va talabalarning ilmiy munozaralarida sihtirok etdi.

Sharqshunoslik bilimlarini yanada rivojlantirish manfaatlari yo‘lida V.V.Bartoldning katta ilmiy merosini qancha ko‘p va chuqur o‘rgansak va undan tanqidiy foydalansak, uning nomi jahon sharqshunos olimlarining nomi bilan yonma-yon turishiga ko‘proqishonch hosilqilamiz. V.V.Bartoldning hayot yo‘li o‘z mazmuniga ko‘ra, yuksakiqtidorli va ko‘pqirrali olim faoliyatining tashkil topishi va rivojlanishining ajoyib namunasidir. Yuksak prinsipiallilik, halollik va fikrlashda dadillik, o‘ziga va o‘zgalarga nisbatan qattiq talabchanlik xususiyatlariga ega bo‘lgan inson va olim V.V.Bartoldning ichki dunyosi ancha murakkabdir .

Mutaxassislar V.V.Bartoldning manbalarni tanqidiy tahlil qilishi, ishining aniqligi va to‘g‘riligi haqida ma’lumot beradi. Olim shaxsiy fazilatlari bilan o‘z davridayoq ko‘plab e’tiroflarga sazovor bo‘lgan. Ayniqsa, olimning sharq xalqlari tarixini o‘rganishga butun umrinini fido qilishini yuksak insoniy fazilat sifatida baholash mumkin.

V.V. Bartold qadimdan qolgan obidalarnig saqlanishi va buning borasida Samarqand va Shahrisabzda olib borilayotgan ishlarning ko’lami bilan yaqindan tanishdi yuqorida tilga olinga qo’mitaning majlislarida ishtirok etdi. Shuning bilann birga olim bo’sh paytlarida Toshkentda ham boshqa shaharlarda bo’lganida ham jamoat va shaxsiy odamlarning kutubxonalarida bo’lgan qo’yozma asarlar bilan tanishishda davom etadi. Yangi topilgan asarlar haqida o’zining fikr mulohazalarni bildirdi.

V.V. Bartold o’zining Turkistonga qilgan so’nggi safari 1927-1928 yil vaqtida Turkiston Universitetida, Qozoq Oliy pedagogika institutida va boshqa ilmiy tekshirish muassasalarida Turkistonning mug’ullar istolosidan to XIX asrgacha bo’lgan tarixi O’rta Osiyoning turkey xalqlari ularning kelib chiqishi va tarixi haqida dars o’qidi. Qadimiy

yodgorliklar sa'nat va tabiatni o'rganish o'rta osiyo qo'mitasi va o'lkashunoslik jamiyatlarining ishklari bilan tanishdi. [6]

Akademik V.V.Bartoldning xayoti fanning rivojlanishida, Sharq xalqlarining boy tarixiy o'tmishini o'rganish, sharqshunoslik sohasida o'ziga xos maktab yaratish yo'lida qilingan fidokorona mehnatning yorqin namunasidir.V.V.Bartoldning tanqidiy va tahliliy ma'lumotlarga boy asarlari, bayon etilgan ko'pgina ilmiy materiallarga berilgan muhim xulosalari va kuzatuvlari natijasida qoldirgan beqiyos ilmiy merosiga hozirgi vaqtda ham turli mamlakatlarda minglab tadqiqotchilar murojaat qilmoqdalar.

Atoqli sharqshunos V.V.Bartold 1930-yil 19-avgustda o'z vatanida vafot etadi. U Smolenskdagi Lyuteran qabristoniga dafn etilgan. V.V.Bartoldning 42 yillik ilmiy faoliyati davomida 400 dan ortiq ilmiy asarlari chop etiladi. 1963-1977 yillarda olimning ilmiy merosi to'qqiz tomda nashr etilgan. V.V.Bartold asarlarini mutaxassis olimlar, o'lkashunoslar, muzey xodimlari, o'qituvchilar, umuman O'rta Osiyo , Yaqin va O'rta Sharq xususan, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi bilan qiziquvchi barcha kishilar qunt bilan o'qimoqda. Olimning asarlariga o'z davridayoq keng ko'lamda ijobiy munosabat shakllanib, dunyoning turli tillariga: ingliz, nemis, fransuz, ispan kabi qator Yevropa tillariga va e'tiborlisi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. [7]

REFERENCE

1. B.V. Lunin. O'rta Osiyo xalqlari bilimdoni V.V. Bartoldning hayoti va faoliayti. –T: Fan. 1970

2. B.V. Lunin. O'rta Osiyo xalqlari bilimdoni V.V. Bartoldning hayoti va faoliayti. –T: Fan. 1970

3. B.V. Lunin. O'rta Osiyo xalqlari bilimdoni V.V. Bartoldning hayoti va faoliayti. –T: Fan. 1970

4. Ahmedov. Tarixdan saboqlar . –T: O'qituvchi 1994 -5-11 b.

5. B. Ahmedov. Tarixdan saboqlar . –T: O'qituvchi 1994 -5-11 b.

6. B. Ahmedov. Tarixdan saboqlar . –T: O'qituvchi 1994 -5-11 b.

7. B.V. Lunin. O'rta Osiyo xalqlari bilimdoni V.V. Bartoldning hayoti va faoliayti. –T: Fan. 1970

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE MAIN CHARACTERISTICS OF THE COMPOSITION OF THE WORK "RAVZAT USH-SHUHADO"

Xolbekov Saidmurod[1]

Chirchik State Pedagogical University

KEYWORDS

composition, architectonics, recipient, unit of work, integrity of the work, structural part, chapter, section

ABSTRACT

This article analyzes the composition of the hagiographic work “Ravzat ush-shuhado”.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7806524
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Independent researcher, Chirchik State Pedagogical University, Tashkent, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

“RAVZAT USH-SHUHADO” ASARI KOMPOZITSIYASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

kompozitsiya, arxitektura, qabul qiluvchi, ish birligi, ishning yaxlitligi, strukturaviy qism, bob, bo'lim

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada “Ravzat ush-shuhado” hagiografik asarining tarkibi tahlil qilinadi.

Kompozitsiya badiiy asarning mazmuni, tabiati va maqsadiga ko‘ra qurilishi va ko‘p jihatdan uning idrokini (retsipient tomonidan tushunishni) belgilab beradi. Kompozitsiya badiiy shaklning eng muhim komponenti bo‘lib, asarga birlik va yaxlitlik beradi, uning elementlarini bir-biriga va butunga bo‘ysundiradi [1]. “Kompozitsiya badiiy ijodning birligi va yaxlitligini ta’minlaydi” [2].

“Tashqi kompozitsiya (yoki arxitektonika) matnning bob va qismlarga bo‘linishi, muqaddima va epilog, kirish va xulosa, epigraflar va lirik chekinish kabi qo‘shimcha strukturaviy qismlarni ajratishdir. Yana bir tashqi kompozitsiya – matnning jildlarga bo‘linishi...

Bu jihatlar badiiy asarning tashqi tomoni ekan, “Ravzat ush-shuhado” asari ham tashqi kompozitsion ko‘rinishlari bilan mukammallik kasb etgan, ya’ni juda katta hajm egallaydi. Bunda, albatta, Islom Sharqi an'analari ko‘rinishida bo‘lsa-da, lekin muallif pozitsiyasi juda aniq ko‘zga tashlanadi, hatto bir nafas bo‘lsa-da, adib o‘z pozitsiyasidan uzoqlashmaydi. Buni tahlillarimiz davomida bir-bir to‘xtalamiz. Avvalo, hozir aytganimizdek, tashqi kompozitsion birliklarni, ya’ni boblarning nomlarini to‘lig‘icha keltiramiz va bu kitobxonga/ilm ahliga “Ravzat ush-shuhado”dek yirik asarni tanishtirgan bo‘lamiz.

“Ichki kompozitsiya, tashqi tarkibdan farqli o‘laroq, matn tuzishning ko‘plab elementlari va usullarini o‘z ichiga oladi. Biroq ularning barchasi bir maqsad – matnni mantiqiy tartibda qurish va muallif niyatini ochib berishdan iborat bo‘ladi, lekin ular unga turli yo‘llar bilan boradilar – syujetli, obrazli, nutqiy, mavzuli va hokazo” [3].

Abdulla Qahhor shakl va mazmun birligi haqida shunday degan edi: “Adabiy asarning joni – uning mazmuni, lekin bu jonning jon bo‘lishi uchun jasad kerak. Jonni jasadsiz tasavvur qilish mumkin emas”. Demak, asar inson siymosiga qiyoslansa, unda go‘zal shakl bo‘lishi ruhiyatning ham go‘zal bo‘lishini taqazo qilishini tushunish mumkin.

Shunga ko‘ra, “Ravzat ush-shuhado” asariga birlik va yaxlitlik bergan omillarni sanab o‘tishga burchlimiz.

Badiiy asarning tashqi kompozitsiyasi, ya’ni arxitektonikasi deyilganda badiiy asarning tashqi qurilishi – qism, bob, fasl, band kabilar nazarda tutiladi [4, 253; 5, 45]. Sayqaliyning “Ravzat ush-shuhado” asari ikki katta bo‘limdan iborat (Hozirgi kun

adabiyotshunosligi tili bilan aytsak, “Ravzat ush-shuhado” dilogiyadir). Lekin muallif bo‘limni “daftar” deb atagan. Uning kirish qismi 148 misradan iborat. Hamd qismi 34 misra, na’t 40 misra, roshid xalifalar madh etilgan qism 28 misra, munojotlar qismi 46 misrani tashkil etgan [6].

“Ravzat ush-shuhado” basmaladan so‘ng quyidagicha boshlanadi: Sano ul podshohi lo makona, / Sifoti zohiru zoti nihona. // Makonsizdur, etgan kavnu makonni, / Jihatsizdur, et(g)an jumla jahonni.

Dostonlagi na’t “Hazrati nabiyyuno sallallohu alayhi vasallam na’tlarini(ng) bayonidur”, roshid xalifalar madhi esa “Chahoryori bosafo roziyallohum taololarning alqobi mustatoblari” deb berilgan.

Alarni tavsifi haddin fuzundur, / Yozib bo‘lmaski, bir-birdin uzundur. // Xudo avn aylasa ba’d az munojot, / Kamina nazm etay bir necha abyot deya qayd qilingandan so‘ng muallif quyidagicha tarzda mazkur asarni yozishdan maqsadini bayon qiladi: Qilib so‘z ibtidosin anbiyodin, /yeturay intihosin Karbalodin.

Ya’ni, ushbu asarni yozishdan asl maqsad “Karbalonoma”ni, Imom Hasan va Imom Husaynlarning qissalarini, so‘z avvalida aytilgan gapni sharhlaydigan bo‘lsak, har bir payg‘ambar qissasini va/yoki biron-bir rivoyatni aytib bo‘lib, shu qissa/rivoyat nihoyasida Karbalo fojiasida shahid bo‘lganlar haqida ham so‘zlab ketishni maqsad qilganini ta’kidlagan muallif. Ana shu tipdagi musibatnoma haqidagi klishelar asarning bir necha o‘rnida keltiriladi.

Kompozitsiyaga asos bo‘ladigan unsurlar haqidagi adabiyotlarda qayd qilinishicha, badiiy asar “matnini bob yoki bo‘limlarsiz o‘qib bo‘lmaydi. Hyech bo‘lmaganda unga bo‘shliqlar yoki yulduzchalar bilan ajratilgan bo‘limlar yoki semantik segmentlar kerak bo‘ladi” [3].

Munojotdan keyin shartli ravishda aytadigan bo‘lsak, asosiy qism boshlanadi va Odam alayhissalom qissasi keladi: “Qissayi hazrati Abulbashar Odam safiyulloh salavotullohi alayhi va salomuhu”. “Abul bashar” va ilk payg‘ambar Odam alayhissalom haqidagi dastlabki ma’lumotlarda ham asarning dardu g‘amdan nasiba borligi ta’kidlanadi: Kel emdi, Sayqaliy, haddingni bilsang, / Balo yuzlansa andin bo‘lma diltang. // Bashar avlodini bilsang atosi, / Edi Odam nabiylar ibtidosi. // Hanuz Odam Safiy kelmay adamdin, / Nasib bor erdi anga dardu g‘amdin.

Odam avlodi xunrez ekanligi, dashti Karbaloda shohu shahzodalar qirilgani, Inoyat aylasa ul Xoliqu Hay, / Oxirda motamin men toza aylay, deb asosiy urg‘u nimada ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Mazkur asardan ko‘zlangan maqsad qissalarni boshdan-oxir, batafsil bayon etish emas edi. Asosiy va eng mashhur jihatlariga e’tibor qaratish muallif pozitsiyasini belgilab beradi. (Aslida ma’lum bir qissani mufassal hikoya qilish keng ko‘lamli/monumental ish bo‘lur ediki, uning ustiga, liro-epik planda mahobatli asar tartib berish har qanday muallif/musannifning imkoniyat doirasidan tashqaridagi ishdir.) Shu boisdan ham muallif keyingi o‘rinlarda “Kanz ul-g‘aroyib” asarida kelgan bir voqyeani tasvirlaydi. Mazkur bob

“Hazrati Jabroil alayhissalom sayyidul anom, alayhissalotu vassalom xizmatlarig‘a kelib, Hazrati Imom Husayn raziyallohu anhu oliy maqomi shahodatidin xabar berganlarini(ng) bayoni” deb nomlangan. Unda tasvirlanishicha, payg‘ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam imom Husaynning kiyib yurgan ko‘ylagi nevarasining bo‘ynini qiyib yuborgan. Sayyid ul-bashar (s.a.v.) bundan tashvishga tushadi. Shunda Hazrati Jabroil alayhissalom kelib, “Buncha alamnok bo‘laverma, hali bilmaysan, bir kun kelib bu bosh tanasidan judo bo‘ladi hali” deb aytadi. Ko‘zyoshlari shashqator Payg‘ambar (s.a.v.) g‘amga botadi. Va shundan so‘ng hazrati Rasulullohning o‘shal munglig‘ kayfiyatiga mos “Hech kim olam aro mundog‘ azoni ko‘rmadi” deb boshlanuvchi g‘azal keladi.

Sayqaliy ma’lum bir payg‘ambar qissasini tasvirlay boshlaganda ham o‘sha payg‘ambar hayotining eng asosiy jihatlarini tasvirlashga harakat qiladi. Masalan, Nuh alayhissalom qissasi haqidagi bob (“Qissayi hazrati Nuhi nabiyulloh alayhissalavotu vassalom bul turur”) ulug‘ to‘fon va u zot yasagan kema, har bir jonzotdan kemaga bir juftdan olib, ularni qutqarib qolgani mazkur qissaning eng e’tiborli joylaridir. Sayqaliy ana shu qissaga o‘tishda ekskurs tarzida va asosiy voqyealar bilan bog‘liq nuqtani mohirona bog‘laydi.

Mazkur qissadan keyin “Qissayi Ibrohim Xalilullohir rahmon salavotullohi alayhi va salomuhu bu turur” deb nomlangan keyingi qissa boshlanadi. Kel emdi, Sayqaliy, joning nisor et, / Balolar norig‘a tushsang, qaror et.

Adib mahorati borasida gap ketganda va, ayniqsa, har bir payg‘ambar qissasi hikoya qilinganda, qissa boshlanmasida payg‘ambar hayoti bilan bog‘liq ba’zi bir nyuanslar ham muallif e’tiboridan chetda qolmaydi. Ibrohim payg‘ambarni Namrud olovga tashlaydi va olov, Qodir Allohning marhamati bilan, gulshanga aylanadi. Va “Sabr qilsang, balolar olovidan omon chiqasan” degandek adib o‘ziga malomat/nasihat qiladi. Shu yerda birdaniga maqsadga o‘tiladi. Ya’ni, “Namrud shayton yo‘liga kirib, to‘g‘ri yo‘ldan ozib, Ibrohim Xalilullohni o‘ziga dushman bildi” deya qissa boshlanib ketadi. Keyingi voqyealar tizimida Ibrohim alayhissalomga o‘g‘lini qurbonlik qilish buyurilgan sahna keladi. Amri Haqqa so‘zsiz itoat bundan ortiq bo‘lmasa kerakki, pichoqni o‘g‘lining bo‘g‘ziga qo‘ygan mahal Xudo Jabroil vositasida qurbonlik qilish uchun qo‘chqor yuboradi.

Shundan keyin Sayqaliy o‘zining asl maqsadi aytilgan misralarni tizadi: Kamina xo‘shachin birlan aknun, / Terib tori xayola durri maknun. // Olibon qissalardin bob-bobi- / Ki, turkiy nazm qilsam bir kitobe. // Oxirida Husaynni(ng) hasbi holin, / Bayon etsam na o‘tgan mohu solin. // O‘qug‘on bandalar dilresh bo‘lg‘ay- / Ki, to so‘zu gudozi besh bo‘lg‘ay. // Husaynni(ng) motamini toza aylab, / Menim o‘z holima andoza aylab.

Sayqaliyning mazkur o‘rinda keltirilgan misralarida ba’zi bir so‘zlar va qo‘shimchalar tushib qolgani seziladi (“xo‘shachinlik” emas, “xo‘shachin” tarzida), lekin bu kabi kamchiliklar asarning umumiy ruhiga hyech qanday ta’sir o‘tkazmaydi. Chunki hozir biz gaplashganda ham qo‘shimchalarni qisqartirib aytish holatlari uchraydiki, mazkur uslub adib asarini xalqona ohangda yaratganining ko‘rinishidir.

Sayqaliyning mazkur satrlarida badiiy mahorati yaqqol sezilgan mazkur o‘rinda

kaminaning ishi xo‘shachinlik (lug‘aviy ma’noda aytilsa, “boshoq teruvchilik”, istilohiy ma’noda esa “ustalik”), ya’ni “ustalik bilan xayol torlarida ko‘zdan yashirin, ya’ni toza durlarni terishdir” deydi va o‘z a’moliga sodiq qolgan holda qisas ul-anbiyolardan eng manzur o‘rinlarini turkiyda nazm qilsam deb deyarli bir satr ortiqcha gap aytish yo‘q, asar davomida adib qalami ravon ketadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://www.booksite.ru/fulltext/1/001/008/063/577.htm
2. https://myfilology.ru/137/kompozicziya-literaturno-xudozhestvennogo-proizvedeniya/
3. https://school-of-inspiration.ru/osnovy-kompozicii-elementy-i-priemy
4. Федотов О.И. (2003) Основы теории литературы. – М.: Владос.
5. Николина Н.А. (2003) Филологический анализ текста. – М.: ACADEMIA.
6. Сайқалий. (2004) Равзат уш-шуҳадо (Нашрга тайёрловчилар С.Сайфуллоҳ ва Д.Хунзикер). – Т.: Мовароуннаҳр.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

MEAT AND SLAUGHTER PARAMETERS OF GOATS IN KARAKALPAKSTAN

A.U. Toreshova[1]

D. Jumanov[2]

M.T. Berdiev[3]

Nukus Branch of Samarkand State Veterinary Medicine University of Animal Husbandry and Biotechnology

KEYWORDS

goats, castration, slaughter, carcass, cuts

ABSTRACT

The study of the meat and slaughter qualities of goats and goats - castrates in the 8-month-old Karakalpak population of dairy goats when raising them for meat. It has been established that during slaughter, the main factor that positively affects the slaughter performance and meat quality is the feed factor. Castration only slows down the formation of meat and slaughter quality goats.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7806552
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Nukus Branch of Samarkand State Veterinary Medicine University of Animal Husbandry and Biotechnology, Karakalpakstan, Uzbekistan

[2] Nukus Branch of Samarkand State Veterinary Medicine University of Animal Husbandry and Biotechnology, Karakalpakstan, Uzbekistan

[3] Nukus Branch of Samarkand State Veterinary Medicine University of Animal Husbandry and Biotechnology, Karakalpakstan, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АҲОЛИСИ ЭЧКИЛАРИНИНГ ГЎШТ ВА СЎЙИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

эчкилар, кастрация, сўйиш, тана гўшти, кесиш

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада Қорақалпоқларнинг 8 ойлик сутли эчкилар популяциясидаги эчки ва эчки-кастратларнинг гўшт учун боқишдаги гўшт ва сўйиш сифатларини ўрганилади. Аниқланишича, сўйиш вақтида сўйишнинг кўрсаткичи ва гўшт сифатига ижобий таъсир кўрсатадиган асосий омил озуқа омили ҳисобланади. Кастрация фақат гўшт ва сўйиш сифатли эчкиларнинг шаклланишини секинлаштиради.

Кириш. Бугунги кунда эчки гўштини ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш бўйича дунёдаги асосий минтақалар Осиё ва Африкадир. Қорақалпоғистоннинг озиқ-овқат бозорини тўлдириш ва заҳираларни яратиш нафақат Осиё ва Африкада, балки ривожланган Европа мамлакатларида ҳам жадал қўлланиладиган эчкичилик соҳасини тўғри ривожлантиришнинг олдига қўйган мақсадлардан бири бўлиши мумкин [9].

Охирги 15-20 йил ичида маҳаллий эчкичиликнинг ишлаб чиқариш ҳажми сезиларли даражада камайди ва тармоқ салоҳиятига жавоб бермайдиган ҳолатга келиб қолди. Ички бозор унга қилинадиган таклифга қараб талаб қилади. Ўзбекистонда эчкичилик соҳаси сут ишлаб чиқаришга йўналтирилган бўлиб, Европа мамлакатларидаги замонавий эчкичилик эса сут ва ёш эчки гўшти ишлаб чиқаришга ихтисослашган.

Бу эчкичиликнинг умумий таркибини 50 фоиз ва ундан кўпроқ улушини ташкил қилади. Украинада эчки гўшти ҳозирда барча турдаги гўшт ишлаб чиқаришнинг тахминан 1 фоизини ташкил қилади [8].

Адабиётлар таҳлили. Ёш эчки гўшти таъмининг юқори кўрсаткичлари билан ажралиб туради ва озуқавий қиймати ҳамда фойдалилиги бўйича у қўзи гўштидан кам бўлмаган ҳолда мол ва чўчқа гўштидан анча устундир. Кўпгина Африка ва Осиё мамлакатларида гўштли эчкилар фақат ёввойи эчки гўштига ўхшаш нозик гўшт олиш учун етиштирилади [6].

Шунингдек, сифатли майин гўшт дон, кепак, илдиз мевали экинлари ва яхши пичан билан ош тузи қўшилган озуқалар билан боқиладиган такалар ва туғмаган эчкилардан олинади. Бу консентратлар озуқанинг таъмини яхшилайди ва ҳайвоннинг иштаҳасини оширади [4].

Турли сабабга кўра, подада боқилган бир ёшли эчкиларнинг гўшти деярли эчки гўшти каби қимматлидир. Қадимги ҳайвонларнинг гўшти таъмсиз бўлганлиги учун унчалик қиммат бўлмаган. Катта ёшли эчкиларнинг гўшти овқат учун ишлатилмайди, чунки у қаттиқ, мазасиз ва ёқимсиз ҳидга эга бўлади [1].

Ишнинг мақсади – 8 ойлик эчкиларнинг гўшт ва сўйиш сифатига турли даражадаги озиқлантириш ва бичилгандан кейинги омилнинг таъсирини ўрганиш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Қораўзак тумани Панаев фармс фермер хўжалигида эчкиларнинг гўшт ва сўйим кўрсаткичини аниқлаш бўйича илмий тадқиқот тажрибаси ўтказилди. Тажриба Заанен зотли сутли эчкилар популяциясининг устида олиб борилди.

Тажриба жуфтлик аналоглар принципига кўра, 3 та эчки гуруҳи олиниб, ҳар бир гуруҳда 10 та ҳайвон ташкил этилди. Иккита тажриба ва битта назорат гуруҳи тузилди
(1-жадвал).

Тажриба схемаси

Гуруҳлар	Бош сони	Озиқлантириш шароити
1 - тажриба (эчкилар)	10	ОР*+Баланслаштирилган комбикорм (40 % гача озуқа қиймати)*
2 - тажриба (бичилган)	10	ОР+Баланслаштирилган комбикорм (40 % гача озуқа қиймати)
3 - назорат (эчкилар)	10	Донли озуқа (20 % гача озуқа қиймати)

Такаларни бичиш бир ойлигида жарроҳлик йўли билан амалга оширилди. 2,5 ойлигида такалар гуруҳларга бўлиниб, тенглаштириш давридан кейин тажриба бошланган.

Эчкилар 8 ойлик бўлганда, гўштни ўрганиш мақсадида (ВИЖ (1985) методи бўйича) ҳар бир гуруҳдан 3 та тажриба ҳайвонлари сўйилди [7]. Сўйиш технологияси гўшт саноатида қабул қилинган мавжуд кўрсатмаларга мувофиқ амалга оширилди.

Бундан ташқари, барча бажариладиган ишлар, тажрибалар ва бошқа илмий мақсадларда ишлатиладиган ҳайвонларни ҳимоя қилиш бўйича умум қабул қилинган қоидаларга [2] мувофиқ амалга оширилди.

Совутгандан сўнг, гўшт намуналари орқа томоннинг энг узун мушакларидан олиниб, улар алоҳида вакуум билан ўралиб - 20 ^{0}C да музлатилди.

Гўшт намуналари 1 ҳафта давомида сақланди. Намуналар таҳлил қилишдан 1 кун олдин 4 ^{0}C (± 1 ° C) да эритилди.

Кимёвий-аналитик тадқиқотлар Қорақалпоғистон ветеринария санитария экспертизаси лабораториясида ўтказилди.

Тадқиқот натижалари. Гўшт маҳсулдорлиги тушунчаси бир қатор кўрсаткичларни умумлаштиради. Яъни сўйим вазни, сўйим чиқими, оғирлиги ва энг қимматли қисмларининг ҳосилдорлиги, тана гўштининг морфологик таркиби, ёғнинг тақсимланиш табиати, гўштнинг кимёвий таркиби, ҳар иккала маҳсулотдаги калория миқдори, наслли наслчилик ва чатиштиришга боғлиқ.

Бичишнинг самарадорлиги нафақат эчкиларда у ёки бу белгининг мутлақ ривожланишига, балки олинган ҳайвон турининг белгиланган стандартларга қанчалик мос келишига ёки ушбу стандартлар белгиларни қай даражада рағбатлантиришига боғлиқ бўлади.

Тажрибадаги эчкилар бир хил шароитда сақланганлиги сабабли, уларнинг гўшт маҳсулдорлигини муайян муҳит шароитида ирсиятнинг ривожланиши натижасида кўриб чиқиш мумкин.

Гўшт маҳсулдорлигини ўрганиш учун тажрибадаги эчкиларни 8 ойлигида ҳар бир гуруҳдан 3 бошдан назорат сўйиш амалга оширилди (2-жадвал).

8 ойлик эчкиларнинг сўйим кўрсаткичлари, M±m (n=3)

Кўрсаткичлар	Гуруҳлар		
	1-тажриба	2-тажриба	3-тажриба (назорат)
Тирик оғирлиги, кг	39,76±0,523**	32,63±0,272**	35,73±0,560
Тана гўшти (совитилмаган), кг	15,56±0,169***	11,72±0,070	12,36±0,296
Тана гўшти (совитилган), кг	15,33±0,061***	11,52±0,053	12,12±0,293
Ички ёғ, кг	0,420±0,015*	0,963±0,008***	0,293±0,029
Сўйим масса, кг	15,72±0,098***	12,49±0,049	12,41±0,320
Сўйим чиқими, %	39,54±0,288***	38,27±0,192***	34,73±0,456

*P>0,95; **P>0,99; ***P>0,999.

Маълумотлардан кўриниб турибдики, сўйишдан олдинги тана вазни бўйича биринчи тажриба гуруҳидаги эчкилар сўйиш олдидан энг яхши вазнга (39,76 кг) эга бўлди. Назорат гуруҳидаги эчкилар билан солиштирганда устунлик сезиларли фарқ билан 4,03 кг ни ташкил этди (P >0,99). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича биринчи гуруҳ аналогларидан ҳам паст бўлиб, фарқ 7,13 кг ва назорат гуруҳидаги эчкиларга нисбатан 3,1 кг ни ташкил этди (P > 0,99).

Гўшт маҳсулдорлигининг ҳал қилувчи кўрсаткичи совитилмаган тана гўштининг оғирлиги ҳисобланади. Оғир тана гўшти кучли суяклар, яхши ривожланган жамбон ва мушак тўқималари ҳамда ички аъзолари соғлом бўлган ҳайвонларда ҳосил бўлади. Олинган маълумотларни таҳлил қилишда биз қуйидаги кўрсаткичларни ўрнатдик.

Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида жуфтланган тана гўштининг вазни энг катта бўлди, яъни 15,56 кг, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,2 кг га кўп (P > 0,999). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича бошқа гуруҳлардаги аналоглардан паст эди, биринчи гуруҳ эчкилари билан фарқ 3,84 кг ва назорат гуруҳи билан - 0,64 кг. Кўриб турганимиздек, олинган маълумотларга асосланиб, 8 ойлик эчкилар гўшт маҳсулдорлиги учун етарли кўрсаткичларга эга бўлиб, улар сўйиш учун мос келади.

Кўпгина тадқиқотчилар боқиш жойларида интенсив озиқлантириш пайтида эчкиларнинг тана гўштида ёғнинг эрта чўкиши фактларини аниқлаган. Бундан ташқари, бу кўрсаткич уларнинг зоти, ёши, жинси ва озиқланиш шароитлари каби омилларга таъсир қилади. Эчкиларда қўйлардан фарқли ўлароқ, ички ёғлар кўпроқ, тери ости ва мушак ичида камроқ тўпланади [1].

Ички ёғ миқдори бўйича, биз кутганимиздек, иккинчи экспериментал гуруҳнинг эчкилари (0,963 кг) максимал вазнга эга бўлди, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 0,670 кг га кўп (P > 0,999). Биринчи гуруҳ эчкиларининг ички ёғ массаси бичилган эчкилариникидан 0,543 кг га кам лекин назорат гуруҳидаги эчкиларникидан 0,127 кг га кўп, сезиларли фарқ билан (P > 0,95).

Олиб борилган тажрибаларда бичилган эчкиларда ички ва тери ости ёғида ёғнинг эрта чўкиши белгиланган мунтазамлиги аниқланди. Шуни таъкидлаш керакки, эчки гўшти ёғсиз гўштларга тегишли, аммо шунга қарамай, ёғ тўқималарининг ривожланиши тананинг ривожланишининг умумий қонуниятларига бўйсунади. Яъни у суяк ва мушакдан бироз кечроқ ривожланади. Шунинг учун ёғ тўқималарининг ривожланиши ҳайвонларнинг жинси ва ёшига боғлиқ.

Тажрибадаги ёш ҳайвонларнинг гўшт маҳсулдорлигини баҳолашда асосий кўрсаткичлар сўйим вазни ва сўйим чиқими ҳисобланади.

Жадвалдаги маълумотлардан кўриниб турибдики, биринчи тажриба гуруҳидаги эчкиларнинг энг юқори сўйим вазни 15,72 кг ни ташкил этди, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,31 кг га кўп (p> 0,999). Назорат гуруҳининг эчкилари билан иккинчи тажриба гуруҳининг эчкиларида сезиларли фарқ топилмади.

Тажрибадаги эчкиларда сўйим чиқимига кўра, биринчи ва назорат гуруҳидаги ҳайвонлар ўртасида сезиларли фарқ (p> 0,999) аниқланди - 4,81%, шунингдек, иккинчи ва назорат гуруҳидаги эчкилар ўртасида - 3,54 % ни ташкил эди. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкилари 39,54 %, иккинчи тажриба гуруҳидаги эчкилар 38,27 % ва назорат гуруҳи эчкилари 34,73 % энг юқори сўйим кўрсаткичига эга бўлди.

Гўштнинг сифати ундаги асосий компонентларнинг нисбати - намлик, ёғ, оқсил, минераллар ҳамда тўлиқ ва нуқсонли оқсилларнинг таркибига боғлиқ. Гўшт маҳсулдорлиги ва гўштнинг кимёвий таркиби шаклланишига озиқланиш даражаси,

сақлаш шароитлари, зот, ҳайвоннинг ёши ва жинси таъсир қилади [3].

Гўштнинг асосий компоненти мушак ва ёғ тўқимасини ўз ичига олган пулпа ҳисобланади. Шунинг учун гўшт маҳсулотлари сифатини тавсифловчи асосий кўрсаткичлардан бири сифатида тана гўштининг гўштли қисмининг кимёвий таркибини ўрганиш катта аҳамиятга эга. Шу боис барча гуруҳлардаги эчкиларнинг орқа мушаклар намуналарининг кимёвий таркиби ўрганиб чиқилди (3-жадвал).

Эчкиларнинг узун орқа мушакларининг кимёвий таркиби, M±m (n=3)

Кўрсаткичлар	Гуруҳлар		
	1 чи гуруҳ	2 чи гуруҳ	3 чи гуруҳ
Протеин, %	19,09±0,354*	19,31±0,231*	20,21±0,132
Ёғ, %	5,22±0,515*	7,48±1,014**	2,31±0,6
Намлик, %	74,13±0,524*	73,07±0,982*	76,17±0,318
Қуруқ модда, %	25,83±0,521*	26,93±0,982*	23,83±0,318

Тажрибадаги эчкилар гўштининг ўртача намунасини таҳлил қилганда асосий кўрсаткичлар бўйича қуйидаги натижаларга эришилди. Назорат гуруҳидаги эчкилар энг кўп протеин миқдорига эга - 20,21 %, биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкилари - мос равишда 19,09 ва 19,31 %. Энг юқори ёғлилик иккинчи гуруҳ эчкиларида 7,48 %, энг пасти эса назорат гуруҳидаги эчкиларда 2,31 % ни ташкил қилди. Ҳайвонларни бичиш гормонал ҳолатнинг ўзгаришига олиб келади, бу бизнинг ҳолатларимизда тана гўштининг эрта тузланишига ва гўштнинг кимёвий таркибининг ўзгаришига олиб келади [5].

Тажрибадаги эчкилардан гўшт маҳсулдорлиги бўйича олинган иқтисодий саморадорлик

Кўрсаткичлар	Гуруҳлар		
	1-тажриба	2-тажриба	3-тажриба (назорат)
Маҳсулотларни сотишнинг умумий ҳажми (совитилган тана гўшти массаси), кг	15,33	11,52	12,12
Гўштнинг сотилиш баҳоси, сўм	49	49	49
Ҳар бир бошга маҳсулот сотишдан тушган ўртача соф фойда, сўм	751,17	564,48	593,88
Ҳар бир бошга сарфланган ҳаражатлар, сўм	435,38	422,22	368,08
Ҳар бир бошга маҳсулот сотишдан олинган ўртача фойда, сўм	316,79	142,26	225,82
Рентабеллик даражаси, %	42,17	25,20	38,02

Намлик миқдори бўйича энг юқори кўрсаткич назорат гуруҳидаги эчкиларда

(76,17 %) кузатилди. Биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкиларида эса мос равишда 74,13 % ва 73,07 %, сезиларли фарқ билан (P> 0,05). Қуруқ моддалар таркибига кўра, энг юқори кўрсаткич кастратсия қилинган эчкиларда (26,93 %), энг паст кўрсаткич назорат гуруҳидаги эчкиларда 23,83 % бўлганлиги аниқланди.

Жадвалдаги маълумотларга кўра, субекспериментал эчкиларнинг ўртача намунасининг кимёвий таркибидаги гуруҳлар ўртасидаги фарқ унчалик катта эмас, лекин биринчи экспериментал гуруҳнинг эчкилари устунликка эга эканлиги кузатилди.

Эчки гўштини ишлаб чиқариш самарадорлиги кўп жиҳатдан гўшт маҳсулдорлиги даражасига боғлиқ. Тажрибада эчкиларнинг тажриба гуруҳлари ўртасида озиқланишнинг бир хил даражаси билан уларнинг гўшт маҳсулдорлигининг миқдори ва сифати бўйича фарқлари аниқланди.

Тажрибадаги эчкиларни сўйиш бўйича олинган маълумотларга асосланиб, биз бозорда бир бошни сотишдан тушган даромадни ҳисоблаб чиқдик. Қорақалпоғистон бозорида 1 кг эчки гўштининг ўртача нархи 49 мингни ташкил қилади. Шундай қилиб, бизнинг тадқиқотимиз давомида эчки тана гўштини бозорда сотишда биз биринчи экспериментал гуруҳ (совутилган тана гўштининг массаси 15,33 кг) сотишдан қуйидаги ҳақиқий тушумни олдик, иккинчи гуруҳ учун 564,4 минг сумни ташкил этди. Совутилган тана гўштининг массаси 11 ,52 кг) - 403,2 минг сум ва назорат қилиш учун (совутилган тана гўшти оғирлиги 12,12 кг) - 593,8 минг сум.

Берилган маълумотлардан кўрамизки, парвариш қилиш учун энг катта харажатлар биринчи тажриба гуруҳи эчкиларида (435,38) кузатилиб, иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич 422,22 минг сумни, назорат гуруҳида эса энг кўп бўлган. Энг кичиги - 368,08 минг сумни назорат гуруҳларда етиштиришнинг юқори харажатлари ишлатилган аралаш озуқа нархи билан изоҳланади, унинг нархи назорат гуруҳидаги эчкиларникидан 2 баравар кўп эди. Шундай қилиб, ўсишнинг таннархи ва ўсиш интенсивлиги ва тирик вазндаги фарқ етиштиришнинг рентабеллик даражасига таъсир кўрсатди.

Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида рентабеллик даражаси энг юқори бўлиб 42,17 % ни ташкил этди, иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич энг паст - 25,20 % ва назорат гуруҳидаги эчкиларда рентабеллик даражаси 38,02 % ни ташкил этди. Ўтказилган тадқиқотлар натижалари эчкиларни эрта ёшда кастратсия қилишнинг иқтисодий нуқтаи назардан номақбуллигини тасдиқлади.

Хулоса. Эчкиларни назорат сўйим натижаларига кўра, биринчи тажриба гуруҳидаги эчкилар бошқа гуруҳлардаги тенгдошларига нисбатан яхшироқ сўйим кўрсаткичига эга эканлиги аниқланди. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳининг эчкиларида жуфтланган тана гўштининг вазни энг катта бўлди, яъни 15,56 кг, бу сезиларли фарқ билан назорат гуруҳидаги эчкиларга қараганда 3,2 кг га кўп (P> 0,999). Иккинчи тажриба гуруҳнинг эчкилари (бичилган) бу кўрсаткич бўйича бошқа

гуруҳлардаги аналоглардан паст эди, биринчи гуруҳ эчкилари билан фарқ 3,84 кг ва назорат гуруҳи - 0,640 кг.

Ветеринария лабораторияси мушакларининг физик ва технологик кўрсаткичлари биринчи ва иккинчи гуруҳдаги тажрибадаги эчкиларнинг мушак тўқималарининг юқори қийматини тасдиқлайди. Энг юқори ёғлилик, биз кутганимиздек, иккинчи гуруҳ эчкиларида – 7,48 %, энг паст кўрсаткич назорат гуруҳидаги эчкиларда – 2,31 % бўлди.

Намлик миқдори бўйича энг юқори кўрсаткич назорат гуруҳидаги эчкиларда 76,17 %, биринчи ва иккинчи гуруҳ эчкиларида - мос равишда 74,13 % ва 73,07 %, сезиларли фарқ билан (P> 0,05). Қуруқ моддаларнинг таркибига кўра, энг юқори кўрсаткич кастратсия қилинган эчкиларда 26,93 %, энг паст фоиз - назорат гуруҳидаги эчкиларда (23,83 %) кузатилди.

Гўшт йўналишидаги эчкиларни боқишни иқтисодий самарадорлигининг асосий кўрсаткичлари маҳсулот таннархи, уни сотишдан тушган тушум, фойда ва рентабелликдир. Шундай қилиб, биринчи тажриба гуруҳи эчкиларида рентабеллик даражаси энг юқори бўлиб 42,17 % ни, иккинчи тажриба гуруҳи эчкиларида бу кўрсаткич энг паст 25,20 % ва назорат гуруҳидаги эчкиларда рентабеллик даражаси 38,02 % ни ташкил этди.

Тадқиқотлар натижасида эчкиларни 8 ойлигида сўйишда сўйиш даражаси ва гўшт сифатига ижобий таъсир кўрсатувчи асосий омил “озуқа омили” эканлиги аниқланди. Бичиш фақат эчкиларнинг гўшт ва сўйим кўрсаткичларининг шаклланишини секинлаштириши кузатилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Методические рекомендации по оценке мясной продуктивности и качества мяса убойного скота. - ВНИИМС. - Оренбург, 1984. - 58 с.

2. Рассихина, В. Э. Маркетингове дослвдження регюнального ринку продукции вивчарства / В. Э. Рассихина // Инновация экономика: Всеукраинський науково-виробничний журнал. - 2011. - № 7. - С. 184-191.

Giperbolik paraboloid. Qiyshiq tekislik sirti – giperbolik paraboloid. Giperbolik paraboloid sirti bir pallali giperboloid sirtining xususiy holi bo‘lib, bunda to‘g‘ri chiziqli yo‘naltiruvchilarning bittasi cheksiz uzoqlashtirilganda (xosmas to‘g‘ri chiziq) hosil bo‘ladi. Giperbolik paraboloid sirti aniqlovchilar bilan Φ(a, b, c∞) yoki Φ(a, b, M) ko‘rinishida yoziladi. Bu sirt 8-rasmda tasvirlangan. Giperbolik paraboloid sirtini biror parabolaning ikkinchi parabola bo‘yicha harakatlanishidan ham hosil qilish mumkin.





8-rasm ***9-rasm***

8-rasmda tasvirlangan giperbolik paraboloid sirti n parabolaning yoz tekisligiga

parallel bo‘lib, uchi doim n_1 parabola bo‘yicha harakatlanishidan hosil bo‘lgan yoki bu sirtni xoy tekisligiga parallel tekisliklardagi m giperbolalarning karkasidan hosil bo‘lgan deyish ham mumkin. Shunga ko‘ra bu sirtni giperbolik paraboloid yoki parabolik giperboloid deb yuritiladi.(9-rasm).

Bu sirtning kanonik tenglamasi $\frac{x^2}{p}-\frac{y^2}{q}=2z$, bunda p≠ q. (1)

Tenglamadan ko‘rinishicha, bu sirt ikkinchi tartiblidir.

Darhaqiqat, (1) sirtning xoz (y=0) va yoz (x=0) tekisliklar bilan kesishganda xosil bo‘lgan bosh kesimlari quyidagi parabolalar bo‘ladi.

$x^2=2pz$ (2)

$u^2=-2qz$ (3)

Sirtni xoy (z=0) tekislik bilan kesganda

$$\frac{x^2}{p}-\frac{y^2}{q}=0 \quad (4)$$

tenglama xosil bo‘ladi. Bu esa quyidagi ikki to‘g‘ri chiziqni ifodalaydi:

$\frac{x}{\sqrt{p}}+\frac{y}{\sqrt{q}}=0$ va $\frac{x}{\sqrt{p}}-\frac{y}{\sqrt{q}}=0$.

Sirtni xoy tekisliklariga parallel, ya’ni z=h tekisliklar bilan kesganda, kesimda

$$\frac{x^2}{p}-\frac{y^2}{q}=2h \quad (5)$$

giperbola hosil bo‘ladi.

Giperbolik paraboloid sirtidan qurilish amaliyotida, arxitektura binolari va inshootlarining yopmalari sifatida keng foydalaniladi.

Parallelizm tekisligiga ega bo‘lgan sirtlarni Belgiyalik geometr olim nomi bilan Katalan sirtlari deb yuritildi.

Yo‘naltiruvchilari ikkalasi ham to‘g‘ri chiziq bo‘lgan, parallelizm tekisligi bor chiziqli sirt qiyshiq tekislik deb yuritiladi. Bu sirtda bir necha pozitsion masalalarni yechish mumkin. Masalan: giperboloik paraboloid sirtini to‘g‘ri chiziq bilan uchrashuv nuqtalarini ko‘rib chiqaylik.



10-rasm

10-rasmda V parallelizm tekisligiga ega bo‘lgan giperbolik paraboloidning M(M_H) gorizontal proyeksiyalovchi tekislik bilan kesishish chizig‘ini yasash ko‘rsatilgan. Bunda kesishish chizig‘ining gorizontal proyeksiyasi tekislikning M_H izi bilan ustma-ust tushadi.uning frontal proyeksiyasini yasash uchun giperbolik paraboloid (qiyshiq tekislik) ning bir necha yasovchilarini o‘tkazib, ularning M tekislik bilan kesishish nuqtalari yasaladi. Masalan, qiyshiq tekislik a (a′, a″) yasovchisining M tekislik bilan kesishish nuqtasini yasash uchun a′ yasovchi va kesuvchi tekislikning M_H gorizontal izining kesishish nuqtasi 2′ belgilab olinadi. So‘ngra 2′ nuqtadan perpendikulyar chiqarib, uning a″ bilan kesishish nuqtasi 2″ aniqlanadi. Kesimning 3 (3′, 3″)… 7 (7′, 7″) nuqtalarini yasash 2 (2′, 2″) nuqtani yasash kabi bajariladi.



11-rasmda m (m' ,m'') yo‘naltiruvchi va yasovchilarining yo‘nalishi bilan berilgan ixtiyoriy silindrik sirtning N (N_v) frontal proyeksiyalovchi tekislik bilan kesishishi ko‘rsatilgan. Bu sirtning N (N_v) tekislik bilan kesishish chizig‘ining proyeksiyalarini yasash uchun m(m' ,m'') yo‘naltiruvchi chiziqda ixtiyoriy 1(1' 1''), 2(2' , 2''), 3(3' , 3''),….nuqtalarni belgilab, ular orqali yasovchilar o‘tkazilib, keyin bu yasovchilarning berilgan tekislik bilan kesishish nuqtalari $1_1(1_1, 1_1)$, $2_1(2_1 , 2_1)$, $3_1(3_1 , 3_1)$,….lar belgilab olinadi va ular tekis egri chiziq bilan tutashtiriladi.



11-rasm



12-rasm



13-rasm



14-rasm

Ushbu mmaqolada uch yo‘naltiruvchi chiziqli sirtlarning hosil bo‘lishi, uning yo‘naltiruvchilarining turli ko‘rinishda berilishi bilan sirtlarni ko‘rinishi va yasalishi haqida turli ma’lumotlar beriladi. Agar yuqorida keltirilgan geometrik ma’lumotlarni umumlashtirib bir tartibga solinsa mantiqiy va nazariy nazardan quyidagi geometric klassifikatsiya hosil qilish mumkin.

Klassifikatsiya degani bir xil tushunchalar sistemasidir. Shuning uchun quyidagi tuzilgan klassifikatsiya uch yo‘naltiruvchili chiziqli sirtlar to‘g‘risida fanni o‘rganishda qulaylik tug‘diradi. Tuzilgan klassifikatsiya eskiz ko‘rinishida bo‘lib, uch yo‘naltiruvchi chiziqli sirtlardan keyingi uning xususiy hollari va xususiy hollaridan ya’na kelib chiqadigan xollarda paydo bo’lgan sirtlar aniqlovchilari to‘g‘ri kiritilgan.

Klassifikatsiyani bu holatlarida nazariy va amaliyotda turli ko‘rinishidan sirtlarni yasash mumkin.

Ushbu maqolada kreltirilgan tariflar talabalarga kompyuter grafikasi dasturlari yordamida tushuntirilganda o‘qitish samaradorligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. А.А.Совелов, Плоские кривые, Издательство ‘‘Физико-Математической литературы’’ М.-1960

2. Sh.K.Murodov, Amaliy geometriya Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining bosmaxonasida chop etilgan, Toshkent. 2021

3. Sh.Murodov va boshqalar Chizma geometriya.2008

4. Gulomova, N.X, & Saidaliyev, S. (2020). Development of Emergency Image in Students Psychological-Pedagogical Problems. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 18(2), 181-186.

5. Gulomova, N.X, (2022). Auto Cad grafik dasturlari dars samaradorligini oshirish vositasi sifatida. Conferencea, 143-148.

6. Сайдалиев, С., & Гуломова, Н. (2022). Теория определения перспективы и ее применение на практике. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (May 6, 2022; Vilnius, Lithuania), 92-100.

7. Mukhammadjonovich, Kodirov Mahmudjon. "FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION." CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS 3.10 (2022): 34-41. https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1052

8. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. Молодой ученый, (50), 99-102.

9. Tashimov, N. (2019). Ways of Development of Cognitive and Graphic Activity of Students. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 17(1), 212-214. doi:http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1403

10. Xalimov, M. K. ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANIB FAZOVIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH. НАУКА и ОБЩЕСТВО, 58.

11. Dilshodbek o’g’li, D. S. (2022, May). FAZOVIY TASAVVURNI INTENSIV RIVOJLANTIRISH USULLARI. In E Conference Zone (pp. 102-106).

12. Shoxboz, D. (2019). THE ESSENCE OF TEACHING ENGINEERING COMPUTER GRAPHICS AS A GENERAL TECHNICAL DISCIPLINE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

13. Malikov, K. G. (2020). Theory and practice of construction of axonomertic projects. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(9), 101-107.

14. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. International Engineering Journal

For Research & Development, 6(2), 15. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R

16. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 53-55.

17. Мурадов, Ш. К. Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади / Ш. К. Мурадов, Н. Э. Ташимов, И. И. Рахматова, Б. Б. Кукиев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 50 (184). — С. 99-102. — URL: https://moluch.ru/archive/184/47203/

18. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2015). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият», 2(2015-2), 34-35.

19. Ташимов, Н. (2022). Методы развития познавательной деятельности учащихся при обучении начертательной геометрии. Проблемы инженерной графики и профессионального образования, 66(3), 9. извлечено от https://bulprengpe.enu.kz/index.php/main/article/view/92

20. Ташимов Н.Э., Т. Н. (2022). Пути развития способности проектирования учащихся (на примере архитектурно-строительного черчения). Проблемы инженерной графики и профессионального образования, 57(2), 5. извлечено от https://bulprengpe.enu.kz/index.php/main/article/view/125

21. Байдабеков, А., Мурадов, Ш., Адилов, П., & Ташимов, Н. Э. (2016). Кривые второго порядка-как сечения поверхностей второго порядка по наперед заданным параметрам. Проблемы инженерной графики и профессионального образования, 38(5), 9-14.

22. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14

23. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL:https://moluch.ru/archive/192/48066/

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ABOUT THE USE OF THE TERM SOGD IN HISTORICAL SOURCES AND ITS MEANING

Tursunov Orzumurod[1]

Samarkand State University

KEYWORDS

Sogd, Sogdi, Avesta, Videvdat, Abu Ishaq Ibrahim ibn Muhammad al-Farisi al-Istakhri, Abu Tahirkhoja, Samaria, Chinese traveler Khoi Chao, Sugd paper, Arrian, Curtsy Rufus, Bactrian kingdom, Sugdian term

ABSTRACT

This article describes in detail the historical geography of Ancient Sogd term, population and territory, which is considered an important component of the statehood of our homeland located in the Zarafshan oasis, and the history of the works of the total research historians who dealt with this period of this region.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7830905
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master, Faculty of History, Samarkand State University, Samarkand, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

TARIXIY MANBALARDA SUG'D ATAMASINING QO'LLANILISHI VA UNING MOHIYATI TO'G'RISIDA

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Sug'd, Sug'diy, Avesto, Videvdat, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriy, Abu Tohirxo'ja ,Samariya, Xitoy sayyohi Xoy Chao, Sug'd qog'ozi, Arrian, Kurtsiy Ruf, Baqtriya podsholigi , Sug'd atamasi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada Zarafshon vohasida joylashgan vatanimiz davlatchiligining muhim tarkibiy qismi hisoblangan Qadimgi So'g'd atamasi,aholisi va hududining tarixiy geografiyasi haqida manbalar va mazkur hududning ushbu davri bilan shug'ullangan jamiki tadqiqotchi tarixchilarning asarlarining tarixi batafsil yoritilgan.

Sug'd O'rta osiyodagi qadimgi tarixiy-madaniy viloyat . Ilk marta ahamoniylar sulolasi vakillarining qoyatosh xotirot bitiklarida Sug'uda shaklida qadimgi Eron saltanatiga tobe qilingan satrapliklardan biri,mamlakat nomi sifatida qayd etilgan.Yunon manbalarida Sogdianoy. Bu shakl yunonlar tomonidan so'z tarkibidagi–anaka–tegishlilik, mansublik ma'nosini bildiruvchi nisbat qo'shimchasini so'z o'zagiga qo'shib yuborishdan paydo bo'lgan.Xitoy manbalarida –Suli. Sug'd yozuvi yodgorliklari mamlakat nomini Sug'd yoki Sg'ud shaklida ko'rsatadi Sug'dik yoki Sg'udik ,Sug'diyonak - Sg'udiyonak shakillari "Sug'dga tegishli" "Sug'diy" kabi ma'nolarda qo'llanadi. O'rta asrlarda arabiy , forsiy , turkiy manbalar mamlakat nomini "Sug'd" shaklida qo'llaydi. [1]

Eng qadimgi noyob manba bo'lmish Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoning Videvdat qismida ezgulik xudosi Axuramazda yaratgan ezgu yurtlardan biri Gava deya tilga olinadi va u yerda sug'dlar yashaydi deb ko'rsatiladi.

Sug'd miloddan avvalgi I ming yillikning boshlarida O'rta Osiyoda vujudga kela boshlagan ilk davlatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Sug'dning o'rta asrlar davri to'g'risidagi qimmatli ma'lumotlar Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriyning "Kitob al-masalik val-mamalik" (Yo'llar va o'lkalar kitobi), Abulqosim ibn Havqal an-Nisibiyning "Kitob surat al-ard"(Yerning surati kitobi), Abu Mansur as-Saolibiyning ''Kitob latoif al-maorif''(Ajoyib ma'lumotlar haqida kitob) hamda Abu Tohirxo'janing "Samariya" kabi asarlarida uchraydi.

Kitob al-masalik val-mamalik(Yo'llar va o'lkalar kitobi) asarida Sug'dga doir qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Asarda Sug'dga ulug'vor ta'rif beriladi. Istaxriy "Sug'dda bir saroy ko'rdim.Darvozasi ochilib devoriga mixlab qo'yilgan.Nega bunday ? deb so'radim. Aytdilar "Yuz yildan oshdi bu darvoza ochiq turadi va kecha kunduz yopilmaydi.Bir gal yuz va undan ortiq otliq to'satdan ogoxlantirmasdan kelib qoladi. Saroy egasining o'rnidan qo'zg'alishiga xojat bermaydi. Kishilar taomi, ulovlar yemishi hammasi tayyor edi.Har bir ishni bajarishga odam tayin qilingan edi. Har bir mehmonga uy egasining xursandligi yuzi yorug'ligi ma'lum bo'ldi" Bunday ishni bu yurtdan boshqa hech bir iqlimda ko'rmadim" [2]

Bundan ko'rinib turibdiki Samarqand Sug'di o'zining boshqa iqlimlarda uchramagan tomonlari bilan ajralib turgan. Bu esa shundan dalolat beradiki "Buyuk ipak yo'li"

chorraxasida joylashgan Sug'd eng muhim shaharlardan biri bo'lib hisoblangan.

Kitob surat al-ard kitobida(Yo'llar va o'lkalar kitobi) keltirilishicha Islom dini kirib kelguniga qadar Sug'd yoki as-Sug'd Zarafshon hamda Qashqadaryo hududlarini egallagan katta viloyat bo'lgan. Lekin X asrda arab manbalarida keltirilishicha as-Sug'd deganda Samarqand hamda Buxoro orasida joylashgan mayda bir tuman tushunilgan.

Kitob latoif al-maorif(Ajoyib ma'lumotlar haqida kitob) asarida "Qutayba ibn Muslim u yerga yaqinlashib qolganda,ko'zlarini qamashtirib yuboradigan nihoyatda go'zal bir manzarani ko'rib yonidagilarga shunday degan ekan :<< U go'yo moviy osmon , uning qasrlari go'yo porlab turgan yulduzlar va anhorlari xuddi Somon yo'lining o'zidir>>. Bu tashbihni juda yaxshi deb hisoblab, uning haqiqiyligiga ajablandilar.[3]

Abu Tohirxo'janing "Samariya"asarida ham Samarqand haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.Asarda Samarqandning Samarqand deya atalishi to'g'risida o'zidan oldingi manbalarga tayangan holda ma'lumotlar keltiriladi. Shuningdek havosining xususiyati, yerining tuzulishi, tog'lari,g'orlari, buloqlari, qabr hamda mozorlari , masjid va madrasalari kabilarga alohida to'xtalib o'tiladi.

Sug'dning tarixiga doir yozma manbalari orasida eng muhimlaridan yana biri bu Mug' arxivi bo'lib hisoblanadi. Mug' arxivi hujjatlari VII-asr oxiri VIII- asr boshlaridagi Sug'dning siyosiy ijtimoiy -iqtisodiy va ma'daniy hayoti haqida eng muhim birlamchi manba hisoblanadi. Sug'd arxivi shaxsiy maktublar, diplomatik yozishmalar,shartnoma va bitimlar, taqvim ro'yxatlari, xojalik va hisobot qaydlaridan tashkil topgan. Bunda aks etgan voqealar Panj viloyati balki butun Sug'd va Samarqand bilan uzviy bog'liqlikda bolib o'tadi. Sug'd arxivi hujjatlari Sug'dning tarixi va taxt uchun daxldor bo'lgan Tarxun, Gurak, Afarun va Devashtich faoliyatini tahlil etishda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Sug'dning ilk o'rta o'rta asrlar davrini yoritishda Xitoy manbalarining ham o'rni beqiyosdir.631-632 yillarda Samarqand kelgan Xitoy rohibi Shyuan Zang(596-664) o'zining xotiralarida Sanarqand shahri uning markazi hukmdori, armiyasi iqlimi urf-odatlari, halqaro savdo munosabatlari haqida quyudagicha ma'lumotlarni keltirib o'tadi. "Samarqand (Samuojyan) davlatining hududi aylanmasiga (diametri) 1600-1700 li (921.6-679.2 km) kelar ekan. U sharqdan g'arbga qarab cho'zilgan yirik davlat hisoblanadi. Poytaxt shahrining hududi aylanmasiga 20 li (11.52 km)dan ziyod va uning devorlari nihoyatda mustahkam, aholisi katta nufuzga ega Xorijiy mamlakatlardan olib kelingan kimmatbaxo molar shu yerga to'plangan.Yerlari serhosil, dehqonchilik rivojlangan, mevalari serob, zotli otlar ko'p. Samarqandning iqlimi mo'tadil, urf -odatlari e'tiborga molik. Bu yerda barcha xorijiy mamlakatlardan kelgan odamlarni uchratish mumkin.Uzoq- yaqindan kelgan kishilar daromad olish maqsadida tinmay mehnat qilishadi.Hukmdori qobiliyatli va serg'ayrat, qo'shni davlatlar uning so'zini ikki qilmaydi.Otliq kishilari kuchli, askarlarining hammasi qo'rqmas jangchilar,ular nihoyatda g'ayratli, o'limga tik bora oladi va jangda orqaga chekinmaydi.[4]

Sug'dning geografik joylashuvi va ma'muriy jihatdan bo'linishi borasida ham turli manbalarda turlicha qarashlar mavjud.

Qadimgi Sug'dning antik davr manbalarida aytilishicha Sug'diyonaning chegarasi Janubda Amudaryoga shimolda esa Sirdaryoning yuqori oqimigacha boradi.

Ptolemey o'z asarida Sug'diyonaning janubiy chegarasi qisman Oks (Amudaryo) bo'ylab o'tadi,qisman esa Hind tog'lari deb nomlangan Kavkaz tog'lari yaqinidan (bunda Paropamis yani Hindiqush tog'larining davomi nazarda tutilgan) o'tadi. Ptolemeyning fikricha g'arbda Sug'diyona Oks orqali Marg'iyonadan ajralib turgan, shimolda Oks tog'lari uni Skifiyadan ajratib turgan, sharqda Yaksart (Sirdaryo) va Komed tog'lari Sug'diyona bilan saklar o'rtasidagi chegara bolgan.Amudaryo esa Sug'diyonaning janubiy chegarasi deya aytib o'tgan.

Xitoy rohibi Syuan Szyan Sug'd tushunchasini keng manoda qo'llab juda keng hududlarga nisbatan ishlatgan. Uning ma'lumotlarida keltirilishicha Chu daryosi vodiysidan to Qarshi vohasini Sherobod voxasidan ajratib turuvchi tog' davonidagi Temir darvozagacha Sug'd deb atagan.Lekin manbalardan ma'lum bo'lishicha bunda Sug'dning geografik joylashuvi emas balki sug'diylar yashaydigan makon,ular tarqalgan hududlarn azarda tutilgan.[5]

Yana bir Xitoy sayyohi Xoy Chao 729-yilda O'rta Osiyoda bo'lganda ikki daryo oralig'idagi aholini til xususiyatlariga qarab oltita geografik hududga ajratgan. Bular

Buxoro (An) vohasi, Ustrushona (Sao), Kesh (Shi), Choch -Iloq bilan birga (Shi-lo),Maymurg'(Mi) va Samarqand (Kan) kabilarni keltiradi.

Arab manbalarida esa Sug'dning geografik joylashuvi to'g'risida quyudagi ma'lumotlar uchraydi. Sug'd deb O'rta zarafshon (Samarqand) vohasi tushunilgan. Sharqda Panjikent g'arbda Karmana Sug'dning chegaralari bo'lgan deya ko'rsatiladi

Al-Muqaddasiyning "Ahson attaqosim fi ma'rifat alaqolim,, (Iqlimlarni o'rganish uchun eng yaxshi qo'llanma) asarida ham Sug'dning geografik chegarasi haqida ma'lumotlar uchraydi. Muqaddasiy Sug'dga Kesh va Nasafning yerlari kirganligini aytib o'tadi.

Hozirda o'rganilgan manbalardan shu ayonki Sug'd uch qismdan iborat. Poytaxti Samarqand hisoblangan Markaziy yoki Samarqand Sug'di, poytaxti Buxora shahri bo'lgan Buxoro yoki G'arbiy Sug'd, hamda Qashqadaryo Sug'di yoki Janubiy Sug'd.

Markaziy Sug'ddagi Samarqand,Panjikent,Rivdot,Bosida, Dabusiya, Ishtixon, Kushoniya,Vidor, Sog'arj,Rabinjon; Buxoro Sug'didagi Poykent, Varaxsha, Romiton, Karmana ; Qashqadaryo Sug'didagi Qarshi, Kesh, Kitob, Sangirtepa kabi shaharlar juda mashhur hisoblanib ular Buyuk ipak yo'lining rivojida betimsol xizmatlari bor.[6]

Shuni ta'kidlash lozimki o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining markaziy tarmoqlari Sug'd orqali o'tgan. Sug'd xalqaro savdo munosabatlarida muhim o'rin egallagan .

VII-asrning boshlarida O'rta osiyoda bo'lgan xitoylik elchi Vey Tsze shunday deb yozgan edi " Samarqandning barcha aholisi mohir savdogar ; bola besh yoshga kirishi bilanoq unga savod o'rgata boshlaydilar o'qishni bilib olgandan so'ng uni savdo ishlarini o'rganishga majbur etadilar". Samarqand savdogarlari Yettisuvning ancha ichkarisiga va Xitoy chegaralarigacha yetib borib u yerlarda savdo-sotiq qilganlar.[7]

Sug'dning qog'ozi ham savdoda eng muhim mahsulotlardan biri bo'lib hisoblangan. Yuqorida aytib o'tilgan as-Saolibiyning Kitob latoif al-maorif asarida "Samarqandning o'ziga xos narsalaridan biri qog'oz bo'lib u Misr qog'ozini va avvallari xat yozishgan terilarni orqada qoldirib ketadi. Chunki Samarqand qog'ozi eng yaxshi, eng nafis, eng muloyim, eng qulaydir. U faqat shu yerda va Xitoydagina bo'ladi" deya aytib o'tadi.[8]

Ushbu kitobda "Tog'ir ibn Abdulloh ibn Tohir bir vaqt o'z vakillariga imzo chekilgan shunday farmonni chiqargan ekan : Agar Toharistonning saman oti, Bardaaning xachiri, Misr eshagi va Samarqand qulini uchratsangiz bu haqda bizning ra'imizni so'rab o'tirmay sotib olavering " deya aytib o'tilgan.

Ahamoniylar davri manbalari hamda antik davr mualliflarining ma'lumotlariga qaraganda miloddan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida Sug'd Doro I davrida ma'lum bir hokimlik ko'rinishida bo'lgan. Geradotning aytishicha Ahamoniylar davlatining viloyatlari ro'yxatida Parfiya, Sug'd, Xorazm va Arey(hozirgi Hirot viloyati) bilan birga 16 ta viloyat ham keltirib o'tiladi.

Arrian,Kurtsiy Ruf kabi antik davr mualliflari miloddan avvalgi VI asrda Doro III davrida Sug'dlar ham Ahamoniylar davlati tarkibida bo'lgan. Bess boshchilik qilgan Baqtriya podsholigi tarkibiga kirgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Amudaryodan Sirdaryogacha bo'lgan hududda joylashgan Sug'd nomining qo'llanilishi bir necha bor o'zgaradi. Amudaryo hududlari miloddan avvalgi II- asrda Baqtriya podsholigining qulashiga qadar Sug'diyonaning chegarasi dep hisoblab kelingan. Ushbu hududlarda sak toxar qabilalari o'troq bolib joylashadi va bu hududda Toxariston viloyati vujudga keladi. Bu hududga grek-makedon istilochilari bostirib kelishi oqibatida IV-asrning oxirlarida sug'dlarning bir qismi Zarafshon va Qashqadaryodan shimol va sharq tomonga ko'chib o'tadi. Shu tariqa Yettisuvda sug'diy aholi yashagan Sug'd viloyati tashkil topadi. Lekin Zarafshon vodiysida Sug'd atamasi ancha tor manoda qo'llaniladi.

ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003 B 790.

2.Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istaxriyning "Kitob al-masalik val-mamalik asari Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси«Фан» нашриёти давлат корхонаси.Тошкент–2019 B-129.

3.Abu Mansur as-Saolibiy ''Kitob latoif al-maorif''(Tadqiq qiluvchi tarjimon I.Abdullayev . T-1987) B- 74-75.

4.A.Berdimurodov. SH.Indiaminova .Buyuk ipak yo'li Toshkent 2017 B-47.

5.G'oyiboy. B. Sug'd konfederatsiyasining shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli. Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati . Toshkent -2017 B-18.

6.Samarqand tarixi (birinchi tom) Toshkent 1971 B-11.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE IMPORTANCE OF BOOKS IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

Masharipova Sarvinoz[1]

Bahodirxon Nomonov[2]

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Namangan Institute of Engineering Technology

KEYWORDS

Reading youth, religious-spiritual education, reading spirit, large-scale reforms, environment in schools, Sarah libraries

ABSTRACT

The younger generation, which is currently growing, is spiritually mature, spiritually healthy and invigorating. As long as we live in a time of intense development, of course, the role of books in the life path of the younger generation is greater than that of benihoya. In particular, the books of art, religion, Mary are acting programmatically when they find their way. Books are not an exaggeration to say that one of the main weapons in ensuring the spiritual elevation of every person. This article discusses the growing sprouts with enthusiasm in their hearts today, their attention to books and their achievement of religious-spiritual maturity.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7853430
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand, Uzbekistan
[2] IELTS Instructor, Doctorate, Namangan Institute of Engineering Technology, Namangan, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

KITOBLARNING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

kitobxon yoshlar, diniy-ma’naviy tarbiya, kitobxonlik ruhi, keng ko`lamli islohotlar, maktablardagi muhit, sara kutubxonalar

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Hozirgi kunda o`sib borayotgan yosh avlod ma’nan yetuk, ruhan jismonan sog`lom va tetikdir. Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda yashayotgan ekanmiz, albatta yosh avlodning hayot yo`lida kitoblarning o`rni benihoya kattadir. Jumladan, badiiy, diniy, marifiy kitoblar o`z yo`llarini topishlarida dasturil amal vazifasini o`tamoqda. Kitoblar har bir insonning ma’naviy yuksakligini ta’minlashdagi asosiy qurollardan biri desak mubolag`a bo`lmaydi. Ushbu maqola bugungi kunda qalbida shijoat bilan o`sib borayotgan nihollarning, kitoblarga bo`lgan e’tibori va diniy-ma’naviy yetuklikka erishishi to`g`risida muhokama qiladi.

Ilmga chanqoq yoshlarning qiziqishlarini, dunyoqarashini yanada kengaytirish maqsadida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 12-may kuni “ Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o`rganish va targ`ib qilish maqsadida yoshlar o`rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish tog`risida”gi qaror imzolandi. Bu qaror kitobga qalbi oshno yosh kitobxon avlodning yana bir yutug`i bo`ldi. Bu imkoniyatlardan to`la qonli foydalana olgan yosh kitobxonlarning quvonchlari qalblariga sig`masdi. Ilm bor qalbda hamisha ezgulik hukmron bo`ladi. Yurtimiz kelajagi mana shunday ilmga chanqoq yoshlar qo`lida ekan, hech ikkilanmay buyuklik sari qadam tashlab borayotganimiz haqida mag`rur so`zlasak bo`ladi. Yoshlarning ta’lim tarbiyasida kitobning o`rni, mavqeyi benihoya kattadir. Buyuk shoir Alisher Navoiy xazratlari aytib o`tganlaridek, “Kitob - beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksaklikka erishishning eng asosiy manbai”dir. O`zlikni, samimiyatni, millat ko`zgusini kitobdan qidirgan yoshlar hamisha ezgulik tomon yurib boradilar. Kitoblar haqida so`z ketarkan insonning qalbida o`zgacha orziqish mavjlanadi. Ko`p zamonlardan beri kitob o`qib, bu ajoyibot olamidan ilm nurlarini terayotgan buyuklardan, biz yosh kitobxon avlod uchun go`zal nasixatlar bisyordir.

Jumladan, quyidagilar:

1.Mutola uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi.

2.Mutola qalbni yumshatadi.

3.Mutola insonni go`zallashtiradi.

4.Mutola xotirani va fikrlash qobliyatini yaxshilaydi.

5.Mutola ijodkorlik qobliyatini rivojlantiradi.

Yuqorida sanab o`tganlarimiz har qanday ilmga oshufta qalbni tezda o`ziga chorlashi tabiiy hol.

Kitobxonlik- ma’naviyatni, tarbiyani, diniy kamolotni yuqori cho`qqiga olib chiqadigan yo`llardan hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, bola asosiy tarbiyani avvalo oilada, ota-ona bag`rida oladi. Bu albatta bolaning boshlang`ich tarbiyasi hisoblanadi. Kitob – hurriyatga eltuvchi nurdir. Ma’naviy – diniy kamolotning darchasidir. Qalbga ezgulik

urug`ini ekuvchi, ko`zlarga nur-u ziyo bo`luvchi, yo`ldan adashgan polaponni to`g`ri yo`lga undovchi jamiki ezguliklar yig`indisi kitobda mujassamlashgan. Buyuklardan gap ketar ekan, doimo Петер Гилленинг kitobga bergan bir ta'rifi yodimga tushadi. Kitoblar ovozsiz muallimdirlar. Xaqiqatdan ham sirlikni o`zida jamuljam qilgan, ilohiylikni o`zida berkitib turgan, qachonki qo`lingga meni olib ochsanggina borliqning ajoyibotlaridan habardor bo`lasan deya sukunatga cho`mgan. Kitoblar – tarbiyadir, muallimdir, o`zlikni tanitgan mo`jizadir.

Mo`minlarning dur-u gavhari, qalbga iymon chiziqlarini chizishga sababchi bo`lgan yo`riqnomadir. Sirliklarni o`zida jamlagan olam – olam nurdir.

Bolaning kitobga bo`lgan muhabbati qachon ortadi? Qachonki, kitobxonlik ruhiga burkangan muhitni his qilsa. Hozirgi kunga kelib kitobxonlik ruhiga burkangan maskanlar soni ortib bormoqda. Yurtboshimizning tashabbuslari va qo`llab quvatlashlari bilan mamlakatimizda kitoblarga bo`lgan mexr, e'tibor yanada kuchayib bormoqda. Yurtboshimiz Anqarada Xalq kutubxonasi ochilishida nutq so`zladi "Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o`zining intelektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda", - dedi yurtboshimiz.

O`sib borayotgan yosh avlodling ham ma'nan, ham ruhan yetuk bilimga ega bo`lishida kitoblar dasturul amal vazifasini o`tab kelmoqda. Maktablarda o`quvchilarning kutobga bo`lgan muhabbatini oshirish maqsadida turli xil kitobxonlik kechalari tashkil etilmoqda. Bu qilinayotgan harakatlar albatta bir kun o`z natijasini ko`satishiga ishonchimiz komildir.

Yurtimizdagi eng nufuzli kutubxonalardan biri "O`zbekiston milliy kutubxonasi" hisoblanadi. Ilm nuriga burkangan ziyo maskanlarining yanada ko`payishi kitobxonlarning kitobga bo`lgan ehtiyojlarini qondirilishiga sabab bo`ladi. Yurtimizning ko`plab viloyatlarida ham mana shunday ziyo maskanlari qad rostlamoqda.

Xulosa o`rnida shuni ayta olamanki, jamiyat kitoblar degan ajoyib qobiq bilan qoplangan ekan, ertamiz go`zal, yutuqlarimiz davomli bo`ladi deya hech ikkilanishlarsiz ayta olaman. Buyuk jamiyatning buyuk shaxlari shakllanib bormoqda. Katta dengizning bir chetidagi jilovlanib turgan chashma kabi biz yosh kitobxon avlod ham jilovlanib, katta – katta dengiz bo`lib buyuklikning sirini kitoblardagi ilohiylikdan topamiz. Kitoblar bor ekan qalbimizdagi ilm olishga bo`lgan istak, ishtiyoqimiz kundan – kunga ortib boradi. Biz kitobxon yosh avlod buyuklikning sirini kitobdan qidirar ekanmiz, hech qachon boshimiz egilmagay, qaddimizni tik tutib, ziyo istab, qalbimizga ilm deb atalmish ilohiylikni joylab shaxdam yurib boramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https:/./uz.m.wikipedia.org/wiki/.
2. https:/./www.xabar.uz/uz/molode-knigolyub-uzbekistana-mogut-stat
3. https:/./xs.uz/uzkr/.post/kitob-haqida-buyuklar-nima-dejdi
4. "Ижод олами" журнали, 2018 йил, 5-сон
5. https://president.uz/uz/list/view/.3373/

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

PROBLEMS OF PROLONGING THE USEFUL LIFE OF SOLID HOUSEHOLD WASTE LANDFILLS

Iroda Ruzieva[1]

Numonjon Shakirov[2]

Scientific Research Institute of Environmental and Nature Protection Technologies, Center for the Organization of Republican Sanitary Cleaning Works

KEYWORDS

solid household waste, sanitation facilities, waste heap, waste sorting, ecological culture

ABSTRACT

This article provides information on the norms of household waste generation and their transportation, as well as an analysis of the work carried out in this field.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7853474
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Head of the Laboratory of the Scientific Research Institute of Environmental and Nature Protection Technologies, Tashkent, Uzbekistan

[2] Chief specialist of the Center for the Organization of Republican Sanitary Cleaning Works, Tashkent, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

ҚАТТИҚ МАИШИЙ ЧИҚИНДИ ПОЛИГОНЛАРИНИ ФОЙДАЛАНИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ МУАММОЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

қаттиқ маиший чиқиндилар, санитар тозалаш корхоналари, чиқиндихона, чиқиндиларни саралаш, экологик маданият

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ушбу тезисда маиший чиқиндиларнинг ҳосил бўлиши ва уларнинг ташиб чиқиб кетилиши бўйича маълумотлар ва ушбу соҳада амалга оширилган ишларнинг таҳлили келтирилган.

Ҳозирги замон тараққиётида аҳоли сони тез кўпайиб бормоқда, натижада турмуш тарзида ҳосил бўлаётган қаттиқ маиший чиқиндилар(кейинги ўринларда-ҚМЧ) ҳам мутаносиб равишда ортиб бориши барча давлатлар каби бу борада республикада тегишли чоралар кўришига тўғри келмоқда.

Мисол учун дунёда аҳоли сони динамикаси қуйидагича кузатилмоқда.

1-жадвал

Аҳоли сони динамикаси

Дунё бўйича аҳоли сони		**Ўзбекистон**
1804 й	1 млрд	-
1927 й	2 млрд	-
1960 й	3 млрд	8,4 млн
1974 й	4 млрд	13,4 млн
1987 й	5 млрд	19,6 млн
1999 й	6 млрд	24,2 млн
2022 й	8 млрд	35,2 млн

Таъкидлаш жоизки, 1804 йилдан 1927 йил ва 1960 йилгача аҳоли сони 1 миллиардга кўпайган бўлса, кейинги йилларда ҳар 12-14 йилда 1-2 миллиардга кўпайиши кузатилмоқда. Натижада аҳолидан чиқаётган қаттиқ маиший чиқинди ортиб бориб, жаҳон миқёсида долзарб муаммоларга айланмоқдаки буни ечимини топиш зарурати бўлмоқда. Ўзбекистонда эса аҳоли сони жаҳонга нисбатан жуда тез суратлар билан ўсмоқда.

Атроф муҳит ва табиатни муҳофаза қилиш технологиялари илмий- тадқиқот институти мутахассислари томонидан амалга оширилган илмий-тадқиқот натижалари таҳлилларига кўра бир кишида кунига 0,75 кг чиқинди, йилда ўртача 273,7 кг чиқинди ҳосил бўлади. Аҳоли даромади ва ҚМЧ пайдо бўлиш меъёри бир бирига боғлиқ омиллардир. Шу сабабли айтиш мумкинки, туман ва қишлоқ марказларида ҳосил бўлаётган ҚМЧ миқдори вилоят марказларидагига нисбатан

камроқ бўлади.

Тарихга назар ташлайдиган бўлсак, Ўзбекистонда қаттиқ маиший чиқиндилар қуйидагича ташиб чиқарилган.

2-жадвал

Ўзбекистон Республикасида қаттиқ маиший чиқиндиларни олиб чиқиб кетилиши (минг тонна)

Т/Р	**Ҳудудлар**	**2007 й.**	**2008 й.**	**2009 й.**	**2010 й.**	**2015 й.**	**2020 й.**	**2021 й.**	**2022 й.**
1	Қорақалпоғистон Республикаси	64,5	47,4	47,9	56,4	271,0	271	263,7	277,7
2	Андижон	253,6	234,3	215,0	219,5	456,7	457	727,9	740,2
3	Бухоро	235,9	348,8	39,9	118,8	278,7	279	382,0	376.2
4	Жиззах	56,4	39,9	49,5	52,9	189,6	190	271,7	277,8
5	Қашқадарё	83,2	123,1	185,2	140,3	429,9	430	662.2	669,4
6	Навоий	108,1	323,5	383,4	136,4	144,9	145	271,6	230.9
7	Наманган	344,8	80,3	147,3	128,7	390,1	390	583,6	435,8
8	Самарқанд	189,8,	67,1	130,6	109,2	549,4	549	610,3	637,9
9	Сурхондарё	360,4	77,9	141.1	159,3	371,1	371	445,4	488,8
10	Сирдарё	69,5	57,4	72,9	70,5	122,2	122	136,5	143,9
11	Тошкент вил.	210,4	148,1	149,8	128,2	284,6	285	601,2	583.5
12	Фарғона	625,7	381,2	683,2	631,0	538,8	539	823,9	871,2
13	Хоразм	112,6	26,4	27,7	69,2	271,4	271	422,8	415,1
14	Тошкент ш.	1263,7	2066.8	2366,5	1802,0	368,3	368	815,3	668,4
	Жами	**3978,6**	**4022,2**	**4640,0**	**3822,4**	**4666.7**	**4666,8**	**7018,1**	**6816,8**

2007-2010 йилларда ҚМЧ бўйича маълумотлар етарли даражада мониторинг олиб борилмаганлиги туфайли рақамларда фарқлар бўлган.

Республикамизда 2001 йилга қадар санитар тозалаш соҳасида ишларни ташкил этиш ва мувофиқлаштириш вазифаси Коммунал хўжалиги вазирлигига юклатилган бўлиб, маиший чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш хизматлари “Автодормехбаза” корхоналари томонидан кўрсатилган. Ушбу корхоналар балансида жами 4 мингга яқин махсус техника бўлган.

Коммунал хўжалиги вазирлиги тугатилиб, “Автодормехбаза” корхоналари хусусийлаштирилгандан сўнг санитар тозалаш соҳасидаги вазифалар маҳаллий ҳокимлик органларига юклатилган.

Кўрсатиладиган хизматлар учун тарифлар паст даражада белгиланган *(ўртача 1 250 сўм)* ҳамда соҳада инфратузилмани ривожлантириш учун маблағ ажратилмаганлиги оқибатида 10 йилдан ортиқ муддат давомида санитар тозалаш

соҳасида етарлича муаммо ва камчиликлар вужудга келган.

Соҳадаги муаммо ва камчиликларни бартараф этиш мақсадида 2013 – 2016 йилларда Ҳукуматнинг тегишли қарори қабул қилиниб (Вазирлар Маҳкамасининг 2013 йил 3 декабрдаги 315-сон қарори), Ободонлаштириш бошқармалари 1,5 мингдан ортиқ махсус техникалар билан таъминланган.

Махсус техникалардан мақсадсиз ва самарасиз фойдаланиш оқибатида 2016 йил ҳолатига аҳолининг бор йўғи 5% яни 1,3 млн. киши ёки 351 та МФЙ (Тошкент шаҳридан ташқари) маиший чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш хизматлари билан қамраб олинган эди.

Ўтган давр мобайнида чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасини мувофиқлаштирувчи ҳамда назорат қилувчи ягона давлат органининг мавжуд эмаслиги натижасида, маиший чиқиндиларни олиб чиқиб кетиш хизматини тизимли равишда ташкил этиш имконини бермаган.

Шунингдек, хизмат кўрсатилаётган абонентлар бўйича ишончли маълумотлар базаси шакллантирилмаган ва абонентлар билан тизимли равишда ҳисоб-китоблар амалга оширилмаган.

Маиший чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш ва ривожлантириш ва соҳани тубдан ислоҳ қилиш мақсадида 2017 йилдан соҳага тегишли бўлган 20 та норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан қабул қилинган фармон ва қарорлар асосида бошқарувчиси ва эгаси бўлмаган чиқинди соҳаси ягона иқтисодий тизим сифатида шакллантирилди ҳамда санитар тозалаш хизматлари республиканинг чекка ҳудудларида истиқомат қилувчи аҳолигача етказиб борилди.

Ўз навбатида, қабул қилинган тегишли қарорлар билан:

аҳолига санитар тозалаш хизматларини кўрсатиш учун жойларда ташкил этилган “Тоза ҳудуд” давлат унитар корхоналарида 8 минг нафардан ортиқ ёки 2016 йилга нисбатан 3,2 баробарга ортиқ аҳоли доимий иш ўринлари билан таъминланди;

давлат бюджети маблағлари ҳисобидан “Тоза ҳудуд” ДУКлар учун 1 121 та махсус техника харид қилиш ҳисобига 13 та “Тоза ҳудуд”, “Махсустранс”, “Мароқанд Обод” ДУКлар ҳамда 118 та хусусий санитар тозалаш корхоналари тасарруфидаги махсус техника воситаларининг умумий сони 3 806 тага етказилди, ушбу кўрсаткич 2016 йилдаги кўрсаткичга нисбатан 2,6 баробарга кўпдир (2016 йилда – 1 439 та махсус техника);

санитар тозалаш соҳасида инфратузилмани ривожлантириш учун 2017 – 2020 йиллар давомида жами 871,8 млрд. сўм, шундан, давлат бюджетидан 563,1 млрд. сўм, бюджетдан ташқари манбаалар ҳисобидан 16,9 млрд. сўм ва тижорат банкларининг кредитлари ҳисобидан 291,8 млрд. сўм маблағлар ажратилди.

республика ҳудудининг 90,0 фоизи санитар тозалаш хизматлари билан таъминланиб (шундан хусусий сектор улуши 19 фоизни, Тошкент шаҳридан бошқа

шаҳарларда 100 фоизни ташкил этади), 2016 йилга нисбатан 18 баробарга (2016 йилда 5 фоиз), 2019 йилга нисбатан 1,3 баробарга (2019 йилда 69 фоиз) ортди.

Шу билан бирга:

санитар хизмат кўрсатиш доираси кенгайтирилиши ҳисобига 2020 йил давомида санитар тозалаш корхоналари бўйича аҳолидан тушган тушум миқдори 370,8 млрд. сўмгача етказилиб, бу кўрсаткич 2019 йилга (284,2 млрд. сум) нисбатан 1,3 баробарга ҳамда 2016 йилдаги (28,8 млрд. сўм) кўрсаткичга нисбатан 13 баробарга ортди;

республикада бир йилда ўртача ҳосил бўлаётган 7,1 млн. тонна маиший чиқиндиларнинг 1,8 млн. тоннаси қайта ишлашга жалб қилиниб, қайта ишлаш даражаси 9 фоиздан 32,4 фоизгача етказилди (2019 йилда 1,2 млн. тонна, 17 фоиз қайта ишланган);

чиқиндиларни ташиб кетиш учун тадбиркорларга ҳудудларни давлат-хусусий шериклик асосида жалб қилиш механизмлари яратилмоқда. Шу билан бир қаторда, 2020 йил давомида 28 мингдан ортиқ чиқиндилар билан боғлиқ қонунчилик талаблари бузилган ҳолатлар аниқланган. Ушбу ҳолатлар юзасидан фуқаролар ҳамда мансабдор шахсларга нисбатан маъмурий чоралар қўлланилиб, 3,7 млрд. сўм миқдорида жарималар қўлланилди.

Давлат ва нодавлат ташкилотлар билан ҳамкорликда, маҳалла ва ижтимоий объектларда чиқиндилар билан боғлиқ ишларни амалга ошириш соҳасидаги қонунчилик талабларини тушунтириш, аҳолининг экологик маданиятини оширишга йўналтирилган жами 17 881 та семинар, учрашув ва давра суҳбатлари ўтказилди, 1 073 та радио эшиттиришлар ва 755 та телекўрсатувлар тайёрланди ҳамда газета ва журналларда 927 та мақолалар нашр этилди.

Бугунги кунда, ҳудудларда санитар тозалаш фаолиятини олиб борувчи корхона ва ташкилотларга тегишли қаттиқ маиший чиқиндиларни кўмишга мўлжалланган 239 та полигонлар мавжуд , эгаллаган ер майдони қарийб 1,7 минг гектар, тўпланган чиқиндилар ҳажми 90,1 млн. тоннани ташкил этади. Шундан 44 та полигон рекультивация қилиниб, ҳокимият ер захирасига топширилди. Қолган 195 қаттиқ маиший чиқинди полигонларини ҳолати таҳлил қилинганда 30 таси иш фаолияти тўхтатилган, 26 таси 56 фоизга 87 таси 71 фоизга, 52 таси 80-85 фоизга тўлган.

Қаттиқ маиший чиқиндихоналар бўйича олиб борилган мониторинг натижалари шуни кўрсатмоқдаки 2018-2022 йилларда янги 19 та, маиший чиқинди полигони 113 гектар майдонда ташкил этилди.

Жумладан 2018 йилда 11 та 52 га, 2019 йилда 3 та 28 га ва 2020 йилда 5та 33 га майдонда.

Шундан, Жиззах вилоятида 4 та 40 га майдонда, Сирдарё вилоятида 7 та 38 га майдонда, Самарқанд вилоятида 2 та 12 га майдонда, Навоий вилоятида 2 та 4 га майдонда, Сурхондарё вилоятида 1 та 4 га майдонда, Тошкент вилоятида 1 та 3 га

майдонда ва Хоразм вилоятида 1 та 2 гектар майдонда. Ушбу маълумотлардан кўриниб турибдики келгусида бу кўрсатгичлар кенгайиши мумкин.

Амалиётда кўпгина чиқиндихона майдонларидан лойиҳа муддатидан кўпроқ фойдалинилмоқда, чиқиндихоналарнинг аксарият қисми техник ва санитар хавфсизлик қоидаларига риоя қилинмаган ҳолда қурилган, қолаверса махсус техникалар етишмайди.

Шу муносабат билан Тошкент шаҳрига қарашли бўлган 1967 йилда ташкил этилган Оҳангарон туманидаги 59 га қаттиқ маиший чиқиндихона тўлаётганлиги муносабати билан Жанубий Корея давлатининг инвестицияси асосида янги ташкил этилаётган 30 гектарли чиқиндихона замонавий лойиҳа бўйича ишлар бошлаб юборилди.

Қаттиқ маиший чиқиндихоналарни фойдаланиш муддатини узайтириш бизнинг фикримизча қуйидагилардан иборат бўлиши лозим:

чиқиндиларни саралаш тизимини тадбиқ қилишни ташкил қилиш учун комплекс чора - тадбирларни амалга ошириш;

чиқиндиларни бошқариш учун замонавий технологияларни жорий этиш йўли билан уларни чуқур қайта ишлашга эришиш;

маиший чиқиндиларни экологик жиҳатдан тоза сақлаш;

чиқиндихоналарнинг атроф - муҳитга салбий таъсирини камайтириш;

аҳоли пунктларининг санитар ва экологик ҳолатини яхшилаш;

мавжуд полигонларни келгусида рекультивация қилиш ва ерларни фойдаланишга қайтариш;

Шунингдек ижтимоий аҳамиятидан келиб чиқиб санитар-эпидемиологик вазиятни яхшилаш ҳисобига аҳолининг касалланиш даражасини пасайтириш, янги ишчи ўринларини яратиш, аҳолини экологик маданияти, саводхонлигини ва хабардорлигини ошириш зарур.

Маиший чиқиндиларни морфологик таркибидан иккиламчи ресурсларни қайта ишловчи корхоналар тизимини жадал ривожлантириш вақти етиб келди. Бунинг учун тадбиркорларни имтиёзлар берилиши билан қўллаб қувватлаш мақсадга мувофиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қурилиш чиқиндилари билан боғлиқ ишларни амалга ошириш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2021 йил 28 январдаги 40-сон қарори.

2. Юлдашев А.А, Пулатов Х.Л., Йигитов Ф.Б., Шарипова У.Л. “Чиқиндиларни бошқариш технологияси”дарслик., Тошкент 2022 йил.

3. Табиат ресурслари вазирлиги “Чиқиндиларни бошқариш сиёсатини белгилаш” бўйича бошқарма ҳисоботлари 2022 й.

4. Кондратенко Т.О., Сайбель А.В. Оценка воздействия строительного производства на окружающую среду // Инженерный вестник. 2012. № 4-2 (23)

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF FAMILY STRENGTH IN UZBEK FAMILIES

Xuseynova Shabnam[1]

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

KEYWORDS

family, complete family, incomplete family, family strength, family relations, family values

ABSTRACT

This article provides information on the psychological aspects of family strength in Uzbek families.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7870927
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Student, Faculty of Psychology and Social-Political Sciences, Samarkand State University named after Sharof Rashidov, Samarkand, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

O’ZBEK OILALARIDA, OILA MUSTAHKAMLIGINING PSIXOLOGIK JIHATLARI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

oila, to'liq oila, to'liq bo'lmagan oila, oila mustahkamligi, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyatlar

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada o‘zbek oilalarida, oila mustahkamligining psixologik jihatlari haqida ma’lumot berilgan.

Oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydigan, kelajak nasl qanday bo‘lib yetishishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan ijtimoiy makon va pedagogik omil vazifasini o‘taydi. Inson oilada shakllanadi. Oila muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai. Aynan shu qadriyatlarga har bir rivojlangan jamiyat suyanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1993 yil 20 sentyabrdagi yalpi yig‘ilishida 1994 yildan boshlab 15 mayni “Xalqaro oila kuni” sifatida nishonlashga kelishilganligini o‘zi ham bu masalani xalqaro miqiyosida qanchalik dolzarb ekanligidan dalolat berib turibdi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g‘amxo‘rligi oilalarning mustahkamligi va tinchligiga asos bo‘lgan. Shu bois mamlakatimizda 1998 yil “Oila yili”, 2012 yil “Mustahkam oila yili”, 2016 yil “Sog‘lom bola va ona yili” deb e’lon qilinganligi hamda Respublikamizda oila institutini mustahkamlash konsepsiyasi qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.06.2018 yildagi PQ-3808-son qarori bilan uning ustuvor vazifalari va amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasdiqlanishi, shuningdek, 2019 yildan boshlab har yili 15 mayda mamlakatimizda Xalqaro oila kuni nishonlanishi davlatimizdagi oilaviy muhit va uni mustahkamlash uchun qilinayotgan amaldagi sa’y-harakatlarning yaqqol na’munasidir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik – xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy – ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”.

Mamlakatimizda oilalar mustahkamligini, ularda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, jamiyat farovonligini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konstitutsiyamizda ham oila to’g’risida alohida bob ajratilib, oila manfaatlari muhofaza qilinayotganligi va oila mustahkamligi tamoyillari belgilanib, kafolatlanganligi bejiz emas.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5325-sonli Farmoni ham oila mustahkamligini ta’minlash,

xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi rolini oshirish, huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Hozirgi vaqtda nikoh tuzish shartlari haqida to’xtalib o’tadigan bo’lsak, O’zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 14 va 15-moddalariga muvofiq, nikoh ixtiyoriy ravishda nikoh yoshiga (erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh) yetgandan so’ng tuziladi. Shuningdek, Oila kodeksining 13-moddasiga muvofiq, muhim qaror ustida o’ylab ko’rishlari uchun nikohlanayotganlarga ariza berilgan kundan boshlab 1 oy vaqt beriladi.

Oila va nikoh munosabatlarini yanada yanada mustahkamlash sohasida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo’llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5938-son Farmoni hamda 2020 yil 18 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo’llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida”gi qarorining qabul qilinganligi ham mazkur sohadagi islohotlarni yangi bosqichga ko’taruvchi muhim qadam bo’ldi.

Oila jamiyatning hujayrasi (kichik ijtimoiy guruhi), shaxsiy hayotni tashkil etishning eng muhim shakli bo'lib, nikoh ittifoqi va oilaviy aloqalarga asoslangan, ya'ni. er va xotin, ota-onalar va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlar yagona oila byudjeti asosida umumiy uy xo'jaligini yuritadi. Oilaviy hayot moddiy va ma'naviy jarayonlar bilan tavsiflanadi. Oila turiga ko'ra to'liq, to'liq bo'lmagan, yadroli, farzandsiz, katta, yosh va boshqalarga bo'linadi. Muayyan oilaga xos bo'lgan ko'proq yoki kamroq barqaror hissiy kayfiyat odatda psixologik iqlim deb ataladi (psixologik atmosferaning sinonimi). Bu oilaviy muloqotning oqibatidir, ya'ni oila a'zolarining kayfiyati, hissiy kechinmalari va tashvishlari, bir-biriga, boshqa odamlarga, mehnatga, atrofdagi voqealarga bo'lgan munosabati natijasida yuzaga keladi.

Ko'pgina tadqiqotchilar oilaviy psixologik iqlimning ikki turini ajratib ko'rsatishadi: qulay va noqulay. Uzoq muddatli kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, oilalarning sezilarli qismi qarama-qarshi psixologik iqlimga ega.

Qulay psixologik iqlimning boshlang'ich asosi nikohning uyg'unligi, birinchi navbatda, er va xotinning g'oyaviy va axloqiy qarashlarining umumiyligi kabi tarkibiy qismdir. Qulay psixologik iqlim quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: birdamlik, har bir a'zoning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantirish imkoniyati, oila a'zolarining bir-biriga nisbatan yuqori mehribon talabchanligi, xavfsizlik va hissiy qoniqish hissi, o'z oilasiga tegishli ekanligidan faxrlanish. oila, tamoyillarga rioya qilish, mas'uliyat.

Psixologik iqlim qulay bo'lgan oilada uning har bir a'zosi qolganlarga muhabbat, hurmat va ishonch bilan, ota-onalarga - shuningdek hurmat bilan, zaiflarga - har qanday daqiqada yordam berishga tayyor.

Oila a'zolarining bo'sh vaqtlarini uy davrasida o'tkazishga, hamma uchun qiziqarli mavzularda suhbatlashishga, uy vazifalarini birgalikda bajarishga, har bir kishining savobli va yaxshi ishlarini ta'kidlashga, yoqimli kayfiyat taqdim etishga intilishi oiladagi qulay psixologik muhitning muhim ko'rsatkichidir. bir-biriga kutilmagan hodisalar, birgalikda

sayohat qilish.

Oiladagi noqulay psixologik iqlim ruhiy tushkunlik, janjal, ruhiy zo'riqish, ijobiy his-tuyg'ularning etishmasligiga olib keladi. Agar oila a'zolari bu vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirishga intilmasa, oilaning mavjudligi muammoli bo'ladi.

Oiladagi hayot undagi muloqotsiz, er va xotin o'rtasidagi, kundalik munosabatlar jarayonida ota-onalar va bolalar o'rtasidagi muloqotsiz mumkin emas. Oiladagi muloqot - bu oila a'zolarining bir-biriga munosabati va ularning o'zaro ta'siri, ular o'rtasida ma'lumot almashishi, ma'naviy aloqasi.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa talaba - yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzining foydasi va ustunligini keng targ‘ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya - sog‘lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to‘laqonli va samarali foydalanishni ta’minlash, shuningdek, yanada takomillashtirish masalalariga ustuvorlik bermoqda.

Bolalar va yoshlarning jismoniy salomatligi va ma’naviy boyligini shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportga mehr muhabbatini singdirish borasida shart - sharoitlar yaratib berish, qishloq joylaridagi bolalar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirishga alohida e’tibor berish, Vatanga sadoqatli, kelajakka ishonchi bor barkamol avlodni tarbiyalash, bolalar o‘rtasida iste’dodli sportchilarni tanlab olishga e’tibor berish darkor.

Yosh avlodning jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlash, uni sog‘lom turmush tarziga jalb qilish va sportga mehr-muxabbatini rivojlantirish, joylarda bolalar sport majmualari tarmog‘ini barpo etish hamda sport uskunalari bilan ta’minlash ishlarini yanada faollashtirish maqsadida, Jismoniy tarbiya va sport bo`yicha o`tkaziladigan mashg‘ulotlardan ommaviy sog‘lomlashtiruvchi vosita, shu jumladan iste’dotli sport zahiralarini tayyorlash manbai sifatida foydalanish borasida yetarli kamchiliklar mavjuddir. Bugungi jahon voleyboli o`zining texnik, taktik va strategik mohiyati jihatidan bolalar mashg‘ulotlariga tamomila yangicha yondoshish zarurligini ko`rsatmoqda.

Ma’lumki, zamonaviy voleybol musobaqalarida borgan sari raqobatning keskinlasha borishi va sport mahoratiga bo`lgan talablarni kuchayishi o`yin malakalarining yangi avlodlarini «ixtiro» qilinishiga olib kelmoqda. Yugurib kelib sakrab to`p kiritish, himoya zonalaridan zarba berish kabi malakalar shular jumlasidandir. Muhimi shundaki, deyarli barcha o`yin malakalari – to`p kiritish, uzatish, zarba berish, to`siq qo`yish va to`pni yiqilib qabul qilish malkalari asosan tayanchsiz holatda, ya’ni sakragan holda ijro etilmoqda. Ushbu holat o`yinchilarda sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini yuksak darajada rivojlantirish zarurligini taqozo etadi. Aynan shu jihatdan sakrovchanlik va sakrash chidamkloligini rivojlantirish muammolari o`ta dolzarb va muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Sakrab ijro etiladigan o`yin malakalarini har bir uchrashuvda uzoq muddat (1,5-2 s) davomida ijro etish zarurligi sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini rivojlantiruvchi eng samarali mashqlar majmuasini tanlash, ularni bolalar yoshi, sportchi qizlarni pulsometrik qiymatini aniqlash, jismoniy va funksional tayyorgarlikka qarab me'yorlash hamda qo`llash texnologiyalarining noan'anaviy turlarini ishlab chiqish muhimligiga e'tibor qaratadi.

Noan'anaviy texnologiya nostandart o`yinsimon estafetali mashqlar asosida umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini, sakrovchanlik qobiliyatini oshirish, sportchi qizlarni pulsometrik qiymatini aniqlash.

Sakrovchanlik sifati aksariyat sport turlarida (sport o`yinlari turlari, akrobatika, gimnastika, figurali uchish, engil atletikaning sakarash turlari va h.sport natijasini belgilovchi ustivor omil sifatida izohlanadi.

Mazkur sifat hayotiy zarur harakat ko`nikmasi sifatida go`dalik yoshidan boshlab shakllana boradi. Bolalar haytda, ro`zg‘or ishlarida, harakatli o`yinlarda balandga, uzunlikka, to`siqlar osha sakraydilar. Sport tugaraklariga qabul qilinayotganlarida ham aynan sakrash sifatlariga e'tibor beriladi. Bu sifat voleybolda o`ziga xos fundamental xususiyatga ega bo`lib, uni rivojlantirish masalalari dastlabki o`rgatish va tayyorgarlik bosqichidanoq diqqat markazida bo`ladi. Lekin, voleybol to`garaklari (BO`SM, JDPI) ning o`quv - mashg‘ulot dasturlarida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligini bolalar yoshi, o`rgatish yili va tayyorgarlik bosqichiga qarab rivojlantirish vositalari xajm, shiddat va soatlar miqdori jihatidan alohida ajratilmagan.

Ma'lumki, voleybolchilar uchun asosiy jismoniy sifatlardan biri sakrovchanlikdir. Sakrovchanlik tezkor-kuchlilik sifatlariga mansub bo‘lib oyoq mushaklarining qisqa muddat ichida kuchli qiskarish bilan ifodalanadi. Aynan shu sifatni yuksak darajada bo‘lishi nisbatan past bo‘yli o‘yinchilarni baland bo‘yli o‘yinchilar bilan raqobatini va asosiy o‘yin malakalarini (zarba berish va to‘siq qo‘yish) samarali ijro etilishini ta'minlaydi (V.D.Kovalev 1980).

Sakrovchanlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr bu 10-11yoshdir. Bu davrda yosh voleybolchilarda joydan turib balandga sakrash12,5 sm gacha ortishi kuzatiladi (E.V.Fomin, 1986).

Sakrovchanlik sifatining turlari ko‘p. Masalan, ikki oyoq bilan debsinibyugurib kelib yoki joydan turib vertikal sakrash bir oyoq bilan debsinib vertikal yoki uzunlikka sakrash, ikki oyoq bilan debsinib uzunlikka sakrash va hokazo.Har bir sakrash turining o‘ziga hos maqsadi va maqsadga mos ijro etish tartibi (texnikasi) bo‘ladi. Voleybol, basketbol, futbol va boshqa sport o‘yinlaribilan shug‘ullanuvchi sportchilarning sakrovchanligi bir - biridan farqqiladi. Ta'kidlash lozimki, hatto bir sport o‘yinida, masalanvoleybolda - zarba yoki to‘siqqo‘yish, to‘p kiritish yoki uzatish uchunijro etiladigan sakrashlar mohiyati bir-biriga sira o‘xshamaydi (Golomazov V.A., Kovalev V.D., Melnikov A.G. 1976).YAna shunieslatish o‘rinliki, faqat bir o‘yin malakasi - zarba berish turiga qarab (qisqa yoki baland to‘pdan zarba berish) sakrash xususiyati umuman boshqacha bo‘ladi. Binobarin, sakrovchanlik yoki sakrash chidamkorligi degan

tushuncha ko‘p qamrovli mazmun, mohiyat, xususiyat va ma’noni anglatadi. Demak, bu sifatlarni rivojlantirish haqida gap borganda muayyan sakrash turi va uni o‘ziga munosib mashqlariga alohida e’tibor berilishi o‘ta muhim masaladir.

So‘nggi yillarda voleybol musobaqasi qoidalarining tubdan o‘zgarishi o‘yin faoliyati va o‘yin malakalarining ijro etilishiga batamom yangicha tus berib yuborgan. Hozirgi kunda deyarli barcha o‘yin malakalari aksariyat vaziyatlarda «havoda», ya’ni sakrab ijro etiladi (zarba, to‘siq qo‘yish, to‘p kiritish, uzatish, to‘pni qabul qilish, yiqilib qabul qilish). Ushbu holatni yuzaga kelishi voleybol amaliyotida sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi sifatlariga e’tibor qaratishni nafaqat kuchaytirayapti, balki bu sifatlarni jadal rivojlantirishga qaratilgan yangi ilmiy texnologiyalar yaratishni taqazo etmoqda.

Shuning uchun ko‘p yillik sport tayyorgarligi jarayonida malakali voleybolchilarni tayyorlash samarasi sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi sifatlarini har tomonlama mukammal tarbiyalash ustivorligiga bevosita bog‘liq bo‘lib boryapti.

Voleybolchilar sakrovchanligi va sakrash chidamkorligini rivojlantirish muammolarini yorituvchi ilmiy tadqiqotlar hamda lmiy adabiyotlar doirasi juda keng (Kao Van Txi, 1971; Kondak N.N., 1985; Ivoylov A.V., 1974, 1981, 1985; Jeleznyak YU.D., 1978, 1988; Popichev M.I., 1990; Ayrapetyans L.R., 2003; Boyirbekov M., 2003 va boshqalar).

Jumladan, A.M.Naraliev (1987) vertikal sakrash misolida malakali voleybolchilarning tezkorlik-kuchlilik sifatini «zarbdor» uslubda rivojlantirish imkoniyati afzal ekanligini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha «portlovchi» kuchni rivojlantirishda ushbu uslubdan foydalanish yaxshi natija beradi, lekin bunday mashg‘ulotlarni musobaqadan 10-12 hafta avval 3 martadan o‘tkazib turish lozim bo‘ladi.

E.A.Sergeev fikriga ko‘ra, tayyorgarlikning dastlabki bosqichida tananing uzunligidan tashqari, sakrovchanlik va chaqqonlik sifatlari ko‘rsatgichlari o‘ta muhim xisoblanadi. Keyingi bosqichlarda esa tezkorlik, qo‘l mushaklari kuchi va diqqatning turg‘unligi ustivor ahamiyatga ega bo‘ladi.

Voleybol elementlari bilan ko‘shib o‘tiladigan jismoniy tarbiya darsnii kichik sinf o‘quvchilari jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etish darajasini o‘rganish natijasida Zuoza Aureliyus-Kazis Kazevich shunday hulosaga keldiki, aniq maqsadga yo‘naltirilgan voleybol darslari nafaqat yosh o‘quvchilarni tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib hisoblanadi, balki voleybol tugaragiga dastlabki tanlov asosida qabul qilish va ularning o‘yin ixtisosligini bashorat yordamida belgilab olish imkonini beradi.

Masalan: Sakrash tumbasi sakrovchanlikni va sakrash chidamliligini rivojlantiradi. Tumba bo‘limlardan iborat bo‘lib, uni har hil balandlikka qo‘yish mumkin. Asosan sakrovchanlikni oshirishda bajariladigan mashqlar quydagilardan iborat. Bir oyoqda va ikki oyoqda depsinib sakrash; sakrab o‘tish; yuqoriga sakrash va xujumchi zarbasini bajarishdagi sakrashlar kiradi. Sakrash espanderida mashq bajarish sakrovchanlikni rivojlantiradi. Bunda belga va polga amartizator boylanadi va osilib turgan to‘pga qo‘lni tekkizish uchun sakraladi. Mashqlarni nazorat qilishda

shug‘ullanuvchilarni jixozlardan to‘g‘ri foydalanishi va mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajarishiga e’tibor berish kerak. Yuqorida keltirilgan mashqlarni bir maromda bajarish yosh voleybolchilarda muhim rol o‘ynaydi. Buning uchun voleybolchi (sportchi) sakrash quvvatini va epchillik maxoratini doimiy bir xil maromda olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Shuni aytib o‘tish joizki sportchi sakrash quvvatini va epchillik xarakatini aniq bir mo‘ljalga olgan xolda to‘pga o‘sha kuch-quvvatini sarflamog‘i kerak. Voleybolchi o‘z zonasiga javob bergan holda xujum zarbasini yoki to‘pni uzatib berishni, to‘siq qo‘yishda boshqa sheriklariga xalaqit qilmagan holda sakrashni aniq bajarishi kerak. Yosh voleybolchilarda sakrovchanlikni oshirishda maktabdan tashqari va maktab sharoitlarida har hil harakatli va xalq o‘yinlaridan foydalanish bilan, ham sakrovchanlikni oshirish mumkin. Sakrovchanlik va sakrash chidamkorligi o‘yin mobaynida zarur rol o‘ynabgina qolmay, texnik usullarni chaqqonlik bilan bajarish va o‘yin davomida voleybolchini joy o‘zgartirishi rivojlanishini yaqindan ta’minlaydi. O‘yin ketayotgan bir jarayonda favqulotda har hil xarakatga soluvchi vaziyatlar bo‘lib qoladiki, bu vaziyatlar o‘yinchini to‘siq qo‘yishida va zarba berishida tez va aniq fikirlashini talab qiladi.

Foydalanilgan Adabıyotlar:

1. Ayrapetyans L.R., Godik M.A. Sportivnыye igrы. // Monografiya. T.: Ibn Sino, 1991. - 160 s.

2. Ayrapetyans L.R. Voleybol. // Uchebnik dlya vыsshix uchebnыx zavedeniy.T.: Zar qalam. 2006. - 240 s.

3. Ayrapetyants L.R., Pulatov A.A., Isroilov Sh.X. Voleybol. // Oliy o‘quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o‘quv qo‘llanma.T.: 2009. - 77 b.

4. Belyayev A.V. Obucheniye texnike igrы v voleybol i yeyo sovershenstvovaniye. //Metodicheskoye posobiye. M.: Olimpiya. Chelovek., 2008. – 54 s.

5. Berjo. Voleybol vishshego urovnya. // Avtor perevoda s fransuzskogo yazыka Yu.B.Chesnokov. M.: Olimpiya. Chelovek, 2007. - 31 s.

6. A.T.Hasanov va R.M.Toshpo'latov 2022. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.

7. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.

8. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

EFFECTIVENESS OF IMPROVING TECHNICAL AND TACTICAL TRAINING OF 14 - 15-YEAR-OLD BASKETBALL BOYS

Farxod Eshonqulov[1]

Jizzakh State Pedagogical University

KEYWORDS

physical training, basketball, technique, tactics, material and technical base

ABSTRACT

Theoretical and practical thoughts about the fact that the sport of basketball is rapidly growing today in terms of technical and tactical physical training and the need to prepare young basketball players for such development.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7883098
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master's student of theory and methodology of physical education and sports training, Jizzakh State Pedagogical University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

14 - 15 YOSHLI BASKETBOLCHI O'G'IL BOLALARNI TEXNIK VA TAKTIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Jismoniy tayyorgarlik, basketbol, texnika, taktika, moddiy-texnik baza

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Basketbol sport turini bugungi kunda,texnik-taktik jismoniy tayorgarlik bo’yicha jadallik bilan o’sayotganligi va yosh basketbolchilarni xam bunday rivojlanishga tayorlash kerakligi haqida nazariy va amaliy fikrlar.

Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog’lom qilib tarbiyalashdagi o’rnini xisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o’quv va moddiy-texnik bazasini yaratish hamda axolining sportga bo’lgan qiziqishini oshirish yo’lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib xayotga tadbiq etilmoqda. Chunki sport millatning o’zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o’zidagi bor saloxiyatini hamda millat sifatidagi qudratini, jahon uzra namoyon etmoqda.

Yuksak sport yutuqlarining mavqiyi musobaqalarda raqobatchilikning keskinlashishi hamda mamlakat terma jamoalari sportchilari avlodlarining ommalashishi qonuniy jarayoni hozirgi davrda sport tanlovi va istiqbolli yoshlarnitayyorlash ilmiy-asoslangan asoslarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi.

Sportning har xil turlarida tanlovga katta e’tibor beriladi. Sport o’yinlari bo’yicha maxsus adabiyotlarni o’rganib chiqish. sport o’yinlari turlarida, xususan basketbolda bolalar, yosh sportchilarni tanlash turli jihatlarining yetarlicha va bir tekis ishlab chiqilmaganligi to’g’risida xulosaga kelishga imkon beradi.

Basketbol uchun xos bo’lgan psixofiziologik jarayonlari va funksiyalari xususiyatlarini o’rganish maxsus sifatlari hamda ko’nikmalari yuksak darajada rivojlanganligi bilan bir qatorda, basketbolchi quyidagilarga ega bo’lishi kerakligini ko’rsatadi:

- harakatlanish aniqligi va tezligi;
- kontakt uzatish aniqligi va yumshoqligini ta’minlovchi nozik musqullar hissini;
- o’yinda o’zgarib boruvchi vaziyatga javoban tez va aniq ko’ra bilish;
- texnik uslublar va taktik harakatlar bajarish jarayonida kuzatib borishga imkon beruvchi yaxshi rivojlangan atrofni ko’ra bilishi;
- diqqatning yuksak barqarorligi va tezlikda boshqalarga qaratilishi.

Sport maktablarining amaldagi dasturlarini tahlil qilish, o’quvchilarni boshlang’ich tayyorgarlik guruhlariga tanlash; ko’p yillik tayyorgarlik jarayonida yosh basketbolchilarni bitiruv va joriy sinovlariga asosan umumiy va maxsus jismoniy rivojlanganligi, jismoniy va

texnik tayyorgarligi belgilarini hisobga olish asosida o'tkazilishini ko'rsatadi.

Shu bilan bir vaqtda, so'nggi yillarda, respublikamizda keng tarqalgan sport turlaridan biri – basketbolning rivojlanishida yaqqol ko'zga tashlanadigan tomonlaridan biri, kombinatsion o'yinning kuchayishi hisoblanadi. Bu sportchilarning o'yinda fikrlashlari va taktik tayyorgarliklariga bir qator qat'iy talablarni qo'yadi.

Basketbol bilan shug'ullanish uchun bolalarni tanlashda – boshqa ko'rsatkichlar bilan birgalikda, faqatgina umumiy va maxsus jismoniy rivojlanganlik, jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari yordamida aniqlash mumkin bo'lmagan o'yin faoliyatiga qobiliyatlarini rivojlantirish va namoyon etishga sabab bo'luvchi shaxsiy sifat va xususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyatga ega bo'lmoqda. yosh basketbolchilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yordam bera oladigan yangicha yondashuvlar, samarali vositalar va metodlarni ilmiy izlash zaruriyati yuzaga keladi.

Murabbiylar basketbol sport turini bugungi kunda,texnik-taktik jismoniy tayorgarlik bo'yicha jadallik bilan o'sayotganligi va yosh basketbolchilarni xam bunday rivojlanishga tayorlash kerakligini izohlaydi.

Ko'pgina basketbol mutaxassislari (Qosimov A.SH. 1986; Rasulev O.T. 1998), yosh basketbolchilarni mahorat darajasini oshirish to'g'ridan-to'g'ri ilk yoshlik chog'idan boshlab basketbol o'yiniga rejasi va malakali ravishda o'rgatishga bog'liqligini ta'kidlashadi.

A.A.Suchilin (1987) yosh basketbolchilarni maxoratli qilib tarbiyalashda murabbiylardan bolalarda quydagi jixatlarni ko'ra bilish va talab eta olishni e'tirof etadi:

- bolalarni kuchli-irodaviy, o'zini tuta bilish
- mashg'ulotlarda texnik harakatlarni, mashqlarni astoidil bajarishlari
- yuqori darajadagi jismoniy sifatlarga (tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, tezlik-kuch) ega bo'lish
- organizmning sog'lom bo'lishi, o'yinlarda funksional tayyorgarligi a'lo darajada bo'lishini yosh basketbolchilarning dastlabki tayyorgarligida mutaxassislar ko'proq texnik tayyorgarlikka e'tibor berishini ta'kidlaydilar. Mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tayyorgarlikka 30-40% vaqt ajratishni ko'rsatilgan.

Yosh basketbolchilarning texnik tayyorgarligi, o'yin texnikasining ayrim usullariga o'rgatish, o'rganilganlarning nazoratsiz qoldirilishi mumkin emas. Agar o'yin texnikasiga o'rgatish rejelashtirilgan muntazam mashg'ulotlar bilan o'tkazilsa, unda u yaxshi natija berishi mumkin.

Sport maktablari tizimida yangi sportchilarni o'yin texnikasiga o'rgatishda navbatma-navbat keladigan ketma-ketlikka rioya qilish zarur hamda uni quyidagi tamoyil asosida:

1) osondan qiyinga,

2) oddiydan murakkabga, amalga oshirish kerak.

Basketbol o'yini texnikasi, harakat malakalarining umumiy o'ziga xos xususiyatlaridan tashqari, bir qator o'ta ixtisoslashgan malakalarga ega. Texnika usullari va to'pni egallab olishning ayrim elementlarini bajarish hamda ularni o'yin vaziyatlarida

qo’llash quyidagicha tavsiflanadi:

1) basketbol harakatlari malakasi xar doim ma’lum bir sifatlar, masalan, mushak-kuch, tezkorlik, chidamlilikka asoslanadi;

2) harakat malakasi o’yin texnikasini ifodalovchi element xisoblanadi va ushundan iboratki, uzoq vaqt ichida yuqori darajada barqaror bo’ladi, ya’ni o’yin texnikasi malakalari ko’p yillarga saqlanib qoladi;

3) o’yin paytida basketbolchilar texnik usullarni «o’ziga xos muhitda» qo’llaydilar: o’yin qoidalarida gavda bilan kurash olib borish ruxsat beriladi. Bunda raqibingiz sizga u yoki bu texnika usulini qo’llashingizga xalaqit berishi mumkin. Shuning uchun texnikaga o’rgatish va uni mustaxkamlashda o’yindagi kurash xususiyati hamda raqibning qarshilik ko’rsatuvchi harakatlarini nazardan qochirmaslik lozim.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. O’yin xususiyati va harakatlarning o’ziga xos tuzilmasi, o’yinchilarning individual jismoniy hamda ruhiy xususiyatlaridan tashqari, texnikaga o’rgatish va uni mustaxkamlashni belgilab beradi. Harakatlarga o’rgatishni alohida qismlarga bo’lingan va parchalangan xolda amalga oshirish mumkin emas.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Rasulyev O.T. Basketbol. Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. Toshkent,1998.
2. Sokolova N.D. G’aniyeva F.V. Ismatullayev X.A. Basketbol. Ma’ruzalar to’plami, Toshket, 2001.
3. Active schools. Kori ki te Kura. Games sport New Zealand 2012 year.
4. Harko Brown. Traditional Maori Games. - Copyright 2006 year.
5. A.T.Hasanov va R.M.Toshpo'latov 2022.
6. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARDA Jismoniy tarbiya VA SPORTNI RIVOJLANISH METODIKASINI TAKMORLASH. Akademik tadqiqotlar va ta'lim fanlari tendentsiyalari jurnali . 1, 7 (2022 yil iyun), 95–99.
7. Hasanov AT, Mamanazarova AB OILADA BOLALARNI SOG'lom turmush tarzini shakllantirish USULLARI //O'quv fanlaridagi akademik tadqiqotlar va tendentsiyalar jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 7. – S. 6-9.
8. Hasanov A. T., Mamanazarova A. B. WRESTLING PREPARATION PROCESS IN SPORTS SCHOOLS //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 3. – C. 174-176.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

NUMERICAL SOLUTION OF THERMOPLASTIC DYNAMIC DEPENDENCE PROBLEM

Yusufbay Yusupov[1,2]

Davlatjon Isoqov[3]

National University of Uzbekistan , Kimyo International University in Tashkent, Jizzakh State Pedagogical University

KEYWORDS

parabolic, hyperbolic, isotropic, deformation, thermoplastic, revealing and non-revealing schemes, dynamic

ABSTRACT

It is devoted to the creation of a mathematical model that expresses the deformation processes of isotropic bodies in a parabolic-hyperbolic state, taking into account the temperature, and corresponding calculation models. Calculation algorithms were built based on discrete analysis of mathematical models and software was created in C# language. Concretely specific issues have been resolved based on the software.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7883150
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Ph.D., Associate Professor of the Faculty of Applied Mathematics and Intellectual Technologies, National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan (yusabio@gmail.com)

[2] Ph.D., Associate Professor of Applied Informatics Department, Kimyo International University in Tashkent, Uzbekistan

[3] Master's student of the Faculty of Mathematics and Informatics, Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

ТЕРМОПЛАСТИК ДИНАМИК БОҒЛИҚЛИ МАСАЛАНИ СОНЛИ ЕЧИШ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

параболик, гиперболик, изотроп, деформация, термопластик, ошкор ва ошкормас схемалар, динамик

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Параболик-гиперболик ҳолатдаги изотроп жисмларнинг деформацияланиш жараёнларини температурани ҳисобга олган ҳолда ифодалайдиган математик модел ва унга мос ҳисоблаш моделларини тузишга бағишланган. Математик моделларнинг дискрет анализлари асосида ҳисоблаш алгоритмлари қурилган ва C# тилида дастурий таъминоти яратилди. Дастурий таъминот асосида канкрет аниқ масалалар ечилди.

Кириш. Маълумки, $\Omega = \left\{ a \le x \le b,\ t_0 \le t \le T^* \right\}$ соҳада изотроп стержень кўринишидаги қаттиқ жисмлар учун термопластик динамик боғлиқ масалалари биргаликдаги чизиқсиз гиперболик *турдаги* ҳаракат тенгламаси[4]

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = K_{21}\frac{\partial}{\partial x}(K_{22}\frac{\partial u}{\partial x}) + K_{23}\frac{\partial u}{\partial x} + K_{24}u + K_{25}\frac{\partial T}{\partial x} + P \qquad (1)$$

ва *параболик* турдаги *иссиқлик ўтказувчанлик* тенгламаси

$$\frac{\partial T}{\partial t} = K_{11}\frac{\partial}{\partial x}(K_{12}\frac{\partial T}{\partial x}) + K_{13}\frac{\partial T}{\partial x} + K_{14}T + K_{15}\frac{\partial^2 u}{\partial x \partial t} + Q \qquad (2)$$

ёрдамида умумий кўринишда ифодаланиши мумкин. Бу ерда K_{ij}, P ва Q ҳадлар умуман олганда x, t, T ва u ларнинг чизиқсиз функциялари бўлиб, хусусий ҳолларда ўзгармаслар сифатида аниқ кўринишларда берилади [1-2]. Масала моҳиятига кўра (1)-(2) кўринишдаги гиперболо-параболик турдаги тенгламалар системасини ушбу бошланғич

$$u\big|_{t=t_0} = \varphi(x), \qquad u_t\big|_{t=t_0} = \psi(x), \qquad T\big|_{t=t_0} = \eta_0(x) \qquad (3)$$

ва чегаравий шартлар

$$u\big|_{x=a} = \chi_1(t), \qquad u\big|_{x=b} = \chi_2(t) \qquad (4)$$

$$T\big|_{x=a} = \xi_1(t), \qquad T\big|_{x=b} = \xi_2(t) \qquad (5)$$

ёрдамида сонли ечиш алгоритми ва программасини яратиш билан бир қаторда баъзи бир итерацион сонли ечиш усулларини таҳлил қилиш кабилар кўзда тутилади. Бу ерда масала коррект қўйилган деб фараз қилинади. Масала маълум бир чизиқсизликларни ҳам ҳисобга олган ҳолда умумий кўринишда ифодаланганлиги боис, тўр усулида итерацион ечиш усулларини қўллашга тўғри келади. Бунинг учун дастлаб берилган Ω соҳа Ox ўқи бўйича $h = (b-a)/(m-1)$ ва Ot ўқи бўйича $\tau = (T^* - t_0)/(n-1)$ қадамлар билан $x_i = a + (i-1)h$ ва $t_j = t_0 + (j-1)\tau$ $\left(i = \overline{1,m};\ j = \overline{1,n}\right)$ чизиқлар ёрдамида дискретлаштириб олинади [3]. Масалада қатнашган барча ҳадларни чекли

айирмали кўринишга ўтказиб олишда тенгламаларда қатнашаётган ва чизиқсиз бўлиши кўзда тутилаётган барча функцияларни чизиқлаштиришнинг Пикар ёки Ньютон усулларидан фойдаланиб алмаштириш кўзда тутилади. Маълумки, бундай итерацион жараёнларнинг аниқ ечимга қанчалик тез ёки секин яқинлашиши эса танланаётган бошланғич яқинлашишларга[6], қўлланилаётган чизиқлаштириш усулига ва ошкор ёки ошкормас схемалардан қайси бири қўлланилганига боғлиқ бўлади[7-9]. Одатда, тенгламалардаги K_{ij} коэффициентларни чизиқсизлаштиришда вақт бўйича битта олдинги қатламдаги ҳисоблашлардан ёки Пикар усулидан фойдаланиш мумкин. Q ва P функцияларни эса чизиқлаштиришнинг бевосита Ньютон усулидан фойдаланиш мақсадга мувофиқдир. Мана шуларга кўра стерженьдаги температура тарқалишини аниқлашни қуйидаги ошкор ва ошкормас схемалар ёрдамида ифодаланган

$$\frac{T_i^{j+1}-T_i^j}{\tau}=K^j{}_{11i}\left\{K^j{}_{12i+1}\frac{T_{i+1}^j-T_i^j}{h^2}-K^j{}_{12i}\frac{T_i^j-T_{i-1}^j}{h^2}\right\}+K^j{}_{13i}\frac{T_{i+1}^j-T_{i-1}^j}{2h}+$$
$$+K^j{}_{14i}T_i^j+K^j{}_{15i}\frac{u_{i+1}^{j+1}-u_{i+1}^j-u_i^{j+1}+u_i^j}{h\tau}+Q_i^j+\mu_1 Q^j{}_{Ti}(T_i^{j+1}-T_i^j) \quad (6)$$

$$\frac{T_i^{j+1}-T_i^j}{\tau}=K^j{}_{11i}\left\{K^j{}_{12i+1}\frac{T_{i+1}^{j+1}-T_i^{j+1}}{h^2}-K^j{}_{12i}\frac{T_i^{j+1}-T_{i-1}^{j+1}}{h^2}\right\}+K^j{}_{13i}\frac{T_{i+1}^{j+1}-T_{i-1}^{j+1}}{2h}+$$
$$+K^j{}_{14i}T_i^{j+1}+K^j{}_{15i}\frac{u_{i+1}^{j+1}-u_{i+1}^j-u_i^{j+1}+u_i^j}{h\tau}+Q_i^j+\mu_1 Q^j{}_{Ti}(T_i^{j+1}-T_i^j) \quad (7)$$

тенгламалар системасига ва унинг таъсирида кўчишнинг ўзгаришини аниқлашни эса уч қатламли ошкор ва ошкормас схемалар ёрдамида ифодаланган[10-11]

$$\frac{u_i^{j+2}-2u_i^{j+1}+u_i^j}{\tau^2}=K^j{}_{21i}\left\{K^j{}_{22i+1}\frac{u_{i+1}^j-u_i^j}{h^2}-K^j{}_{22i}\frac{u_i^j-u_{i-1}^j}{h^2}\right\}+K^j{}_{23i}\frac{u_{i+1}^j-u_{i-1}^j}{2h}+$$
$$+K^j{}_{24i}\,u_i^j+K^j{}_{25i}\frac{T_{i+1}^{j+1}-T_{i-1}^{j+1}}{2h}+P_i^j+\mu_2 P^j{}_{ui}(u_i^{j+2}-u_i^{j+1}) \quad (8)$$

$$\frac{u_i^{j+2}-2u_i^{j+1}+u_i^j}{\tau^2}=K^j{}_{21i}\left\{K^j{}_{22i+1}\frac{u_{i+1}^{j+2}-u_i^{j+2}}{h^2}-K^j{}_{22i}\frac{u_i^{j+2}-u_{i-1}^{j+2}}{h^2}\right\}+K^j{}_{23i}\frac{u_{i+1}^{j+2}-u_{i-1}^{j+2}}{2h}+$$
$$+K^j{}_{24i}\,u_i^{j+2}+K^j{}_{25i}\frac{T_{i+1}^{j+1}-T_{i-1}^{j+1}}{2h}+P_i^j+\mu_2 P^j{}_{uj}(u_i^{j+2}-u_i^{j+1}) \quad (9)$$

кўринишидаги тенгламалар системасини ечишга олиб келиш мумкин. Бу ерда μ_1 ва μ_2 параметрлар Q ва P ларни Пикар ($\mu_1=\mu_2=0$) ёки Ньютон ($\mu_1=\mu_2=1$) усуллари ёрдамида чизиқлаштириш учун киритилган ($j=\overline{1,N-1};\ i=\overline{1,m-1}$). Буларни соддалаштиргач, мос равишда

$$T_i^{j+1}=\left\{\tau\left[\begin{array}{l}K^j{}_{11i}\left(K^j{}_{12i+1}\dfrac{T_{i+1}^j-T_i^j}{h^2}-K^j{}_{12i}\dfrac{T_i^j-T_{i-1}^j}{h^2}\right)+K^j{}_{13i}\dfrac{T_{i+1}^j-T_{i-1}^j}{2h}+\\ +K^j{}_{14i}T_i^j+K^j{}_{15i}\dfrac{u_{i+1}^{j+1}-u_{i+1}^j-u_i^{j+1}+u_i^j}{h\tau}+Q_i^j-\mu_1 Q^j{}_{Ti}T_i^j\end{array}\right]+T_i^j\right\}/(1-\tau\,\mu_1 Q^j{}_{Ti}),\quad(10)$$

$$A_1T_{i-1}^{j+1}+C_1T_i^{j+1}+B_1T_{i+1}^{j+1}=D_1,\quad(11)$$

$$u_i^{j+2}=\left\{2u_i^{j+1}-u_i^j+\tau^2\left[\begin{array}{l}K^j{}_{21i}\left\{K^j{}_{22i+1}\dfrac{u_{i+1}^{j+1}-u_i^{j+1}}{h^2}-K^j{}_{22i}\dfrac{u_i^{j+1}-u_{i-1}^{j+1}}{h^2}\right\}+K^j{}_{23i}\dfrac{u_{i+1}^{j+1}-u_{i-1}^{j+1}}{2h}+\\ +K^j{}_{24i}u_i^j+K^j{}_{25i}\dfrac{T_{i+1}^{j+1}-T_{i-1}^{j+1}}{2h}+P_i^j-\mu_2 P^j{}_{ui}u_i^{j+1}\end{array}\right]\right\}/\,(1-\mu_2\tau^2 P^j{}_{ui}),\quad(12)$$

$$A_2u_{i-1}^{j+2}+B_2u_i^{j+2}+C_2u_{i+1}^{j+2}=D_2\quad(13)$$

кўринишдаги ҳисоблаш формулаларига эга бўламиз. Натижавий ҳисоблашларни (10)-(13) тенгламаларнинг $\left\{T_i^{j+1};u_i^{j+2}\right\}$ жуфтлик кўринишидаги комбинацияларидан ҳосил бўладиган қуйидаги тўртта вариантда амалга ошириш мумкин[12-14]. Буларнинг орасидан самаралисини танлаб олиш эса, фақатгина бирор муайян, қолаверса аниқ ечими маълум бўлган тест масаласи ёрдамидагина амалга оширилиши мумкин:

1-Вариант: $\begin{cases}(10)\\(12)\end{cases}$ 2-Вариант: $\begin{cases}(10)\\(13)\end{cases}$ 3-Вариант: $\begin{cases}(11)\\(12)\end{cases}$ 4-Вариант: $\begin{cases}(11)\\(13)\end{cases}$

Барча $\left\{T_i^{j+1};u_i^{j+2}\right\}$ жуфтликлар системаси кўринишидаги вариантлар юқорида берилган (3)-(5) шартлар: $T_i^1=\eta_0(x_i)$, $T_1^j=\xi_1(t_j)$, $T_m^j=\xi_2(t_j)$, $u_i^1=\varphi(x_i)$, $\dfrac{u_i^2-u_i^1}{\tau}=\psi(x_i)$, $u_1^j=\chi_1(t_j)$, $u_m^j=\chi_2(t_j)$ ёрдамида ечилади. Бу ерда A_s, B_s, C_s, D_s – коэффициентлар (7) ва (9) тенгламалардан аниқланади (s=1,2); $K^j{}_{11i}=K_{11}(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$, $K^j{}_{12i}=K_{12}(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$, ... , $K^j{}_{25i+1}=K_{25}(x_{i+1},t_j,T_{i+1}^j,u_{i+1}^j)$, $P_i^j=P(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$, $Q_i^j=Q(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$, $P_{ui}^j=P_u(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$, $Q_{Ti}^j=Q_T(x_i,t_j,T_i^j,u_i^j)$ - берилади.

Тест масаласи. Тест масаласи сифатида (1)-(5) масалада берилганларнинг ушбу $K_{11}=K_{12}=1$, $K_{13}=K_{14}=0$, $K_{15}=T^{n_1}$, $K_{21}=K_{22}=1$, $K_{23}=K_{24}=0$, $K_{25}=T^{n_2}$, $Q=T(T^{n_1-1}u-2)$, $Q_T^{'}=n_1T^{n_1-1}u-2$, $P=T^{n_2+1}$, $P_u^{'}=0$, $\chi_2(t)=\sin(1+t)$, $\xi_1(t)=e^{-t}$, $\xi_2(t)=e^{-(1+t)}$ қийматларида аниқ ечимлари $T(x,t)=e^{-(x+t)}$ ва $u(x,t)=\sin(x+t)$ кўринишда маълум бўлган ҳол учун ҳисоблаш экспериментлари ўтказилди. Бунда Ω соҳани ўзгармас қадамли дискрет соҳага келтириш учун a=0, b=1, $t_0=0, T^*=1$, $m=n=10$, $n_1=4, n_2=2$ ва вақт бўйича қатламлар орасидаги чизиқлаштириш усулларидан фойдаланишда итерацион жараённинг яқинлашиши учун аниқликни ε=0.001 деб олинди. Жумладан, 3-вариант ёрдамида олиб борилган ҳисоблашларда итерацион жараёндаги итерациялар сони 3

тадан ошмади. P ва Q функцияларни Ньютон усулида чизиқлаштирилганда ($\mu_1 = \mu_2 = 1$) нисбий хатоликларнинг максимал қиймати 1.58 дан, Пикар усулида ($\mu_1 = \mu_2 = 0$) эса 2.08 дан ошмайди. Чизиқсиз ҳадларни бевосита вақт бўйича олдинги қатламда ҳисоблаш орқали ҳам чизиқлаштириш мумкин. Бу усулда олинган натижалар Пикар усулида олинган натижалар билан бир хил бўлиб, Ньютон усулида олинган натижаларнинг эса яхшироқ эканлигини айтиб ўтиш лозим. Ҳисоблаш экспериментларининг натижалари қуйидаги 1-2 жадвалларда Ω соҳанинг x= 0.222, 0.556, 0.889; t=0.222, 0.556 қийматларида масаланинг аниқ ечими билан чизиқлаштиришнинг ҳар хил усуллари ёрдамида олинган тақрибий ечимлар, ҳамда улар орасидаги абсолют ва нисбий хатоликлар келтирилади.

1-жадвал.

t/x	**U(x,t)**	0.222	0.556	0.889
0.222	Аниқ ечим (U)	0.4300	0.7017	0.8962
	Тақр.ечим: Ньютон усули ($U_Н$)	0.4331	0.7085	0.9007
	Тақр.ечим: Пикар усули ($U_П$)	0.4330	0.7085	0.9007
	Тақр.ечим: Вақт бўйича ($U_В$)	0.4330	0.7085	0.9007
	$\Delta U_Н$ =| U- $U_Н$ | Ньютон усулида	0.0031	0.0068	0.0045
	$\Delta U_П$ =| U- $U_П$ | Пикар усулида	0.0030	0.0068	0.0045
	$\Delta U_В$ =| U- $U_В$ | Вақт бўйича	0.0030	0.0068	0.0045
	|$\Delta U_Н$ /U | (%) Ньютон усулида	0.7279	0.9763	0.5008
	| $\Delta U_П$/U | (%) Пикар усулида	0.7010	0.9756	0.5039
	| $\Delta U_В$/U | (%) Вақт бўйича	0.7010	0.9756	0.5039
0.556	Аниқ ечим (U)	0.7017	0.8962	0.9920
	Тақр.ечим: Ньютон усули ($U_Н$)	0.7085	0.9073	0.9949
	Тақр.ечим: Пикар усули ($U_П$)	0.7080	0.9071	0.9949
	Тақр.ечим: Вақт бўйича ($U_В$)	0.7080	0.9071	0.9949
	$\Delta U_Н$ =| U- $U_Н$ | Ньютон усулида	0.0068	0.0111	0.0045
	$\Delta U_П$ =| U- $U_П$ | Пикар усулида	0.0063	0.0109	0.0045
	$\Delta U_В$ =| U- $U_В$ | Вақт бўйича	0.0063	0.0109	0.0045
	| $\Delta U_Н$ /U | (%) Ньютон усулида	0.9737	1.5763	0.2877
	| $\Delta U_П$ /U | (%) Пикар усулида	0.8994	1.5510	0.2919
	| $\Delta U_В$ /U | (%) Вақт бўйича	0.8994	1.5510	0.2919

2-жадвал.

t/x	**T(x,t)**	0.222	0.556	0.889
0.222	Аниқ ечим (T)	0.6412	0.4594	0.3292
	Тақр.ечим: Ньютон усули ($T_н$)	0.6409	0.4595	0.3293
	Тақр.ечим: Пикар усули ($T_п$)	0.6343	0.4512	0.3262
	Тақр.ечим: Вақт бўйича ($T_в$)	0.6343	0.4512	0.3262
	$\Delta T_н$ =| T-$T_н$ | Ньютон усулида	0.0003	0.0001	0.0001
	$\Delta T_п$ =| T- $T_п$ | Пикар усулида	0.0069	0.0082	0.0030
	$\Delta T_в$ =| T- $T_в$ | Вақт бўйича	0.0069	0.0082	0.0030
	| $\Delta T_н$ /T | (%) Ньютон усулида	0.0441	0.0146	0.0416
	| $\Delta T_п$/T |(%) Пикар усулида	1.0731	1.7916	0.9161
	| $\Delta T_в$/T |(%) Вақт бўйича	1.0731	1.7916	0.9161
0.556	Аниқ ечим (T)	0.4594	0.3292	0.2359
	Тақр.ечим: Ньютон усули ($T_н$)	0.4598	0.3300	0.2363
	Тақр.ечим: Пикар усули ($T_п$)	0.4539	0.3222	0.2334
	Тақр.ечим: Вақт бўйича ($T_в$)	0.4539	0.3222	0.2334
	$\Delta T_н$ =| T- $T_н$ | Ньютон усулида	0.0004	0.0008	0.0001
	$\Delta T_п$ =| T- $T_п$ | Пикар усулида	0.0056	0.0069	0.0030
	$\Delta T_в$ =| T- $T_в$ | Вақт бўйича	0.0056	0.0069	0.0030
	| $\Delta T_н$ /T |(%) Ньютон усулида	0.0907	0.1651	0.1621
	| $\Delta T_п$ /T |(%) Пикар усулида	1.2098	1.5122	1.0515
	| $\Delta T_в$ /T |(%) Вақт бўйича	1.2098	1.5122	1.0515

Қуйидаги расмларда (1)-(5) масалани чизиқсиз тест масаласида ечиш учун Ньютон усули қўлланилгандаги, вариантлардан энг самаралиси бўлган 3-вариант ёрдамида олинган сонли ва аниқ ечимларнинг графиклари тасвирланган. Графикларнинг устма-уст тушаётганлиги қўлланилаётган усулнинг яхшилигини, шунга мос алгоритм ва программанинг эса тўғрилигини тасдиқлайди.



1-расм. Фиксирланган t=0.56 вақтдаги: а) температуранинг. б) кўчишнинг Ох ўқи бўйича аниқ ва тақрибий ечимларнинг ўзгариш графиклари.

Мана шуларга асосланиб, юқорида келтирилган тест масаласи учун иссиқлик манбаси сифатида қатнашаётган Q функциянинг $Q=0$ ва $Q=e^T$ бўлган ҳолларида тенгламаларда n_1 ва n_2 - даражали кўринишларда берилган чизиқсиз коэффициентлар($K_{15}=T^{n_1}$ ва $K_{25}=T^{n_2}$)нинг сонли ечимларга таъсирини ўрганиш бўйича ҳисоблаш экспериментлари олиб борилди. Жумладан, $n_2=2$ ўзгармас деб, n_1 нинг 0 дан бошлаб, то 126 гача бўлган қийматларида олинган сонли натижаларнинг ўзгаришлари 2- ва 3-расмларда график кўринишларда келтирилган. Хусусан, $Q=0$ бўлганда температура функциясининг ҳар хил вақтлардаги (t=0; 0.22; 0.44; 0.56; 0.89; 1) графиклари (3) - бошланғич шартдаги $\eta_0(x)$ функциясининг графигидан пастда жойлашиши, $\eta_0(x)$ нинг температура учун юқори ечим сифатида қаралиши мумкинлигини кўрсатади. Кўчиш функцияси учун эса аксинча, яъни кўчиш функциясининг графиклари (3)-бошланғич шартдаги $\varphi(x)$ функциясининг графигидан юқорида жойлашиши кузатилди. Бу эса $\varphi(x)$ нинг кўчиш функцияси учун қуйи ечим сифатида олиниши мумкинлигини намоён қилади. Манба функциясининг ўзгариши $Q=e^T$ кўринишида бўлганда эса, температура ўзгариши бўйича ўзига хос ҳолатларни кузатиш мумкин, лекин кўчиш функциясида бундай кескин ўзгаришлар кузатилмади (3-расм).



2-расм. Тенгламада $Q=0$ ҳол учун температуранинг а) n1=0; б) n1=10; в) n1=126 ва кўчишнинг г) n1=126 ўзгариши графиклари.



3-расм. Тенгламада $Q = e^T$ ҳол учун температуранинг а) n1=0; б) n1=10; в) n1=16 ва кўчишнинг г) n1=16 ўзгариши графиклари.

Хулоса қилиб айтганда, (1)-(5) кўринишдаги масалаларни сонли ечиш учун тавсия қилинаётган алгоритм варианти, шу асосида яратилган программалар мажмуаси ва олинган натижалар муайян кўринишдаги чизиқсиз амалий масалаларни ечиш учун методик кўрсатма бўлиб хизмат қилиши мумкин.

АДАБИЁТЛАР

1. Khaldjigitov, A. A., Kalandarov, A. A., & Yusupov, Y. S. (2019). Coupled problems of thermoelasticity and thermoplasticity. *T.“Fan va texnologiya”*, 203.

2. Yusupov, Y. S. (2022). Numerical Solution of a TwoDimensional Dynamic Related Problem of Thermal Support. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, *5*, 125-134.

3. Khaldjigitov, A. A., Yusupov, Y. S., Khudazarov, R. S., & Sagdullaeva, D. A. (2019). On the thermoplasticity constitutive relations for isotropic and transversely isotropic materials. *International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD)*, *9*(4), 467-478.

4. Khaldjigitov, A. A., Yusupov, Y. S., Rasedee, A. F. N., & Long, N. N. (2019, April). Mathematical modeling and simulation of the coupled strain space thermoplasticity

problems. In *Journal of Physics: Conference Series* (Vol. 1212, No. 1, p. 012023). IOP Publishing.

5. Юсупов, Ю. С. (2019). Численное решение связанной динамической термоупругопластической задачи, основанной на деформационной теории. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (4 (22)), 101-110.

6. Saidjonovich, Yusupov Yusufbay, and Babadjanov Mumin Radjapovich. "Numerical solution of a Three-Dimensional Coupled thermoplastic problem based on deformation theory" *The International Journal of Science & Technoledge* 7.9 (2019).

7. Халджигитов А.А., Юсупов Ю.С., & Адамбаев У.Э. (2019). Численное моделирование связанной двумерной динамической задачи термопластичности. *Вестник Илм сарчашмалари, (11), 12-15.*

8. Yusupov, Y., & Khaldjigitov, A. A. (2017). Mathematical and numerical modeling of the coupled dynamic thermoplastic problem. *Universal Journal of Computational Mathematics*, *5*(2), 34-43.

9. Юсупов Ю. С., Хасанов К. А. Численное решение одномерной термопластической задачи для изотропных тел //Управление инновациями: теория, методология, практика. – 2014. – №. 11. – С. 131-138.

10. Юсупов Ю. С., Хужакулов Ш. А., Худаяров Ш. Ш. Численное решение двухмерной связанной термопластической задачи основанной на деформационной теории //Управление инновациями: теория, методология, практика. – 2014. – №. 11. – С. 138-144.

11. Yusupov Y. S., Khaldjigitov A. A. Numerical solution of the coupled dynamic problems based on the deformation and flow thermoplasticity theories.

12. Khaldjigitov, A. A., Qalandarov, A. A., Yusupov, Y. S., & Sagdullaeva, D. A. (2013). Numerical modelling of the 1D thermoplastic coupled problem for isotropic materials. *Acta TUIT*, *1*.

13. Yusupov, Yu S. "Numerical Solution of a TwoDimensional Dynamic Related Problem of Thermal Support." *Eurasian Journal of Engineering and Technology* 5 (2022): 125-134.

14. Ю.С. Юсупов; С.А. Абдувоитов. Математическое и численное решение двумерной связанной задачи термоупругости на основе деформацион теории. *Peri. Jour. of Mode. Phil. Soci. Scie. and Huma.* **2022**, *11*, 189-199.

15. A. A. Khaldjigitov, Yu. S. Yusupov, U. E. Adambaev, and D. A. Sagdullaeva, "Numerical solution of two-dimensional coupled thermoplastic problems", AIP Conference Proceedings 2637, 040007 (2022) https://doi.org/10.1063/5.0118532

16. Y.S. Yusupov and Ch.M. Xolmatova, “Numerical modelling of the one-dimensional thermoplastic coupled problem for isotropic materials using deformation theory”, *Euro.Jour.Eng. Tech*, vol. 15, pp. 71–77, Feb. 2023.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

USE OF THE AUXILIARY PROJECTION METHOD IN IMPROVING THE QUALITY OF ENGINEERING GRAPHICS EDUCATION

Polat Adilov[1]

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

KEYWORDS

Engineering graphics, education, quality, auxiliary projection, spatial imagination, graphic task, methodological development, image, students, orthogonal

ABSTRACT

This article discusses improving the quality of education using the auxiliary design method when teaching engineering graphics subjects in higher educational institutions.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7904573
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Associate Professor, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

MUHANDISLIK GRAFIKASI TA’LIMI SIFATINI OSHIRISHDA YORDAMCHI PROYEKTSIYALASH USULIDAN FOYDALANISH

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Muhandislik grafikasi, ta’lim, sifat, yordamchi proyektsiyalash, fazoviy tasavvur, grafik vazifa, metodik ishlanma, tasvir, talabalar, orthogonal

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishda yordamchi proyektsiyalash usulidan foydalanib ta’lim sifatini oshirish yoritilgan.

Ma’lumki, chizma geometriya, muhandislik va kompyuter grafikasi fanlarini o‘qitishda hamda bu fanlarga tegishli bo‘lgan pozitsion va metrik masalalarni yechishda asosan to‘g‘ri burchakli (ortogonal) proyektsiyalash usullaridan keng foydalaniladi.

O‘quv adabiyotlarda xozirgi kunda yetarli darajada yoritilmagan va shuning uchun xam ommaviy tus olmagan yordamchi proyektsiyalash usullarini har tomonlama chuqur o‘rganilib, ularni nazariy va amaliy asoslarini turli grafik yasashlarda hamda pozitsion va metrik masalalarini yechishda keng foydalanish ham maqsadga muofiq bo‘ladi deb o‘ylaymiz. Umuman olganda yordamchi proyektsiyalash usullarida proyektsiyalash yo‘nalishini to‘g‘ri chiziq yoki egri chiziq shaklida proyektsiya tekisligini esa tekislik yoki turli ko‘rinishdagi sirtni tanlash mumkin.

Ushbu maqolada professor S.M.Kolotov (1880-1965) tomonidan 1933-yilda tavsiya qilingan yordamchi markaziy va parallel proyektsiyalar usullariga diqqatimizni qaratamiz. Bu usulning pozitsion va metrik masalalarni yechishda uning qulayligi to‘g‘risida nazariy va amaliy yechimlarini keltiramiz. Uning mohiyati quyidagilardan iborat. Biror narsaning tasviri chizma tekisligida asosiy proyektsiyalash yo‘nalishi (markaziy yoki parallel) bo‘yicha hosil qilingan bo‘lsin, uning yangi proyektsiyasini yasash uchun qo‘shimcha proyektsiyalar tekisligi va proyektsiyalash markazini biron (xos yoki xosmas) nuqtada tanlab olinadi. Berilgan narsani bu markazdan qo‘shimcha tekislikka proyektsiyalanadi. Hosil bo‘lgan qo‘shimcha proyektsiyani asosiy proyektsiyalash yo‘nalishi bo‘yicha chizma tekisligiga proyektsiyalab, narsaning takroriy proyektsiyasi yasaladi. Narsaning ana shunday ikki marta proyektsiyalash natijasida asosiy chizma tekisligida hosil qilingan takroriy proyektsiyasi uning umumiy xoldagi yordamchi proyektsiyasi bo‘ladi. 1-rasm. a da asosiy proyektsiyalar tekisligi V, proyektsiyalash markazi O va A, B nuqtalar berilgan. A, B nuqtalarni V tekislikda O markazdan proyektsiyalash orqali uning markaziy A", B" proyektsiyalari yasalgan.



1-rasm. *a* *b* *v*

Qo‘shimcha proyektsiyalash markazi S nuqtani va qo‘shimcha P tekislikni tanlab olamiz. S markazdan A va B nuqtalarni P tekislikka proyektsiyalab, unda qo‘shimcha, proyektsiyalarni hosil qilamiz. So‘ngra proyektsiyalarini asosiy proyektsiyalash markazi O nuqtadan V tekislikka proyektsiyalab, unda A, B nuqtalarning yordamchi va proyektsiyalariga ega bo‘lamiz.

Yordamchi proyektsiyalashning bu umumiy holiga nisbatan parallel proyektsiyalash tadbiq qilinsa, uning amalda keng qo‘llaniladigan xususiy hollari kelib chiqadi: 1) asosiy proyektsiyalash markazi O xos nuqtada, qo‘shimcha proyektsiyalash markazi esa (S∞) xosmas nuqtada (1-rasm, b); 2) asosiy proyektsiyalash markazi xosmas (O∞) nuqtada, qo‘shimcha proyektsiyalash markazi S xos nuqtada (1-rasm, v); 3) ikkala proyektsiyalash markazlari xosmas nuqtalarda, ya’ni O∞, S∞ bo‘lshi mumkin. Bu hollarda birinchisi perspektiv yasashlarda ikkinchi va uchinchi hollar esa parallel proyektsiyalashda pozitsion va metrik masalalarni yechishda qo‘llaniladi.

Markaziy proyektsiyalashda nuqtalarni proyektsiyalaovchi vertikal nur tekisliklari proyektsiyalash markazidan yo‘nalgan vertikal to‘g‘ri chiziq orqali o‘tib to‘g‘ri chiziqlar dastasini hosil qiladi. Bular T2 moslik va qo‘shimcha tekisliklar bilan kesishib, ularda S' va S'1 markazlarga ega bo‘lgan markaziy to‘g‘ri chiziqlar dastalarini, yana nurlar, proyektsiyalarini hosil qiladi. Umumiy vaziyatdagi P tekislikkka A nuqtani proyektsiyalash 2- rasmda ko‘rsatilgan.





2- rasm 3- rasm

P tekislik P_T moslik izi va undagi yordamchi proyektsiyalash markazi *S* nuqtadan o‘tgan vertikal to‘g‘ri chiziqning izi S'_1 nuqtasi bilan berilgan. *S* proyektsiyalash markazining

S′ gorizontal proyektsiyasi bilan *A* nuqtaning *A′* gorizontal proyektsiyasini birlashtirib uningmoslik o‘qi P_T bilan kesishgan *1* nuqtasini belgilaymiz. So‘ngra S_1' bilan *1* nuqtani birlashtirib, uning *S′′ A′′* bilan kesishgan A_P'' nuqtasini, ya’ni *A* nuqtaning *P* tekislikdagi markaziy proyektsiyasini aniqlaymiz. S'_1 1 to‘g‘ri chiziq aniqlovchi deyiladi. Agar *P* tekislik vertical bo‘lsa S'_1 cheksiz uzoqlshib, undan keluvchi aniqlovchilar o‘zaro parallel vertikal to‘g‘ri chiziqlar bo‘lib qoladi. Bunday holat 3-rasmda *AB* kesmaning markaziy proyektsiyasini yasashda ko‘rsatilgan. A'_P va B'_P moslik o‘qidagi nuqtalardan o‘tgan aniqlovchilar vertical to‘g‘ri chiziqlar bo‘lib qolgan. Ba’zi pozitsion masalalarni yechishda geometric shakllarni proyektsiyalar tekisliklarining birortasida qo‘shimcha proyektsiyalashga to‘g‘ri keladi.

4-rasmda *AB* kesmani *S* qo‘shimcha markazidan *V* proyektsiyalar tekisligiga proyeksiyalash ko‘rsatilgan.



4-rasm



5-rasm

S′ nuqtadan *A′*, *B′* orqali to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazib, ularning *OX* o‘qi bilan kesishgan A'_1, B'_1 nuqtalarni belgilaymiz va ulardan bertikal bo‘g‘lovchi to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazamiz. So‘ngra bu bog‘lovchi chiziqlar bilan *S′′A′′* va *S′′B′′* to‘g‘ri chiziqlarning kesishish nuqtalarini topib, A_1'' va B_1'' yordamchi frontal proyektsiyalarga ega bo‘lamiz. Biror geometric shaklning *H* dagi yordamchi proyektsiyasi ham xuddi shunday yasaladi.

Agar proyektsiyalash markazi cheksiz uzoqlashtirilgan bo‘lsa, parallel (qiyshiq yoki to‘g‘ri burchakli) proyektsiyalash sodir bo‘ladi. Bu holda proyektsiyalovchi tekisliklar nur yo‘nalishiga xamda aniqlovchi to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro parallel bo‘lib qoladi.

5-rasmda *A* nuqtani o‘zaro parallel (*m*//*n*) to‘g‘ri chiziqlar bilan berilagan *P* tekislikka *l* yo‘nalishda proyektsiyalash ko‘rsatilgan, *m* va *n* to‘g‘ri chiziqlarning m_T va n_T moslik izlarini yasab, bu tekislikning P_T moslik izini o‘tkazamiz. *A* nuqta orqali *l* yo‘nalishda parallel nur o‘tkazamiz va bu nurning tekislik bilan kesishish nuqtasini yasash uchun u orqali *M* gorizontal proyektsiyalovchi tekislik o‘tkazamiz.

M tekislikning berilgan tekislik bilan kesishish chizig’i - 1 2 ni yasaymiz va uning A'' dan l'' ga parallel o’tkazilgan to’g’ri chiziq bilan kesishish nuqtasi A''P ni ya’ni, A nuqtaning P tekislikdagi proektsiyasining frontal proektsiyasini aniqlaymiz. So’ngra bog’lovchi chiziq orqali uning A'P gorizantal proektsiyasini belgilaymiz. M'T 2'' yo’nalishi - P tekislikka l yo’nalishda proektsiyalanadigan hamda nuqtalar uchun aniqlovchilar yo‘nalishi bo‘ladi.



6-rasm

6-rasmda *SABC* piramidaning *P* tekislik bilan kesishish chizig‘ini yasash ko‘rsatilgan. Piramidani gorizontal *l* yo‘nalishda *P* tekislikka proyektsiyalaymiz. Piramida qirralari yordamchi $S''_P A''_P$, $S''_P B''_P$,$S''_P C''_P$ proyektsiyalari bilan *D, E, L* nuqtalarda kesishib, tekislik bilan kesishish nuqtalarini hosil qiladi. Bu nuqtalarni birlashtirib, *DEL (D'E'L', D''E''L'')* kesishish chizig‘i yasaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Колотов С.М. Вспомогательное проектрование. Киев госстройиздат. 1956

2. Муродов Ш.К ва бошқалар “Чизма геометрия курси, Ўқитувчи” Тошкент. 1988.

3. A. N. Valiev. (2021). ABOUT THE FEATURES OF THE PERSPECTIVE OF SIMPLE GEOMETRIC SHAPES AND PROBLEMS IN ITS TRAINING. *International Engineering Journal For Research & Development*, *6*(2), 7. https://doi.org/10.17605/OSF.IO/5MT2R

4. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2016). AutoCAD ЧИЗМА ДАСТУРИ ОРҚАЛИ ЧИЗМАЧИЛИКНИ ЎҚИТИШ ВА УЛАРНИНГ ИСТИҚБОЛИ. *ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА*, *32*(3), 53-55.

5. Мурадов, Ш. К. Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади / Ш. К. Мурадов, Н. Э. Ташимов, И. И. Рахматова, Б. Б. Кукиев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017. — № 50 (184). — С. 99-102. — URL: https://moluch.ru/archive/184/47203/

6. Адилов, П., Ташимов, Н., & Есбоғанова, Б. (2015). МУҲАНДИСЛИК ГРАФИКАСИНИ АВТОМАТИК ЧИЗИШ ДАСТУРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИБ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК МУАММОЛАРНИ ЕЧИШ ЙЎЛЛАРИ. *Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза журнал «Фан ва жамият»*, *2*(2015-2), 34-

35.

7. Ташимов, Н. (2022). Методы развития познавательной деятельности учащихся при обучении начертательной геометрии. *Проблемы инженерной графики и профессионального образования*, *66*(3), 9. извлечено от https://bulprengpe.enu.kz/index.php/main/article/view/92

8. Ташимов Н.Э., Т. Н. (2022). Пути развития способности проектирования учащихся (на примере архитектурно-строительного черчения). *Проблемы инженерной графики и профессионального образования*, *57*(2), 5. извлечено от https://bulprengpe.enu.kz/index.php/main/article/view/125

9. Байдабеков, А., Мурадов, Ш., Адилов, П., & Ташимов, Н. Э. (2016). Кривые второго порядка-как сечения поверхностей второго порядка по наперед заданным параметрам. *Проблемы инженерной графики и профессионального образования*, *38*(5), 9-14.

10. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14

11. Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL:https://moluch.ru/archive/192/48066/

12. Mukhammadjonovich, Kodirov Mahmudjon. "FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS* 3.10 (2022): 34-41. https://masterjournals.com/index.php/crjp/article/view/1052

13. Мурадов, Ш. К., Ташимов, Н. Э., & Рахматова, И. И. (2017). Сечение поверхностей 2-го порядка общего вида по эллипсу заданной площади. *Молодой ученый*, (50), 99-102.

Misr san’atidagi diniy - afsonaviy tasavvurlar. Diniy - afsonaviy tasavvurlar Misr san’atining asosi deb hisoblangan. Yuqorida qayd etganimizdek afsonaviy e’tiqodning belgilovchi xususiyati, antropomorfizm bilan bir qatorda simvolizm bo‘lgan. Misr afsonalarida ramziylik va poetika xususiyatlari asos bo‘lgan. Masalan Misr tasviriy san’atining asosiy ramzlaridan biri **– quyosh**dir. Ushbu ramzni misrliklar oltin buzoqcha ko‘rinishida tasavvur qilishgan. Oltin buzoqcha erta tongda sigir ko‘rinishidagi ayol ma’bud Nutdan tug‘ilardi. Kun bo‘yi buzoqcha katta bo‘lib buqaga aylanadi; Buqa - bu **Ra**(quyosh ma’budi) aksidir. Kechgi tunda Ra Nut bilan birga bo‘lib, ularning ittifoqidan erta tongda yana oltin buzoqcha dunyoga keladi, ya’ni Ra «o‘z o‘g‘li ko‘rinishida tug‘ilraн»ligini ko’rib turibmiz. Shuni ta’kidlash kerakki Misr dini ko‘pxudoliylik bo‘lib, xudolarining barchasi hayvonlar ko‘rinishida bo‘lgan va ko‘pincha aniq funktsiyalarga ega bo‘lmagan. Masalan **Ra** - quyosh ma’budi (boshida quyosh diski bilan tasvirlangan), **Isida** - onalik va tabiat ma’budasi (sigir yoki sigir Shohlari bilan tasvirlangan), **Gor** - fir’avnlar homiysi, Osiris va Isidaning o‘g‘li (lochin qush ko‘rinishida tasvirlangan), **Xatxor** - muhabbat va onalik ma’budasi, **Tot** - yozuv, aql-zakovat ma’budi (ibis[4] yoki pavian[5] ko‘rinishida tasvirlangan), **Taurt** - hosildorlik ma’budasi (gippopotam ko‘rinishida tasvirlangan), **Nut** - osmon ma’budasi (sigir ko‘rinishida tasvirlangan), **Anubis** - marhumlarni o‘liklar mamlakatiga kuzatuvchisi, marhumlar homiysi (chiyabo‘ri ko‘rinishida tasvirlangan). Shu qatorda yana bir ma’budlar – abstrakt tushunchalarni aks ettiruvchilari ham bo‘lgan: **Sexem** – «energiya, quvvat», **Xu** – «iroda», **Sia** – «aql-zakovat», **Xex** – «abadiylik», **Soxmet** - quyosh nuri ichidagi katta kuchlar yig‘indisi (she’r yoki arslon ko‘rinishida aks ettirilgan). Misr afsonalarini ichida alohida to‘xtalib o‘tiladigani - bu **Osiris**, Isida va Gor ma’budlari extiromi yoki ularga sig‘inishdir.

[4] Ibis - issiq mamlakatlarda yashaydigan, laylakka o‘xshash uzun oyoq qush.
[5] Pavian – ittumshuq maymun

Osiris haqidagi afsona - bu misrliklarni asosiy e'tiqodi bo'lib ya'ni qadimgi Misr dehqonlarining afsonasi - tabiatni har doim yangilanishi, o'ladigan va yana unib chiqadigan bo'g'doy urug'idir. O'z otasi Osirisni tiriltiradigan Gor ma'budi esa - bu hayot baxsh etuvchi quyosh nurlaridir. Misrliklarning afsonaviy qarashlari keyinchalik tasviriy san'atda ramziy-ifodaviy aks ettirilgan.

SHu bilan bir qatorda, ma'budlar marosimi o'liklar marosimi bilan chambarchas bog'liqdir: fir'avn o'limidan keyin ham o'z mamlakatida hukmronlik qiladi, mamlakatning gullab-yashnasi fir'avnga bog'liq bo'lgan. Fir'avn o'limidan so'ng Osiris timsoliga kiradi. Shundan kelib chiqib fir'avn tanasini saqlab, «Ka» (Kaa (inson soyasi)), insonning aksi, soyasi bo'lib o'limidan so'ng inson ruhi «**Ka**»(qadimgi Misrliklar tasavvurida inson uch ko'rinishda yaratilgandir: «**Ax**»-jismoniy tana;«**Ba**»-insonning ruxi;«**Ka**»-insonning soyasi (abadiy ruxi)) timsoliga kiradi, tasviriy san'atda ushbu ruh qush ko'rinishida tasvirlangan. Shuning uchun fir'avn jasadi mumiyolanib hashamatli tarzda bezatilgan va **sarkofag** ichida saqlangan. Sarkofag ustidagi bezaklar podshohning hukmdorlik belgi nishonlarini aks ettirgan. Agarda mumiyolangan fir'avn tanasi chirib ketsa, qadimgi podsholik davridayoq Ka uchun «tana»ni bir umr saqlanib qoladigan toshdan yasashni boshlaganlar. Lekin, marhumlarga nisbatan sig'inish odati, portret haykaltaroshligini vujudga keltirgan bo'lsa ham, bir vaqtning o'zida haykaltaroshlik rivojini cheklab qo'ygandir. Bular uchun quyidagi sabablar bo'lgan: Misr tasviriy san'atida **kanon**(o'zgarmas, barcha ijodkor bo'ysinadigan qonun-qoidalar)lar ishlab chiqildi:

-Tasviriy san'atda nafaqat marhum portreti, ko'proq uni «soyasi» yaratilib, asarda tasvirlangan inson hamisha yosh, kuchga to'la bo'lib ishlanardi;

-O'tirgan holatdagi haykallar qiyofasining birxilligi, yuzidagi mamnunlik, bir xil atributlar, ramziy bo'yoqlar - bularning barchasi kanonlarga bo'ysinib, marhumlarga nisbatan qo'llanilgan marosimlar talablari bo'lib, yaratilgan tasviriy san'at asari abadiiy hayot kechirish uchun mo'ljallangan;

-Figuralar frontal holatda ishlanib, faqatgina bir nuqtadan ko'rishga mo'ljallangan edi, tasvirlar simmetrik ko'rinishga ega va eng asosiysi ularning barchasida geometrik blok shakli ko'rinib turadi. Aniq geometriya - Misr san'atining o'ziga hos jihatidir;

-Rassom devoriy suratlarda aks etgan figuralarni bosh qismi va tanasini «**profil**» shaklda bajargan, bu tasvirlanayotgan figura umumiy kompozitsiyadagi ritmni ushlab turish uchun mo'ljallangan edi. Lekin shunga qaramay rassom inson tanasi va yuzini deformatsiya qilmasdan ko'z va elka qismlarni «**fas**» - tomoshabinga nisbatan to'g'ri ko'rinishda va tananing pastki qismini esa chorak tarzda burib, oyoq qismini to'liq profil qo'rinishga olib kelgan tarzda ifodalaydi;

-Mabudlar, fir'avn va zodagonlar oddiy xalq tasviriga nisbatan hajm jihatidan bir muncha katta ko'rinishda tasvirlangan;

-Haykallarning ko'zlarini toq' billuri, xaltsedon va agat toshlari bilan inkrustatsiyalash ishlangan haykallarga hayotiy ko'rinish baxsh etgan, lekin haykallarning ko'zlariga tikilib ham ularning abadiiylikka tiqilgan qarashlarini ilg'ab bolmaydi. Negaki

haykaltarosh so‘zi misrliklar tilida «**sanx**» **-** «hayot yaratguvchi» degan ma’noga egadir;

-Agarda Misr tasviriy san’atida inson qomati kanonlarga bo‘ysingan holda tasvirlansa, ushbu qonun qoidalar hayvonlar tasvirida qo‘llanilmagan, hayvonat dunyosi o‘zining hayotiyligi va plastikasi bilan jalb etadi;

-Haykaltaroshlikda ikki ko‘rinishdagi haykallar turi tarqalgan bo‘lib: **o‘tirgan haykal**larning qo‘llari simmetrik tarzda tizzalari ustiga yoki bitta qo‘li tirsak qismidan buklangan, qaddi rostlangan tarzda va ko‘zlari oldga qaragan bo‘lgan; **Tik turgan haykal**lar frontal ko‘rinishda bo‘lib, bosh baland ko‘tarilgan, chap oyoq esa oldinga tomon qadam tashlab, qo‘llari pastga tushirilgan va tanaga yopishgan holda ishlangan.

Miloddan avvalgi 2650 yildan boshlab qadimgi Misr yerlarida zinasimon piramidalar qurilishi boshlangan. Fir’avn **Joser**(miloddan av. 2680**-**2660)ning Sakkaradagi maqbara kompleksi markazi - bu **zinasimon maqbara**(me’mor **Imxotep**)si **-** yetti qavatdan iborat bo‘lgan tepaga qarab kichrayib boruvchi supalardan tashkil topgan bo‘lib, balandligi 60 metrdan yuqori bo‘lgan me’moriy inshoot yaratilib, boshqa maqbaralardan ajralib chiqqan holda monumental me’morchilik rivojini keyingi bosqichini belgilab berdi. Ushbu maqbaraning yuqori qismini ustma**-**ust qo‘ilgan **mastaba**(arab tilidan «supacha»)lar, ya’ni **piramida**(devorlari tepaga qarab kichrayib boradigan to‘g‘ri to‘rtburchak ko‘rinishidagi dafn sag‘analari)ning tipologik ko‘rinishini ta’minlagan qurilmadir. Memfis davri(poytaxti Memfis bo‘lganligi uchun shundek ataladi)ga kelib fir’avnlarning ilohiylashtirish tasviriy san’atda o‘z aksini topdi. Ushbu davrning tipik yodgorligi - **piramida** va uning yonidagi **sfinks:** o‘rganilayotgan davrning eng mumtoz namunalari Gizada barpo etilgan - bular yunon transkriptsiyasida **-** Xeops (Xufu), Xefren (Xafra) va Mikerin (Mennaur) piramidalari deb atalgan. Bu piramidalarni eng yuqorisi - Xeops bo‘lib, Gerodot qadimgi dunyoning yetti mo‘jizasi ichiga kiritgan. Piramida balandligi 146,6 metr, asosining bir tarafining uzunligi 233 metrni tashkil qiladi. Piramida bir biriga juda zich qilib terilgan 2300000ta tosh bloklaridan iboratdir. Me’morlar - Imxotep va **Xemiun**dirlar. Piramidalarni she’r tanali va fir’avn Xefren yuzli sfinks qo‘riqlaydi. Sfinks uzunligi 51 metr, balandligi esa 20 metrdan oshiq bo‘lgan qoyadan yasalgan.

Amarna san’ati. Misrning Yangi davr san’ati ichidagi Amarna (zamonaviy nomi Tel**-**Amarna bo‘lib, aynan shu erda Amenxotep poytaxti**-**Axetaton joylashgan) davrini ajratish, **fir’avn Amenxotep**ning reformatorlik faoliyati bilan bog‘liqdir. Amenxotep ko‘pxudoliylik dinidan voz kechib, farmon tarzida bitta ma’bud – **Aton**(tasviriy san’atda ko‘p qullar aks ettirigan quyosh diski)ga sig‘inishni talab qiladi va o‘z ismini **Exnaton** («Atonga ma’qul»)ga alishtiradi. Poytaxtini ham yangi shahar Axetaton («Aton osmoni»)ga ko‘chirib barcha ehromlardan ma’budlar ismlarini o‘chirtirib «xudo» so‘zini «hukmron» so‘ziga alishtiradi va xudolar ramzini - fir’avn ramzi bilan almashtiradi.

Tasviriy san’atda ham kanonlardan voz kechilib, “izlanish”lar boshlanadi. Tasviriy san’at syujetlarida esa hayotdan olingan realistik kompozitsiyalar paydo bo‘ladi, tasvirlanayotgan har bir qahramon individual ko‘rinishga ega bo‘ladi (masalan nozik oyoqli, ingichka bo‘yinli va qappaygan qorinli Exnaton haykallari, nozik va ozg‘in yosh malikalar

portreti, gidrotsefaliya[6] kasalligi bilan betob bo‘lgan Nefertiti qizini portreti). Amarna san’atini nodir asarlariga **haykaltarosh Tutmes** ustaxonasidan topilgan podsho oilasining portretlaridan tashkil topgan. Arxeolog Borkhardt tomonidan topilgan **Malika Nefertiti**ning rangli bo‘yoqlar bilan realistik tarzda ishlangan haykaltaroshlik portreti alohida e’tiborga egadir. Negaki ushbu go‘zallik timsoli hisoblangan haykal Milos Afroditasi va Leonardo da Vinchining “Djokonda” portreti kabilar bilan bir qatorda turadi.

Fir’avn Exnatonning diniy - siyosiy reformalari uzoq vaqt davom etish uchun juda ilg‘or bo‘lgan. Exnatonning o‘zgarishlariga nisbatan bo‘lgan reaktsiya uni vorisi fir’avn Tutanhamon davrining o‘zida namoyon bo‘ldi. Qisqa vaqt ichida barcha eski urf-odatlar tiklanib Exnaton ismi esa qarg‘ishlar qilingan. Amarna san’atini noyob asarlari **Tutanhamon maqbarasi arxeolog Govard Karter** tomonidan 1922 yilda topilgan. Ushbu topilma haqida san’atshunos N.Abdullaev quydagi fikrni aytib o‘tgan: «Tutanhamon maqbarasidan topilgan zirak, quticha, marjon va mebellar nafis did bilan inkrustatsiya qilingan. Ular uchun fil suyagi qimmatbaho yog‘och bo‘laklaridan qadab chiqilgan (masalan, qutichani ishlash uchun 20 mingdan ortiq shunday fil suyagi va qimmatbaho yog‘och bo‘lagi ishlatilgan). Tutanhamon taxti relefi ham o‘z jozibasi bilan xotirada qoladi[7].

Misr ijtimoiy hayotidagi jonlanish eramizdan avvalgi VII asrlarda boshlandi. Lekin bu uzoqqa cho‘zilmadi. Eramizdan avvalgi VI asrlarda eronliklar, so‘ngra eramizdan avvalgi IV asrda Aleksandr Makedonskiy tomonidan Misr erlarining bosib olinishi uning o‘ziga hos san’atida asta-sekin so‘nish va Ellin dunyosi san’ati bilan qo‘shilib ketishga sabab bo‘ldi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н. Абдуллаев. Санъат тарихи 1 том. Т.- «Ўқитувчи» 1986 й. 22 б.

2. Н.А. Дмитриева. Краткая история искусств. Книга 1.М.- «Искусство» 1996. Стр.24.

3. D.J.Tulanova. Tasviriy san’at tarixi. Darslik. T.-“LESSON PRESS” 2019 y.37-45b.

3. ТУЛАНОВА, Д. Ж. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ И КУЛЬТУРОЛОГИИ. ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВОВЕДЕНИЯ И КУЛЬТУРОЛОГИИ Учредители: Premier publishing sro, (1), 8-15.

4. Уланова Д. Ж. Актуальные Вопросы изучения творческого наследия Русских Художников в развитии пейзажной живописи Узбекистана // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.3–10. DOI: https:// doi.org/10.29013/EJA-23-1-3-10

5. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich, . (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142–156. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-02-23

6. Абдирасилов, С. (2021). ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОЕ ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА В ПАТРИОТИЧЕСКОМ И ЭСТЕТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ ШКОЛЬНИКОВ. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v4.42

[6] Gidrotsefaliya – (yunon. Gidro-suv va kephale - bosh) bosh miyaga suv yig‘ilishi.

[7] Н. Абдуллаев. Санъат тарихи 1 том. Т. «Ўқитувчи» 1986 й. 22 б.

7. Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12

8. Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.50

9. Kholmuratovich, M. K., Mardanqulovich, A. S., Ravshanovich, J. R., Sharifovna, K. U., & Shodiyevna, B. O. (2020). Methodology of improving independent learning skills of future fine art teachers (on the example of still life in colorful paintings). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(05), 285-288.

10. Абдирасилов Сунатулла Файзуллаевич, & Назирбекова Шахноза Ботировна (2017). Компьютеризация и информатизация художественно- практические занятия в обучении студентов. Инновации в науке, (12 (73)), 21-23.

11. Kodirov Mahmudjon Mukhammadjonovich, (2022). FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS OF FUTURE TECHNOLOGICAL EDUCATION. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(10), 34–41. https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-10-06

12. Нуртаев, У. Н. (2022). Основы Искусствоведческой Подготовки Студентов Средствами Национального Искусства. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 8, 46-50.

13. R.R. Jabbarov. Patterns in applied art of the uzbek folk // European Journal of Arts, 2023, №1. – С.11–14. DOI: https://doi.org/10.29013/EJA-23-1-11-14

14. Jabbarov, R. (2023). Zamonaviy tasviriy san'atda qalam tasvirning o'rni qanchalik muhim. Global Dunyoda Ilm-Fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari, 1(3), 228–232. https://doi.org/10.47689/ STARS. university-pp228-232

15. Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS' CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ΛΌГОΣ. https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09

16. Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 15(2), 364-367. doi:http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192

17. Валиев, А. Н., Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Современные педагогические и инновационные технологии обучения на занятиях по черчению. Молодой ученый, (3), 183-184.

18. Туланова, Д. Ж., & Гуломова, Н. Х. (2018). Технология и условия проведения дидактических игр в процессе преподавания черчения в вузе. In Образование как фактор развития интеллектуально-нравственного потенциала личности и современного общества (pp. 89-93).

19. Tulanova, D. (2021). Imaginary line in landscape painting of

Uzbekistan. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(2), 773-778.

20. Саидалиев, С. С., Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. Молодой ученый, (7), 462-469.

21. Саидалиев, С. С., Гуломова, Н. Х., & Туланова, Д. Ж. (2017). Методы эффективного использования законов перспективы при обучении изобразительному искусству. Молодой ученый, (7), 462-469.

22. Juraxanovna, T. D., & Abdusalom Kizi, N. M. (2021). Creativity And Pedagogical Activity Of The Academician Of The Art Academy Of Uzbekistan, Holder Of The Order Of Friendship Of Peoples - Janis Salpinkidi (Dedicated To The 75th Anniversary Of The Artist And Teacher). The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(06), 123–127. https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue06-21

23. Туланова Дилноза Жураховна (2022). ФОРМИРОВАНИЕ И СПЕЦИФИКА РАЗВИТИЯ ПЕЙЗАЖНОЙ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА. European Journal of Arts, (1), 8-15.

24. Tulanova, D. J. (2019). Landscape figure as a part of integrated teaching in fine art in plenary practice. International Journal of Academic Research and Reflection, 8, 83-85.

25. Туланова, Д. Ж. (2020). Творчество и педагогическая деятельность академика художественной академии Узбекистана, кавалера ордена дружбы народов Яниса Салпинкиди. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВА: ИСТОРИЯ, ТЕОРИЯ, МЕТОДИКА (pp. 132-134).

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

POSITIVE AND NEGATIVE EFFECTS OF CHOCOLATE ON THE HUMAN BODY

Mamatkulova Iroda[1]

Pardaboyeva Niginabonu[2]

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

cocoa, E476, E322, GMO, emulsifier, artificial food additives

ABSTRACT

In this article, we will briefly get acquainted with the composition of chocolate products, which are loved by many people, and their positive and negative effects on the human body.

Since the appearance of chocolate, the number of people who enjoy it is increasing year by year, but sometimes, without knowing their composition, consuming more than the norm, not consuming quality products, sometimes health is affected. we can cause harm to us.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7941762
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan (pardaboyevaniginabonu@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

SHOKOLADNING INSON ORGANIZMIGA IJOBIY VA SALBIY TA’SIRLARI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

kakao, E476, E322, GMO, emulgator, oziq ovqatning sun’iy qo‘shimchalari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada ko‘pchilik uchun sevimli bo‘lgan shokolad mahsulotlarining tarkibi hamda ularning inson organizmiga ijobiy va salbiy ta’sirlari haqida qisqacha tanishib o’tamiz. Shokolad paydo bo’lganidan boshlab uni xush ko’ruvchilar soni yildan-yilga oshib bormoqda, ammo ba’zida ularni tarkibini bilmay turib, me’yoridan ortiq iste’mol qilish, sifatli mahsulot iste’mol qilmaslik sababli ba’zida sog’lig’imizga ziyon keltirib qo’yishimiz mumkin. Ayniqsa yosh bolalarni shirinlikka o‘ch bo‘lib borayotgani yosh onalarni savodxonligining pastligi tufayli ham sodir bo‘lmoqda.

Kirish. Shokolad- kakao dukkaklarini qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni (ezilgan kakao va kakao yog'ini) shakar bilan aralashtirib, ishlov berish natijasida olingan qandolat mahsuloti bo'lib, unga to'q jigarrang, yaltiroq yuza, yoqimli ta'm va nafis hid xosdir. Retsepturasi va qayta ishlov berish usuliga qarab shokolad oddiy, desert, g'ovaksimon va masalliqli shokoladlarga bo'linadi. Masalliq sifatida shokolad tayyorlashda yong'oqli, mevali, pomadali va boshqa har xii qandolatchilik massalari ishlatiladi. Shokolad ishlab chiqarishning asosiy xomashyosi bo'lib kakao dukkaklari va shakar hisoblanadi. [1] Shokolad foydali yoki zararli ekanligi to’g’risida nechi yillardan buyon olimlar bahslashib kelishmoqda. Ba’zi bir olimlar esa, shokoladning quyidagi foydali xususiyatlarini isbotlashgan: Shokolad o’zida dofamin, serotonin va feniletilamin gormonlarini saqlashi sabab ham kayfiyatni ko’tarish xususiyatiga ega; u mushaklarni kislorod bilan to’yintiradi, natijada mashg’ulotlardan keyin organizm darrov o’zini tiklaydi. Agar muntazam ravishda qora shokolad (70% va undan yuqori kakao saqlovchi) qon tomirlari mustahkamlanib, yurak xastaliklarining oldi olinadi. Shuningdek qora shokolad yomon xolesterindan xalos etib, insult xavfini kamaytiradi, aritmiya va yurak yetishmovchiligida ham foydali hisoblanadi. Diabetni bartaraf etishda yordam beradi – uning tarkibidagi antioksidantlar oshqozon osti bezi faoliyatini yaxshilaydi. Bundan tashqari shokolad miya faoliyatini yaxshilaydi, Alsgeymer kasalligi rivojlanishini oldini oladi, xotirani mustahkamlab, diqqatni yaxshilaydi; shokolad immunitetni ko’taradi, homilador ayollarga ham juda foydali hisoblanadi. Foydali tomoni bo’lgan mahsulotning zarari ham bor degandek, shokoladning ham o’ziga yarasha zararli xususiyatlari mavjud. Birinchi o’rinda uning miqdori: shokoladni me’yoridan ortiq iste’mol qilish yaramaydi, aks holda bu qandli diabetga, yurak-tomir kasalliklariga, bosh og’rig’iga olib kelishi mumkin. Uni muntazam, ammo ko’p bo’lmagan miqdorda iste’mol qilish kerak. Xatto uni qo’llashga qarshi ko’rsatmalari ham talaygina: allergiyasi bor insonlarga undan ehtiyotkorlik bilan iste’mol qilishi lozim; haddan ortiq og’ir vazn egalariga ham shokoladdan iste’mol qilish tavsiya qilinmaydi; tishlar sezuvchanligi oshganda shokoladdan voz kechish maqsadga muvofiq bo’ladi; buyraklar xastaligida ham

shokolad miqdorini kamaytirish lozim; migren kasalligi qo'zg'agan paytda ham shokolad iste'mol qilish mumkin emas.[2,3]

Asosiy qism: Har birimiz o'zimizga savol berib ko'raylik. Shokolad mahsulotlarini sotib olish vaqtida uning tarkibiga ham e'tibor beramizmi? Aksariyat hollarda yuq. Tashqi ko'rinish va yaroqlilik muddati biz uchun asosiydek go'yo, vaholanki uning tarkibida: shakar, kakao massasi, kakao moyi, to'liq sut kukuni, quruq zardob, maydalangan pechene (bug'doy uni, shakar, sariyog ') sariyog ', bug'doy kraxmal, bug'doy tolalari, sut kukuni, tuz, quruq sut zardobi, kislota regulyatori - limon kislotasi, unni yaxshilaydigan (sistein), xamirturushli moddalar (ammoniy karbonat, bikarbonat natriy), vanilin, mayiz, sut yog ', emulsifikatorlar (soya lesitini, E476), soya , tuxum, yeryong'oq va yong'oqlarning bo'laklari bo'lishi mumkin. Shokolad massasidagi kakao moddalarining umumiy miqdori kamida 25% ni tashkil qiladi. Yuqoridagi moddalarning ko`pchiligi sun'iy oziqa mahsulotlari bo'lib organizmga turlicha ra'sir ko'rsatadi.

E476 – Letsitin soya mahsulotlari va yog' ishlab chiqarish qoldiqlaridan olinadi. Ko'p miqdorda iste'mol qilinsa, buyrak kasalliklariga olib kelishi mumkin. Biroq, meyoriy miqdorda iste'mol qilish foydalidir. E476 – margarin, sut mahsulotlari, non mahsulotlari va shokolad mahsulotlari ishlab chiqarishda emulgator sifatida ishlatiladi. E476 – poliglitserin yog' kislotalari qo'shilmasi.

E322 – tarkibida lesitin qo'shimchasi shokoladli konditer mahsulotlari tayyorlashda ishlatiladi. Kakao dukkagi yog'i qimmat mahsulot bo'lganligi uchun, bundan tashqari, shokoladdagi yog' miqdorini kamaytirish maqsadida, kakao dukkagi o'rnida qo'llaniladi.Me'yoridan ko'p ishlatilsa, allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Ammoniy karbonati- turmushda nashatir spirti deb nom olgan. Konditerlik va non yopishda undan soda yoki xamirturush o'rnida foydalaniladi. Shokolad qorin mushaklarini bo'shashtirib, pulsni jadallashtirish xususiyatiga ega bo'lgan metilksantinni o'z ichiga oladi. Uning iste'molidan keyin jig'ildon qaynashi holati ham kuzatilishi mumkin. Bir qancha foydasi borligi shokoladning kaloriyaga boy ekanini inkor eta olmaydi. Undan tiyila olmaslik va me'yoridan ortiq iste'mol qilish sezilarli darajada vazn ortishiga olib kelishi mumkin.

Shokolad mahsulodlari tarkibidagi ayrim shirin ta'm beruvchi moddalar,aromatizatlar kuchli boyituvchi moddalarni ko'p qo'shilishi shokolad tarkibini tabiiy qo'shimchalarini kamaytiradi bu esa organizmda turli kasalliklar keltirib chiqaradi. Ayrim moddalar esa organizmda shu mahsulotga nisbatan qaramlik hissini uyg'otishi mumkin.

Xulosa: Har bir inson sog'lom turmush tarziga amal qilishi ya'ni to'g'ri ovqatlanish bilan bir qatorda iste'mol qilayotgan oziq ovqatining tarkibiga ham e'tiborli bo'lishi davr talabi hisoblanadi. Chunki insoniyat jamoasining kengayib borayotganligi, oziq ovqatga bo'lgan talabni ham oshirib bormoqda. Bu esa turli usullar bilan bo'lsada, ehtiyojni qoplash uchun sifatli va sifatsiz, hatto GMO mahsulotlarni ham ko'paytirmoqda. Tanlov esa o'zimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.G‘.Vasiyev va b.q.,Oziq ovqat texnologiyasi asoslari.2012 y.Toshkent.
2. Xudoyshukurov T. 0-18 Ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish asoslari
3. http://dobavkam.net/additives

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ASPECTS OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Shukurullayev Ozodbek Arzuyevich[1]

Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi

KEYWORDS

future, teacher, communicative, competence, component, communication, culture, pedagogy, tact

ABSTRACT

The article discusses the essence, content and main components of the communicative competence of a future teacher. Also, it analyzes the fact that a future teacher, studying at a university, must be psychologically prepared for the fact that the teaching profession is not only knowledge of theoretical sciences. but also the ability to build relationships with children and colleagues, to be aware of their own position in communication. At the same time, the culture of communication, empathy, and pedagogical tact are the components of the teacher's communicative competence, and it is emphasized that they reflect business and personal relations between the participants in the educational process.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7944889
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi, Tashkent, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНТСИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АСПЕКТЛАРИ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

бўлажак, ўқитувчи, коммуникатив, компетенсия, компотентлар, мулоқот, маданият, педагогик, такт

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Мақолада бўлажак ўқитувчи коммуникатив компетенсиясининг моҳияти, мазмуни, асосий компотентлари кўриб чиқилган бўлиб , унда бўлажак ўқитувчи университетда ўқиб юрган чоғида ўқитувчилик касби нафақат фанни билиш, балки болалар ва ҳамкасблар билан муносабатларни ўрнатиш, мулоқотда ўз позитсиясидан хабардор бўлиш қобилияти эканлигига психологик жиҳатдан тайёр бўлиши кераклиги таҳлил қилинган . Шу билан бирга, мулоқот маданияти, эмпатия , педагогик такт ўқитувчининг коммуникатив компетенсиясининг таркибий қисмлари бўлиб, ўқув жараёни иштирокчилари ўртасидаги ишбилармонлик ва шахсий муносабатларни акс эттиришини ёритиб берилган.

Замонавий тадқиқотларда коммуникатив компетентсия ўқитувчи-ўқитувчи (коммуникатор) дан талабага (қабул қилувчига) ва аксинча маълумотларни семантик идрок этишни таъминлайдиган педагогик функтсиялар тўпламини ўзлаштириш сифатида тушунилади. Шу нуқтаи назардан, А. С. Белкин ва В. В. Нестеровлар коммуникатив компетентсияни педагогик ўзаро таъсирнинг ташкилоти сифатида кўриб чиқадилар, бунда уларнинг ҳар бирининг индивидуаллигини сақлаган ҳолда таълим жараёни иштирокчилари жамоаси яратилади , негизида ҳамкорликка психологик тайёрлик шаклланади. "қарши ҳаракатлар", кутилган натижаларга эришиш [2].

Тадқиқотларни таҳлил қилиш, компетентсия ва компетентсиянинг таркибий қисмларини ажратиб кўрсатадиган ва ҳар доим ҳам бу тушунчаларни ажратиб турмайди, биз коммуникатив компетентсияни билим, кўникма ва кўникмаларнинг интеграл комплекс сифатида тушунишимиз мумкин бўлган , бу сизга мулоқот қилиш имконини беради. матн ва нутқни таҳлил қилиш, саволлар бериш, уларга жавоб бериш, диалог ва монолог ўтказиш, ўзини ҳимоя қилиш нуқтаи назар, ўз нуқтаи назарингиз ва суҳбатдошнинг нуқтаи назари ҳақида гапиринг (ҳикоя) .

Коммуникатив компетентсиянинг тузилиши анча мураккаб, кўп босқичли ва кўп омилли хусусиятга эга.Биз фақат педагогик жараён билан бевосита боғлиқ бўлган, энг амалий талаб қилинадиган ва илмий-педагогик адабиётларда чуқур ўрганилган таркибий қисмларига тўхталамиз . Келинг , коммуникатив компетентсиянинг асосий таркибий қисмларини очиб берайлик .

Биринчи компонент - бу қиймат келажакдаги ўқитувчининг муносабати

Коммуникатив компетентсиянинг иккинчи компоненти интегративдир матн ва нутқни таҳлил қилиш орқали мулоқот қилиш, саволлар бериш, уларга жавоб бериш, диалог ва монолог ўтказиш, ўз нуқтаи назарини ҳимоя қилиш, суҳбатдошнинг нуқтаи

назари ҳақида фикр юритиш имконини берадиган билим, кўникма ва малакалар мажмуаси .

Педагогик мулоқот - ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги алоқа, ўзаро тушуниш ва ўзаро муносабатларни ташкил этиш, ўрнатиш ва ривожлантиришнинг кўп қиррали жараёни .

Мулоқот орқали ўқитувчи ўқувчиларнинг хулқ-атвори ва фаолиятини ташкил қилади, уларнинг меҳнати ва ҳаракатларини баҳолайди, содир бўлаётган воқеалар ҳақида маълумот беради, нотўғри хатти-ҳаракатлар ҳақида тегишли ҳис-туйғуларни уйғотади, қийинчиликларни енгиб ўтишга, уларнинг қобилиятига ишончни йўқотмасликка ёрдам беради.

Мулоқот маданияти *педагогик такт* каби мураккаб ва касбий аҳамиятга эга категория билан узвий боғлиқдир. Ўқитувчилар ва талабалар ўртасидаги мулоқот жараёнида алоқанинг иккита ҳиссий қутби ривожланиши мумкин . Ҳақиқий тарбиявий таъсир ўқитувчининг ижобий ҳис-туйғуларга асосланган муносабатларни ташкил этиш қобилияти билан таъминланади . Салбий ҳиссий ҳолатлар пайдо бўлиши мумкин, лекин ўзаро таъсирнинг якуний мақсади сифатида эмас, балки ижобий ҳиссий таъсирга эришиш учун энгиб ўтиш мумкин бўлган вазиятли восита сифатида. И. Я. Зязюн таъкидлаганидек, ўқитувчига ижобий ҳис-туйғулар асосида алоқа ўрнатиш, болалар билан психологик алоқа ўрнатиш ва қўллаб-қувватлаш имконини берадиган педагогик тактнинг мавжудлиги [3],

Ўқитувчининг шахсий даражасида намоён бўладиган ўқитувчининг хулқ-атвор маданияти педагогик тактнинг асоси бўлиб , унинг намоён бўлиш шакли одатда такт деб аталади. Ўқитувчининг такти нафақат педагогик тактнинг намоён бўлиши , балки шахснинг психологик хусусиятидир. Бу шуни кўрсатадики, ўқитувчининг хулқ-атвори, унинг бошқалар билан муносабатлари нафақат умумеътироф этилган талаблар, нормалар, балки ўқитувчининг хатти-ҳаракати ва кайфиятини белгилайдиган барқарор, чуқур шаклланган эҳтиёждир . Хушмуомалалик ўзининг ҳақиқий маъносида ўқитувчининг бошқалар билан муносабатда ўлчов топмоқчи эканлигидан эмас , балки унинг бошқача бўлиши мумкин эмаслигидан далолат беради. Педагогик такт ва хулқ-атвор маданияти ўзаро боғлиқ: педагогик такт қанчалик юқори бўлса, мулоқот маданияти шунчалик юқори бўлади ва аксинча. Педагогик такт меъёрлари умумий хулқ-атвор маданияти талабларининг кўпчилигига тўғри келади [2].

Хулқ-атвор маданияти - бу инсон жамиятининг асосий талаблари ва қоидаларига риоя қилиш , бошқалар билан мулоқот қилишда тўғри оҳангни топа билишдир [1].

Хулқ-атвор маданияти - ахлоқ, ахлоқ, эстетик маданият меъёрларига асосланган шахснинг шаклланган, ижтимоий аҳамиятга эга фазилатлари, жамиятдаги кундалик хатти-ҳаракатлари мажмуи . Хулқ-атвор маданияти, бир томондан, жамиятнинг ахлоқий талабларини ифодалайди, иккинчи томондан , ўқувчиларнинг ҳаракатлари ва ҳаракатларини бошқарадиган, тартибга солувчи ва назорат қилувчи қоидаларни ўзлаштириш. Шахс томонидан ўрганилган хулқ-атвор маданияти қоидалари инсон

тарбиясига айланади.Хулқ-атвор маданиятида мулоқот маданияти, ташқи кўриниш маданияти, кундалик маданият, нутқ маданияти, полемикада қатнаша олиш , мунозаралар органик тарзда бирлаштирилади [4].

Б. Котова, Э. Н. Шнянов , ўқитувчининг коммуникатив маданиятини таъкидлаб , педагогик ҳамкорликнинг муваффақияти ўқитувчининг коммуникатив маданияти даражасига боғлиқлигини кўрсатади. Муаллифлар сотсиализмни коммуникатив маданиятнинг асоси сифатида ўз ичига олади - болалар билан доимий алоқада бўлиш истаги, уларни тезда ўрнатиш қобилияти.

Жамиятлилик инсоннинг мулки сифатида , тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, хушмуомалалик - мулоқот жараёнидан завқланиш қобилиятини ўз ичига олади; одамлар орасида бўлиш истаги; ҳамдардлик - ҳамдардлик, ҳамдардлик ва идентификатсия қилиш қобилияти, ўзини бошқа одамнинг дунёсига ўтказиш қобилияти .

Коммуникатив маданиятда муаллифлар даражани ҳам ажратиб турадилар ўқитувчининг ахлоқий тарбияси. Ўқитувчининг ақл-заковати, нафосатини, яъни одобли , тўғри, ўқувчилар ғурурини аямаслиги, самимий бўлиши талабалар томонидан юқори баҳоланади .

Муаллифларнинг фикрича, коммуникатив маданият коммуникатив қобилият ва коммуникатив қобилиятларни эгаллашни ҳам ўз ичига олади. Бу ҳиссий алоқани ўрнатиш, мулоқотда ташаббус кўрсатиш, ўз ҳис-туйғуларини бошқариш , шунингдек, кузатиш, ўзгарувчан эътибор, ўқувчининг психологик ҳолатини ташқи белгилар билан тушуниш, мулоқотда, оғзаки ва нутқда ўзини намоён қилиш қобилиятини англатади. оғзаки бўлмаган мулоқот қобилиятлари. Уларнинг умумийлигида бундай кўникма ва қобилиятлар педагогик мулоқот техникасини ташкил қилади ёки ўқитувчининг коммуникатив маданиятининг технологик томонини тавсифлайди [5].

Коммуникатив компетентсиянинг ўзагини ташкил этувчи педагогик мулоқот деган хулосага келдик , бу бизга ўқитувчининг коммуникатив компетентсиясининг ўзига хос хусусиятларини мазмунли акс эттирувчи характерли йўналишларни аниқлашга имкон берди .

Таркибий ва функтсионал хусусиятлари нуқтаи назаридан таҳлил қилиш асосида биз унинг профессионал муҳим таркибий қисмларини ажратиб кўрсатишимиз мумкин:

1- Болаларга қизиқиш ва улар билан ишлаш, эҳтиёж ва мулоқот қобилиятлари, мулоқотчанлик, мулоқот қобилиятлари.

2. Эмотсионаллик қобилияти эмпатия ва болаларни тушуниш.

3. Ўзгарувчан шароитларда тез ва тўғри навигатсия қилиш қобилиятини таъминловчи мослашувчанлик, оператив ва ижодий қобилият

талабалар, ота-оналар, ўқитувчилар билан мулоқот ва ўзаро муносабатлар; вазиятга ва болаларнинг индивидуал хусусиятларига қараб нутқ таъсирини тезда ўзгартиринг.

4. Фикр-мулоҳазаларни ҳис қилиш ва сақлаб қолиш қобилияти.

5. Ўз-ўзини, руҳий ҳолатини, овозини, мимикасини, кайфиятини, фикрларини,

ҳис-туйғуларини бошқара олиш қобилияти.

6. Мумкин бўлган педагогик вазиятларни башорат қилиш қобилияти.

7. Спонтанлик (тайёр бўлмаган) мулоқот қилиш қобилияти.

8. Маданият, нутқни ривожлантириш, бой сўз бойлиги,тил воситаларини тўғри танлаш.

9. ўқувчиларга тўғри йўналишда таъсир кўрсатиши мумкин бўлган педагогик тажрибаларнинг уйғунлигини ифодаловчи педагогик тажрибалар санъатига эга бўлиш .

10. Педагогик импровизатсия қобилияти, барча хилма-хил таъсир воситаларини қўллаш қобилияти (ишонтириш, таклиф қилиш).

Бинобарин, коммуникатив компетентсия бир неча жиҳатлар ёки таркибий қисмларга эга: *компетентсия - унинг ҳар бир иштирокчисида* шахсий бошланғични сақлашга қаратилган педагогик мулоқотни амалга ошириш қобилияти , берилган натижага олиб *келадиган* педагогик ўзаро таъсирни ташкил этиш қобилияти ; *ваколатли* - педагогик ҳамкорликнинг самарадорлигига эришиш учун этарли қобилият, малака, билимга эга бўлиш ; *малакага асосланган - ўқитувчи шахси* таркибида ўқув жараёни учун этарли ва адекват бўлган профессионал шахсга йўналтирилган позитсияларнинг мавжудлиги , ўзаро таъсир жараёнида боланинг шахсиятини ўқитиш ва тарбиялаш мақсадлари .

Коммуникатив қобилиятни ихтиёрий экспрессивлик ёки "спонтан кодлаш қобилияти" деб талқин қилиш мумкин - ўқитувчининг турли хил ўзаро таъсирларда ўзаро таъсир жараёнида маълум сигналларни атайлаб яратиш қобилияти : ўқитувчи - талаба, ўқитувчи - талабалар, ўқитувчи - ота-оналар ва бошқалар . .

Коммуникатив билим - бу ўқитувчининг умумий мулоқот нима эканлигини, унинг турлари, босқичлари, қонуниятлари, ривожланишлари қандай эканлигини билиши. Бу қандай алоқа усуллари ва усуллари мавжудлиги, улар қандай таъсир кўрсатиши, уларнинг имкониятлари ва чекловлари ҳақида билимдир. Шунингдек, турли болалар ва турли педагогик вазиятлар учун қандай усуллар самарали эканлиги ҳақидаги билимдир . Бу инсоннинг мулоқот қобилиятларини ривожлантириш даражаси ва қайси усуллар "менинг ишлашимда" самарали ва қайси бири самарали эмаслиги ҳақидаги билимдир .

Ўқитувчининг коммуникатив маданиятини шакллантирадиган мулоқот қобилиятларини кўрсатиш керак . Тадқиқотчилар барча мулоқот қобилиятларини тўрт гуруҳга бирлаштиради:

- ташқи алоқа шароитида тез ва тўғри ҳаракат қилиш қобилияти ;
- нутқингизни тўғри режалаштириш қобилияти, яъни алоқа актининг мазмуни ;
- ушбу ҳаракатни этказиш учун адекват воситаларни топиш қобилияти (тўғри оҳанг, тўғри сўзлар);- фикр билдириш қобилияти [5].

Бўлажак ўқитувчининг коммуникатив компетенсияси нафақат маълумот ҳаракати, балки бу нафақат болаларга маълумот этказиш истаги , балки ўқитувчининг малакали нигоҳи остида фаол алмашинув жараёнига айланадиган ўзига хос педагогик интерактивдир . билим, кўникма ва тажрибага эга. Бўлажак ўқитувчи ҳали университетда

ўқиб юрган чоғида ўқитувчилик касби нафақат фанни билиш, балки болалар ва ҳамкасблар билан муносабатларни ўрнатиш, мулоқотда ўз позитсиясидан хабардор бўлиш қобилияти эканлигига психологик жиҳатдан тайёр бўлиши керак . Шу билан бирга, мулоқот маданияти, эмпатия , педагогик такт ўқитувчининг коммуникатив компетенсиясининг таркибий қисмлари бўлиб, ўқув жараёни иштирокчилари ўртасидаги ишбилармонлик ва шахсий муносабатларни акс эттиради.

Фойдаланган адабиётлар

1. Қожаспирова Г.М. Педагогический словарь для студентов - М: Академия, 2000.- 176 с. , С. 69

2. Белкин А, С. Педагогическая компетентность - Екатеринбург, 2003.- 186 с.,

3. Основы педагогического мастерства -М. : Просвещение, 1989. - 302 с., С. 147

4. Педагогический энциклопедический словарь М: Большая Рос. Энциклопедия, 2003. -528 с. , С. 130

5. Котова И.Б. Педагогическое взаимодействие [-М. : Академия, 1998.- С. 64-96.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

STUDY OF TECHNOLOGICAL PARAMETERS AND PHYSICAL-MECHANICAL PROPERTIES OF REVERSE INTERLOCK FABRIC WOVEN FROM LOCAL RAW MATERIALS

M. Mirsadikov[1]

M. Mukimov[2]

K. Kholikov[3]

N. Raximbayev[4]

V. Kenjaeva[5]

N. Karimov[6]

Namangan Institute of Engineering and Technology, Tashkent Textile and Light Industry Institute

KEYWORDS

knitting, interlock, thickness, air permeability, tissue penetration, deformation, breaking strength

ABSTRACT

In the scientific work, the technological indicators and physical-mechanical properties of the reverse interlock knitted fabric were analyzed, and the methods of effective use of spun cotton, bamboo, viscose threads, which are local raw materials, were researched.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7944956
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant of Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan (mirzaitmirsadiqov@gmail.com)
[2] Professor of Tashkent Textile and Light Industry Institute, Tashkent, Uzbekistan (profmukimov@gmail.com)
[3] Professor of Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan (qurbonalixoliqov@gmail.com)
[4] Namangan Institute of Engineering and Technology, Namangan, Uzbekistan (nurbekpulatov1727@gmail.com)
[5] Ph.D., Tashkent Textile and Light Industry Institute, Tashkent, Uzbekistan (vasilakenjayeva923@gmail.com)
[6] Ph.D., Tashkent Textile and Light Industry Institute, Tashkent, Uzbekistan (n.karimov89@mail.ru)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

МАХАЛЛИЙ ХОМАШЁЛАРДАН ТЎҚИЛГАН ТЕСКАРИ ИНТЕРЛОК ТУКИМАСИНИНГ ТЕХНОЛОГИК ПАРАМЕТРИ ВА ФИЗИК-МЕХАНИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАДКИКОТИ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

трикотаж, интерлок , калинлиг, хаво ўтказувчанлик, тўқима киришиши, деформация, узилиш кучи

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Илмий ишда тескари интерлок трикотаж тўқимасининг технологик кўрсаткичлари ва физик-механик хусусиятлари таҳлил қилинган хамда маҳаллий хомашё бўлган йигирилган пахта, бамбук, вискоза ипларидан самарали фойдаланиш усуллари тадқиқ этилган.

Трикотаж маҳсулотлари ассортиментини кенгайтириш ва сифатини ошириш, турли хил хом ашёлардан самарали фойдаланиш, янги тузилишли трикотаж тўқима ва махсулотларини ишлаб чикиш бугунги кунда нафақат , барча стандартлар ва технологик курсаткичларга, балки тўқимачиликнинг тез ва доимий ўзгарувчан модага мос келишини ҳам ўз ичига олади.

Белгиланган вазифаларни ҳал қилишда турли хом ашёлардан фойдаланиб трикотаж сифатини купгина илмий ишларда ўрганилди[1-14].

Илмий ишда пахта,бамбук ва вискоза толаларидан олинган йигирилган иплардан фойдаланиб, тескари интерлок тўкимасининг технологик курсаткичлари ва физик-механик хусусиятлари тадқиқ килинди.

Тескари интерлок тўқимасида пахта, бамбук, вискоза ипларини тўқиманинг технологик курсаткичлари ва физик-механик хусусиятларига таъсирини ўрганиш мақсадида тескари интерлок тўқима намунаси НамМТИ “Трикотаж технология”си кафедра лабораториясида “LONG XING” ясси игнадонли машинасида тукиб олинди(расм1).

Тескари интерлок тукимасининг технологик курсаткичлар ва физик-механик хусусиятлари жадвал 1.да акс эттирилди.



1-расм. Тескари интерлок тукимасининг тузилиши.

Тескари интерлок тўқимасининг I-вариантда чизиқли зичлиги 24 текс *3 йигирилган пахта, II -вариантда чизиқли зичлиги 24текс*3 бамбук ва III- вариантда чизиқли зичлиги 24текс*3 булган вискоза ипларидан фойдаланилди.

Трикотаж тўқималарининг юза зичлик кўрсаткичи асосий технологик кўрсаткичлардан биридир. Трикотаж тўқимасининг тавсифларидан бири - хом ашё сарфининг камлигидадир. Бунда юза зичлиги, қалинлиги ва ҳажмий зичлиги эътиборга олинади. Анъанавий ҳолда тўқимада хом ашё сарфининг энг муҳим омили - трикотаж тўқимасини юза зичлиги ҳисобланади.

Жадвал 1.

Ипларнинг турлари ва чизиқий зичлиги		пахта 24*3 текс	Бамбук 24*3 текс	Виско за 24*3 текс
Юза зичлиги, г/м^2		242	232	230
Қалинлиги, мм		1,2	1,2	1,3
Ҳажмий зичлиги, мг/см^3		202	193	177
Хаво ўтказувчанлик, см^3/см^{2}сек		232,7	252,6	239,3
Ишқаланишга чидамлилик, минг айл.		14.0	16.8	16.0
Узилиш кучи, Н	Бўйига	175	203	273
	Энига	193	197	220
Узилишдаги чўзилиши, %	Бўйига	60	65	53
	Энига	74	73	58
Қайтмас деформация, %	Бўйига	82	85	86
	Энига	78	80	81
Қайтар деформация, %	Бўйига	18	15	14
	Энига	22	20	19
Тўқима киришиши, %	Бўйига	+4	+3	+2
	Энига	+2	0	+2

Юза зичлик тўқима таркибида фойдаланилаётган ипнинг тури, чизиқли зичлиги ва шунингдек ипларнинг фоиз миқдорларини ўзгаришига боғлиқ бўлади.

Йигирилган пахта ипидан тўқилган I-вариантнинг юза зачлиги бамбук ипидан тўқилган II-вариант тескари интерлок тўқимасининг юза зичлигидан 4% га куп, III-вариант вискоза ипидан тўқилган тескари интерлок тўқимасининг юза зачлигидан 5% куплиги аникланди.

Тескари интерлок тўқимасининг юза зичликлари бамбук ва вискоза ипларидан тўқилган намуналарда пахта ипидан тукилган тукимасига нисбатан кам.



2-расм. Тескари интерлок тукимасининг юза зичлиги.

Трикотажнинг хом ашё сарфини тўлиқрок кўрсатиб бера оладиган кўрсаткич бу хажмий зичлик. Бу кўрсаткич нафақат трикотаж матосининг юзасини, балки қалинлигини ҳам инобатга олган ҳолда трикотажни махсулотларини ишлаб чиқаришда хом ашё сарфини кўрсатиб беради.

Лабораторияда ишлаб чикарилган тескари интерлок тукимасининг пахта, бамбук ва вискоза ипларидан тукилган намуналарида тукималар калинлиги ўзгариши интенсивроқ тарзда ўзгарган. Шунинг натижасида энг кам хажмий зичлик 177 мг/см², қалинлиги 1,3мм бўлган III-вариант эга бўлиб, унинг хажмий зичлиги 202 мг/см²,калинлиги 1,2мм булган йигирилган пахта ипидан тукилган I-вариантга нисбатан 12% га кам, хажмий зичлиги 193 мг/см², калинлиги 1,2мм булган бамбук ипидан тукилган II-вариант юза зичлиги йигирилган пахта ипидан тукилган I-вариант юза зичлигидан 5 %га камлиги аниқланди .



3-расм. Тескари интерлок тукимасининг хажмий зичлиги.

Хаво утказувчанлик деганда, тукималарнинг узидан хаво утказиши тушунилади. Ҳаво ўтказувчанлик тукиманинг иккала томони бўйича берилган босим фарқида 1 секунд ичида 1см^2 матодан ўтаётган ҳаво миқдорини кўрсатувчи ҳаво ўтказувчанлик коэффициенти билан тавсифланади. Ҳаво ўтказувчанлик коэффициент В (см^3/см^2·сек) билан ифода этилади.

Трикотаж маҳсулотлари ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган трикотаж матоларининг ҳаво ўтказувчанлик коэффициенти, тўқима тури, қалинлиги ва зичлигига боғлиқ бўлган ҳолда см^3/ см^2·секда ўзгаради.

Трикотаж маҳсулотлари учун алоҳида аҳамиятга эга бўлган хусусият бу трикотажнинг гигиеник хусусиятидир. Тадқиқот қилинаётган трикотаж намуналарнинг ҳаво ўтказувчанлик хусусияти пахта йигирилган ипидан тўқилган I вариант намунасида камроқ. Бамбук йигирилган ипидан олинган II вариант намунасининг ҳаво ўтказувчанлиги пахта ипидан тукилган I вариант тескари интерлок тукима намунасидан 8% юкори, III вариант вискоза ипидан тукилган тескари интерлок тукимсининг хаво утказувчанлик хусусияти I вариант намунасидан 3% га куп ва II вариант намунасидан 5% га кам.Тадкикот хаво утказувчанлик хусусиятларининг бундай курсаткичлари тескари интерлок тукимасининг бамбук ва вискоза ипларидан тукилган матолариинг пахта ипидан тукилган намунасига нисбатан гигиеник хусусиятлари юкори эканлигини курсатади.



4 -Расм. Тескари интерлок тўқимасининг ҳаво ўтказувчанлиги

Трикотажнинг пишиқлиги унинг ишқаланишга чидамлилиги ва узилиш кучи кўрсаткичларидан маълум бўлади. Тадқиқот қилинаётган трикотаж намуналарининг ишқаланишга чидамлилик ўзгаришини таҳлили шуни кўрсатадики, йигирилган бамбук ипидан олинган I-вариантнинг ишқаланишга чидамлилиги бошқа вариантларга нисбатан паст, III-вариант вискоза ипидан тукилган намуна ишқаланишга чидамлилиги I-вариантн пахта ипидан тукилган намунадан юқори, лекин II-вариант бамбук ипидан тукилган намунадан паст курсаткичга эга. II-вариант бамбук ипидан тукилган намуна III-вариант вискоза ипидан тукилган намунадан 5%, I-вариант пахта ипидан тукилган намунадан 13% куп.



5-расм. Тескари интерлок тукимасининг ишкаланишга чидамлилиги.

Тескари интерлок трикотаж тўқималарининг узилиш кучи бўйига бир биридан фарқ қилиб, йигирилган пахта ипидан олинган I-вариант намунасининг узилиш кучи ,йигирилган бамбук ипидан олинган II-вариант намунасидан 14%га ва вискоза ипидан олинган III-вариант намунасидан 36%га камроқлиги аниқланди. Пахта ипидан олинган I-вариант тескари интерлок тукимасининг энига узилиш кучи бамбук ипидан олинган II-вариант намунасидан 2% кам, вискоза ипидан олинган III-вариант намунасидан эса 12% кам эканлиги аникланди.



6-расм. Тескари интерлок тўқимасининг узилиш кучининг гистограммаси.

7-расм. Тескари интерлок тўқимасининг чузилиш кучи гистограммаси.

Трикотаж маҳсулотларнинг энг муҳим бўлган хусусиятларидан бири бу шакл сақлаш хусусиятидир. Трикотажнинг шакл сақлаш хусусияти унинг чузилувчанлиги, қайтар ва қайтмас деформацияси ва киришувчанлиги билан тавсифланади.

Тажрибавий тескари интерлок намунасининг қайтар деформацияси ўзгариши трикотажнинг пахта, бамбук ва вискоза ипларидан тукилган намуналарида узига хос курсаткичлар натижаси олинди. Йигирилган пахта ипидан олинган намуналарнинг қайтар деформацияси йигирилган бамбук ва вискоза ипларидан олинган трикотаж намуналарнинг буйига нисбатан купрок фоизда эканлиги аниқланди.

Йигирилган пахта ипидан олинган I-вариант намуна қайтар деформацияси йигирилган бамбук ипидан олинган II-вариант трикотаж учун бўйи бўйича 22%га, вискоза ипидан олинган III-вариант намунасига нисбатан 17% ошган, эни бўйича вискоза ипидан олинган III-вариант намуна пахта ипидан олинган I-вариант намунага нисбатан 14%га ва бамбук ипидан олинган II-вариант пахта ипидан олинган I-вариант намунага нисбатан 11% га кам.



8-расм. Тескари интерлок тукимасининг кайтар деформацияси.

Тескари интерлок намунасининг қайтмас деформацияси ўзгариши трикотажнинг пахта, бамбук ва вискоза ипларидан тукилган намуналарида узига хос курсаткичлар натижаси олинди. Йигирилган пахта ипидан олинган намуналарнинг қайтмас деформацияси йигирилган бамбук ва вискоза ипларидан олинган трикотаж намуналарнинг буйига нисбатан камрок фоизда эканлиги аниқланди.

Йигирилган пахта ипидан олинган I-вариант намуна қайтмас деформацияси йигирилган бамбук ипидан олинган II-вариант трикотаж учун бўйи бўйича 5%га, вискоза ипидан олинган III-вариант намунага нисбатан 4% кам, эни бўйича вискоза ипидан олинган III-вариант намуна пахта ипидан олинган I-вариант намунага нисбатан 4%га купайган ва бамбук ипидан олинган II-вариант намуна пахта ипидан олинган I-вариант намунага нисбатан 3% га куплиги аникланди.



9-расм. Тескари интерлок тукимасининг кайтар деформацияси.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЙТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Ahsan Nazir*, Tanveer Hussain, Faheem Ahmad, Sajid Faheem. Effect of Knitting Parameters on Moisture Management and Air Permeability of Interlock Fabrics. AUTEX Research Journal, Vol. 14, No 1, March 2014, DOI: 10.2478/v10304-012-0045-1 © AUTEX.

2. Mikucioniene, D., Ciukas, R., and Mickeviciene, A. (2010). The influence of knitting structure on mechanical properties of weft knitted fabrics. Materials Science, 16(3).

3. Chidambaram, P., Govind, R., and Venkataraman, K. C. (2011). The effect of loop length and yarn linear density on the thermal properties of bamboo knitted fabric. AUTEX Research Journal, 11(4).

4. Charalambus, A. (2007). New approach to a theoretical study of some of the parameters in the knitting process, and their influence on knit-fabric stitch density. AUTEX Research Journal.

5. Singh, G., Roy, K., Varshney, R., and Goyal, A. (2011). Dimensional parameters of single jersey cotton knitted fabrics. Indian Journal of Fibre and Textile Research, 36(2).

6. Мирзарахметова Д.М. Исследование свойств и структуры нитроно-хлопковой пряжи и качества выработанного из нее трикотажа, Дисс, канд. техи, наук, 1974.

7. Зотова В.Ф., Ходжинова М.А. Использование химических нитей для получения комбинированных нитей в процессе кокономотания. РС/УзНИИНТИ, 1971, №4.

8. Бурнашев И.З., Батуров У.А. Разработка технологии получения конбинированных нитей, «Шелк», 1994, №3.

9. Dr.A. Gogoi. Nasrin Hazarika, Ragashree Phukon and Nabanita Gogoi Affect of resists on cotton Silk. The Indian Textile Sournal, Sanuary, 1998.

10. Textile Intelligence Limited, Trends in the World Silk Market, Textile Out Look international. May, 1993.

11. Ланцман Я.Г. разработка усовершенствованных методов оценки прогнозирования показателей качества тканей из смесовой пряжи. Дисс. канд. техн, наук, 1990.

12. Мирсадиков М. М. Разработка механизма вязания для выработки двухстороннего плюшевого трикотажа //проблемы текстильной отрасли и пути их решения. – 2021.

13. Мирсадиков М. М. Усовершенствованный способ выработки разрезного плюшевого трикотажа //проблемы текстильной отрасли и пути их решения. – 2021.

Globalization (globalization) is derived from the Latin word "glob", which means "rounding". It is used to explain the transformation of the globe, the globe, into a whole sphere, a globe, at the disposal of mankind due to scientific and technical achievements. The word "global" means "general" in French and "globe" in Latin. Therefore, the concept of globalism in these two senses includes big problems directly related to the life and destiny of mankind, "planetary", "worldly" problems, prospects of global development.

Giddins coined the phrase "globalization" for the first time in 1960. Before the 1990s of the 20th century, this phrase was hardly ever used. R. Robertson, an American sociologist, first used the term "globalization" in 1985. Since 1981, economists have first used the word "globalization." However, Charles Taz Russell, an American scientist, thoroughly explained the meaning and notion of this phrase in the middle of 1990.

In an essay that appeared in the "Harvard Business Review" magazine in 1983, American scientist T. Levitt coined the term "Globalization" for the first time. The processes of integration of multiple product markets created by major multinational firms were referred to as "globalization" by T. Levitt. The economic effects of the process of globalization are discussed in this definition. During his time, French philosopher René Descartes penned the following: "Clarify the meaning of concepts and this will save half of humanity from going astray." In this regard, we shall first attempt to define the term "globalization" and its etymological meaning. You can define this word as follows: The interaction of the economies of various nations, the attraction of foreign investment, and science—which is confirmed by the acceleration of the exchange of scientific and technological achievements and the support for the countries' scientific and technological development—are just a few of the many positive aspects of globalization, an objective process of the development of the world economy. Globalization is the process of integrating and unifying the world's economies, politics, and cultures. The primary characteristics are the global division of labor, the unrestricted flow of capital, labor, and production resources, the standardization of laws, business practices, and technical advancements, as well as the blending and convergent of cultural traditions from other nations. It is an objective process and has a systemic nature that covers all areas of society. The primary characteristics are the global division of labor, the unrestricted flow of capital, labor, and production resources, the standardization of laws, business practices, and technical advancements, as well as the blending and convergent of cultural traditions from other nations. It is a systematic procedure that is objective and affects every aspect of society. Additionally, there are anti-globalization movements that acknowledge the drawbacks of globalization. Such a group, alliance, or movement might comprise several anti-globalists like Green and AntiDaos. The stage of regionalization must be passed through in order to reach the level of globalization.

Processes that are integrated into globalization. According to A. Ochildiev, "...in the most general sense, globalization, on the one hand, means that a certain event, process, covers all regions, states, and the whole Earth, and on the other hand, it means that they affect the fate of mankind." In the words of V.I. Danilov-Danilyan, "Globalization is a concept

that stems not from logic, but from a historical paradigm.The interdependence of the many parts of globalization is not clearly and explicitly analyzed, he claimed. The definitions given above demonstrate how the complexity and variety of the globalization process set it apart. Because of this, S. Otamuratov stated that "...opinions about the concept of globalization continue to vary. That is normal. New opportunities are emerging in the influence it has on the transformation of the world since its characteristics of occurrence in space and time are distinct. On the cusp of the 1980s and 1990s, the term "globalization" received a new interpretation: the relatively recent aspects of the growth of the global economy from the use of this term, which was coined by the eminent American economist K. Ome, a native of Japan, and descriptions started to be applied to show its current state, which differs from its early stages of development.

Regrettably, wars have characterized human society for the entirety of its history. For a very long time, people have believed that war is a necessary, unavoidable, and even positive development for people. The writings of N. Machiavelli, F. Venon, T. Hobbes, J. Proudhon, F. Nietzsche, and others provide numerous examples of this. This does not imply that all ancient philosophers viewed war in the same light. It is generally documented how war affected minds like Erasmus of Rotterdamsky, J. J. Rousseau, Immanuel Kant, M. V. Lomonosov, and many more. The pursuit of peace in the 19th and 20th centuries was embodied in pacifism, or the complete rejection of all things associated to militarism and conflict. It is important to underline that wars grew bloodier and more horrific from century to century. In the 17th century, 3 million people perished in conflicts in Europe; 5.2 million perished in battles in the 19th century (of which around 2 million perished in the Napoleonic wars). In this sense, the 20th century was superior than all others. The First World War claimed the lives of almost 10 million people, which is comparable to the 200-year span of wars before it. During World War II, 60 million people died. It involved 61 nations and accounted for 80% of the world's population, including colonies. Military activities took place on the soil of 40 nations in Europe, Asia, and Africa as well as in the waters of the four oceans. The development of types of weapons of mass destruction (nuclear, hydrogen, neutron, chemical, bacteriological, etc.) has led to the fact that the stockpile of weapons accumulated today is enough to destroy humanity and all living things on our planet several times. It can be said that the problem of war and peace is "historically the first global problem of our time and remains the most dangerous and irrevocable problem at the top of the list of global problems." The end of the "Cold War", the elimination of the military-political conflict between the blocs, and the general improvement of the international situation have significantly reduced the risk of consciously starting a war. However, the risk of accidental initiation remains. Therefore, this global problem can be solved only through global disarmament and, first of all, the elimination of weapons of mass destruction.

As a contemporary phenomena, globalization accomplishes its goal in any way. Of course, even if some well-known and little-known forces — who could be called the

forerunners of globalization — artificially accelerate or become interested in this process, the spirituality, mentality, change, or strengthening of the nations — as mentioned above — depends, in part, on the nation itself to maintain its distinctiveness.

The Sustainable Development Goals are a call to global action to end poverty on Earth, protect the environment and climate, and ensure that all people around the world enjoy peace and prosperity. The goals that the UN is trying to achieve in Uzbekistan are:

- ending extreme poverty;
- ending hunger;
- health and well-being;
- quality education;
- gender equality;
- clean water and sanitation;
- cheap and clean energy;
- decent jobs and economic growth;
- industrialization, innovation and infrastructure;
- reducing inequality;
- sustainable cities and residential areas;
- responsible consumption and production
- fight against climate change
- protection of marine ecosystems;
- preservation of terrestrial ecosystems
- peace, justice and effective governance;
- cooperation for sustainable development

In conclusion, it should be said that globalization is a factor that contributes greatly to the development of man and society. We need to think philosophically about every innovation of globalization, adapt it to our own mentality, and then apply it to society. The reason we need to think philosophically is that philosophy is a science that comes from wise thoughts and opinions.

Reference

1. Globallashuv va barqaror taraqqiyot. https://fayllar.org/9-mavzu-globallashuv-va-barqaror-taraqqi.html
2. Otamuratov S. Globallashuv va millat. – T., YAngi asr avlodi, 2008. – 13 b.
3. Danilov-Danilyan V.I.Ustoychivoe razvitie-problema vijivaniya cheloveka//. Nauka.Obshestvo.CHelovek.-M.,2004. -143s.
4. Sustainable Development definition: Historical Background and examples. https://youmatter.world/en/definition/definitions-sustainable-development-sustainability/.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

THE ROLE OF THE "HOLY ALLIANCE" IN EUROPEAN POLITICAL LIFE

Akhmadov Sherzod[1]

Samarkand State University

KEYWORDS

Holy Alliance, West and East, Talleyrand legitimism, Western Question, Gendarmerie, German Diet, "White Terror" people, dogmatic, expedition, popular sovereignty

ABSTRACT

This article talks about the history of the formation of the "Holy Alliance" between Alexander I, Francis I and Friedrich-Wilhelm III in Paris on September 26, 1815, and the aspects of the alliance that affected the life, lifestyle and political situation of Western and Eastern countries, as well as Russia.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7951291
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Shakhrisabz, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

“МУҚАДДАС ИТТИФОҚ”НИНГ ЕВРОПА СИЁСИЙ ҲАЁТИДА ТУТГАН ЎРНИ

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Муқаддас иттифоқ, Ғарб ва Шарқ, Таллейран легитизм, Ғарб масаласи, жандарм, Германия сейми, “Оқ террор” одамлари, догматик, экспедиция, халқ суверенитети

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада 1815-йил 26 сентябрда Парижда Александр I, Франс I ва Фридрих- Вильгельм III ўртасидаги “Муқаддас иттифоқ” ни тузилиш тарихи ва тузилган иттифоқ акти Ғарб ва Шарқ давлатлари хамда Россиянинг хаётига, турмуш тарзига ва сиёсий ахволига таьсир еттирган жабхалари хақида сўз боради.

Кириш. Европада қайта қурилган хавфсизлик пойдевори остида қўйганлиги тўғрисида Вена конгрессини тез-тез эсга олишлари бежиз эмас. Европа тартибга солиш тизими мафкуравий асосга эга бўлди: конгресс давомида Таллейран легитизм тамойилини таклиф қилди, Александр I эса христианликка содиқлик ва инқилобий ҳаракатларга қарши курашда монархияларнинг ўзаро ёрдам кўрсатиш тамойилини яратилаётган Муқаддас иттифоқнинг асоси қилиб қўйди. 1815-йил 26 сентябрда Парижда Александр I, Франс I ва Фридрих- Вильгельм III ўртасида Муқаддас иттифоқни тузиш тўғрисида келишувга имзо чекилди[2].

Иттифоқнинг мақсади шу эдики ҳар қандай хавф туғилган ҳолда иттифоқчилар бир-бировларига ёрдам беришлари керак эди. Муқаддас иттифоқга бошқа давлатлар ҳам таклиф этилди, фақатгина Англия иттифоқга қўшилмади. Шунга қарамай Англия Александр I га Иттифоқ тамойилларини қўллаб-қувватлашини билдирди. Бироқ Муқаддас иттифоқни тузиш тўғрисидаги келишув ҳам, унинг иштирокчилари ўртасидаги чуқур қарама-қаршиликларни олдини ололмасди.

Шунга қарамай Вена трактати, Парижда Муқаддас иттифоқни тузиш тўғрисидаги акт бир неча йилларга Ғарбий Европада меттернихликни ва Россияда аракчеэвликни чуқур реакцион тартибларини мустаҳкамлади. Айниқса “Муқаддас иттифоқ” даврида Александр I нинг умумевропа ишларига таъсири кучли эди ва шунинг учун ҳам унга “Европа жандарми” номи берилди.

Муқаддас иттифоқ тизимида биринчи муаммо Европада эмас, балки Испания Америкасида пайдо бўлди, у ерда 1810-1812 йилларда инқилобий ҳаракатларнинг биринчи тўлқини асосан бостирилгач, 1815-1816 йилларда мустақиллик учун урушларнинг янги ва биз билганимиздек, ҳал қилувчи босқичи бошланди. Испания, кейин эса Португалия империяларининг инқирози буюк Европа давлатларининг эътиборини Янги Дунёда таъсир ўтказиш учун курашга қаратди – қисқа вақт ичида “Ғарб масаласи” жаҳон сиёсатининг энг муҳим мавзусига айланди. Испания ҳукумати Муқаддас иттифоқ тамойилларига ишора қилиб, Америка қитъасидаги инқилобга

[2] Надлер В. К. Император Александр I и идея Священного союза. М.,1982. с.89

қарши курашда Европа давлатларининг қўллаб-қувватлашига интилди.

Вена конгрессининг ўзида Усмонли империяси каби Янги Дунё муаммолари (келажакдаги "Ғарбий" ва "Шарқ" масалалари) муҳокама қилинмади. Якуний далолатномада қитъа ҳақида ягона эслатма 107-модда бўлиб, унга кўра 1809-йилда Англия-Португалия кучлари томонидан босиб олинган ва Португалияга ўтказилган Франция Гвианаси Францияга қайтарилган.[3]

1818-йил 30-сентябр – 22-ноябр, Ахен шаҳрида бўлиб ўтган Муқаддас Иттифоқнинг биринчи конгрессида Лотин Америкасига уч кунга бағишланди. 22 ва 28 октабр кунлари Буюк Британия ташқи ишлар вазири виконт Каслри раислигида конгресс иштирокчилари расмий Мадриднинг нотасини муҳокама қилдилар, бунда улар испан америкалик инқилобчилар билан музокараларда Европа давлатларининг воситачилигига, музокаралар муваффақиятсизликка учраган тақдирда қўзғолонни бостиришда ёрдам беришга умид боғлаганлар. Метрополия қўзғолончиларга тўлиқ амнистия, креоллар ва европалик испанларнинг ҳуқуқларининг тенглаштирилишини ва эркин савдони таклиф қилишга тайёр эди – шуни таъкидлаш керакки, иккинчи тамойил 1812-йилдаги Кадис Конституциясида тасдиқланган, аммо 1814-йилда бекор қилинган ва 1797-йилдан бери энг муҳим Америка портлари чет элликлар учун очиқ эди.

Муҳокама пайтида дарҳол рус-инглиз қарама-қаршиликлари пайдо бўлди, бу 1815-йилдан кейин аҳамиятли даражада Европа сиёсатини белгилаб берди. Уша заҳоти Каслри Мадридга ҳар қандай ёрдам парламентда норозилик билан кутиб олинишини айтди, унинг аъзолари Испания империясининг қулаши туфайли пайдо бўлиши мумкин бўлган савдо фойдаларини тушундилар. Қолаверса, айнан Буюк Британиянинг илтимосига кўра, Испания вакили конгрессга таклиф қилинмаган эди. Австрия ва Пруссия Британия позициясини қўллаб қувватлашди, Франция бетараф қолди ва Россия Испанияни қўллаб-қувватлашга интилди, аммо ислоҳотлар зарурлигини, шу жумладан Америка мулклари учун конституциявий низомни яратиш зарурлигини таъкидлади. Ҳеч қандай қарор қабул қилинмади.

Санкт-Петербург томонидан Испания монархиясининг қўллаб-қувватланиши Ахен Конгрессидан олдин ҳам бешта жанговар кема ва учта крейсерни Ревелдан Кадисга етказиб беришда ифодаланган. Қул савдосини тақиқлаш эвазига Лондондан Мадридга ваъда қилинган пул савдо тўғрисидаги шартнома кафолати бўлди. Кемалар 1818-йил 21-февралда Кадисга етиб келишди, бироқ тез орада улар кейинчалик фойдаланиш учун яроқсиз эканлиги маълум бўлди. Ушбу кемалардан фақат биттаси 1818-йил баҳорида Лимага юборилган, у эрда деярли дарҳол Чили инқилобчилари томонидан қўлга олинган ва янги Чили флоти таркибига қўшилган. 1823-йилга келиб, қолган еттита кема ўтин учун сотилган. Испания Александр I аслида испан америкаликларига яширинча ёрдам беришга тайёрлиги ҳақидаги миш-

[3] *Мартенс Ф.Ф.* Россия томонидан хорижий давлатлар билан тузилган рисолалар ва конвенциялар тўплами. 15 жилдда. Ж., 1874-1909. Ж. III. Б. 308.

мишларга тўла эди. Низони ҳал қилиш учун император испанларга яна учта 40 қуролли фрегатни сотди, бу вақт мақбул сифатга эга эди.

1820-йил октябр – 1821-йил март ойларида Троппау ва Лайбахда бўлиб ўтган конгрессларда "Ғарб масаласи" кўтарилмади - асосий мавзу Неаполдаги инқилоб эди. Буюк Британия ва Франция томонидан норозилик билан қабул қилинган 1820-йил 19-ноябрдаги Австрия-Пруссия-Россия давлатларнинг инқилобларни бостириш учун аралашув ҳуқуқи тўғрисидаги баённомаси тўғридан-тўғри Европа ҳудуди – Неапол Қироллиги ва Пиреней монархияларига тегишли: "Европа Иттифоқига аъзо бўлган, бошқа давлатлар учун хавфли оқибатларга таҳдид соладиган қўзғолон орқали ҳукумат шаклларини ўзгартирган давлатлар, айнан шу нарса орқали давлатлар Иттифоққа аъзо бўлишни тўхтатадилар ва уларнинг ички тартиб ва мустаҳкамлиги кафолатларини таъминламагунча ундан ташқарида қолади.

1822-йил 24-ноябрда герцог А. Веллингтон Британия империяси савдо ва қароқчиликка қарши кураш манфаатларидан келиб чиққан ҳолда Испания Америка штатларини аллақачон de facto тан олганини эълон қилди. 26-28 ноябр кунлари фикрлар алмашинуви юз берганди: Россия, Австрия ва Пруссия Испания мулкининг мустақиллигини тан олишдан бош тортдилар ва Франция Мадрид қитъага "тинчлик ва фаровонлик" ни таъминлай олишига умид қилиб, лекин "нарсалар кучига" бўйсуниш зарурлигини англаб, ўрта чизиқни танлади. Натижада, 28-ноябрда қўшма баённома қабул қилинди, унда Веллингтон ҳам Георг IV нинг метрополия ва унинг ҳукмронликларини яраштириш истагини тан олди. Ҳар ҳолда, аниқ қарорлар қабул қилинмади.

Шундай қилиб, Испания Империясининг Муқаддас Иттифоқ давлатлари 1815-1822 йилларда америкалик инқилобчиларга қарши курашда кўрсатган ягона қўллаб-қувватлаш тури Россия томонидан қониқарсиз сифатдаги кемаларни Испания флотига етказиб бериш эди. Буюк Британия Испан Америкаси мустақиллик урушининг бошиданоқ исёнчиларни урушаётган томон сифатида кўрди, бу улар билан савдо қилишга рухсат берганлигини билдиради. Испан Америкаси давлатларининг мустақиллиги Европа давлатлари учун хавф туғдирмасди, аксинча, фойда келтириши мумкин эди: метрополия хорижлик савдогарлар учун Америка бозорларини шунчаки очди ва ёш республикалар кўпинча сиёсий ёрдам эвазига савдо имтиёзларини беришга тайёр эди. Наполеоннинг ғолиблари, шу жумладан, Александр I ва Меттерних ҳам догматик эмас эдилар: Австрия ва Франциянинг қўшни давлатларга аралашувига рози бўлиш – бир муаммо ва умуман бошқаси – ноаниқ натижа ва аниқ юқори йўқотишлар билан, шу жумладан ҳар ёзда авж олган сариқ иситма эпидемияси туфайли соф мафкуравий сабабларга кўра биргаликда бошқа қитъага экспедиция ташкил этиш; сиёсатчилар инглизларнинг 1806 ва 1807-йилларда Буенос-Айресни босиб олишга бўлган муваффақиятсиз уринишларини ва ниҳоят, Европада ғалаба қозонган Наполеон қўшинлари 1802-1803 йилларда Санто-Домингода бошдан кечирган ҳақиқий фалокатни эсладилар. 25 йиллик урушлардан

чарчаган Европа давлатларининг раҳбарлари улар яратган Вена тизими ички ва ташқи тинчликка эришишига умид қилишган эди.

Бу даврда, инқилобларга хайрихоҳ бўлган замондошлар Европа давлатларининг йўналишини бошқача кўришлари мумкин эди. 1820-йил 19-ноябрдаги Австрия-Пруссия-Россия давлатларнинг инқилобларни бостириш учун аралашув ҳуқуқи тўғрисидаги баённомасининг қабул қилиниши ва Австриянинг 1821-йил феврал-апрел ойларида Неапол ва Пемонтга, 1823-йил апрел-октябр ойларида Франциянинг Испанияга муваффақиятли аралашувлари баъзи кузатувчиларни Муқаддас иттифоқ ҳақиқатан ҳам кенг кўламли ҳарбий ҳаракатларга тайёр, деб ўйлашга ундади. 1823-йил апрел-май ойларида “The Morning Chronicle” етакчи виг газетаси Испанияга бостириб кирмоқчи бўлган рус қўшинларининг гўёки “катта” (enormous) тўпланиши ҳақида бешта мақола чоп этди, 11-июн куни 1822-йил 22-ноябрда Веронада тўртта давлат ўртасида тузилган махфий шартнома матнини эълон қилди. Ушбу шартномага кўра, монархлар “барча саъй-ҳаракатларини” (all their efforts) вакиллик ҳокимияти, халқ суверенитети ва сўз эркинлиги тамойилларига қарши курашишга йўналтиришга қаратдилар, бунда католик черковини ҳамма нарсада қўллаб-қувватлашди. Шартноманинг ҳақиқийлигини инкор этиш Лондон матбуотида дарҳол пайдо бўлган бўлса-да (шу жумладан, айтмоқчи, тўртта давлат элчилари томонидан яширинча тўланган), қалбакилаштириш лингвистик жиҳатдан ёмон мослаштирилганига қарамай, унга ишонишни истаганлар ишонишди. Шартномани қайта нашр этган француз “Pilote” газетаси муҳаррири бир ойлик қамоқ ва жаримага ҳукм қилинди, бу британияликлар учун мақола ҳақиқатининг қўшимча исботи эди.

Александр И ва кейинчалик унинг укаси Николай I тўла қонли лойиқ эдилар. Албатта шуни айтиб ўтиш жоизки, на Александр I, на Николай I ўша даврдаги Европа прогрессив кучларининг бахтига қарши, Европада ягона “жандарм” эмас эдилар. Уларнинг иккаласини олдида Меттерних ҳам ҳаракат қилган, Александр билан бирга Францияда “Оқ террор” одамлари, Неополитан Бурбонлари ҳаракат қилишган бўлса, Николай билан бирга Германияда, Италияда, Испанияда католик реакцияси ҳаракат қилди. Уларнинг барчасини подшодан фарқи шу эдики, улар подшодан кучсиз эдилар[4].

Бу иттифоқнинг ишларини амалга ошириш учун “Германия сейми” тузилди. Иттифоқга Австрия, Пруссия ва барча бошқа герман давлатлари (умумий сони 38 та) киритилди. Меттернихнинг режасига кўра иттифоқ келажакда Франциянинг Рейн томонга қараб силжишига тўсиқ бўлиши керак эди ва шу билан бирга Германияда Австриянинг раҳбарлик ролини таъминлаши керак эди. Умуман Германия иттифоқини тузилишига баҳо берилса, бу иттифоқ Германия халқини бирлаштириш учун эмас, балки уни янада тарқоқлик гирдобига торишга мўлжалланган эди[5].

[4] Троицкий Николай. Во главе Священного союза. Россия в XIX века. М.,1997. с.81
[5] Литтлвуд Йен. История Франции от древнейших времен до наших дней. М.,2004 с.300

Юқоридаги воқеалардан сўнг конгресс Германия ишларини тартибга солишга киришди. Германия масаласида кучли баҳслар бўлмади, Александр, ҳудди Меттерних сингари Германияни тарқоқлигини мустаҳкамлаш керак деган фикрни билдирдилар. Англия уларнинг фикрини мақуллади, Пруссия эса иложсиз эди, агар у курашишни хоҳласа ҳам ҳеч нарсага эриша олмас эди. Вена конгрессининг барча аъзолари Германия тарқоқлигига нисбатан қандайдир чора кўришни ҳам хоҳламас эдилар, шундан сўнг Германия аҳолисининг барча умидлари пучга чиқди[6].

Хулоса.Россиянинг Муқаддас иттифоқдаги роли ҳақида гапирсак, Россия иттифоқда бош ролни ўйнаш билан бирга унинг роли ўзига ҳос ҳарактерга эга бўлган. “Муқаддас иттифоқ” акти Ғарб ва Шарқ давлатларига, Россияга, ёмон ва иккитомонлама таъсир ўтказди. Ғарбий Европада Вена конгрессидан кейин вужудга келган телба ҳукумат реакцияси Россия ҳимояси остида қолди, бироқ Россиянинг улар билан иши йўқ эди.

[6] Всеобщая история дипломатии. М.,2009. с.125

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

FOOD SHORTAGE IN TURKESTAN 1917-1924

Habibullayeva Sevara[1]

Samarkand State University

KEYWORDS

Soviet power, food problem, Russian emigrants, head of Sovnarkom, famine, forced levies, relief fund for the starving in the Volga and Ural regions, victims of Bolshevik terror.

ABSTRACT

This article provides detailed information about food shortages, disorder in society, and forced confiscation of property in Turkestan in 1917-1924.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7951326
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master, Faculty of History, Department of "History and Source Studies", Samarkand State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

TURKISTONDA 1917-1924 YILLAR OZIQ-OVQAT TAQCHILLIGI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Sovet hokimiyati, oziq-ovqat masalasi, rus muhojirlari, Sovnarkom rahbari, ocharchilik, majburiy yig’imlar, Volgabo’yi va Uralbo’yida och qolayotganlarga yordam jamg’armasi, bolsheviklar terrori qurbonlari

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada 1917-1924 yillar Turkiston oziq-ovqat taqchilligi, jamiyatdagi parokandalik, majburiy mulk musodarasi haqida ba’tafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Turkiston muxtoriyati tor-mor keltirilgach, 1918 yil 28 fevralida Turkiston Sovnarkomi maxsus dekretiga ko’ra har qayerdagi, har qanday shakldagi paxta musodara qilinib, Turkiston o’lkasi ishchi-krestyan hukumati mulki deb e’lon qilina boshladi.

Dekretni e’lon qilgan bolsheviklar endilikda o’zlari tinch aholini talon-toroj qila boshladi. Bir so’z bilan aytganda, bu dekret bolsheviklarni mahalliy aholi ko’zi oldida yanada obro’sizlantirdi.

Bolsheviklar ozodlik ulashuvchilar niqobi ostida yana o’sha maqsad – talonchilik maqsadida kelgani ma’lum bo’ldi. «Harbiy kommunizm” rejimining o’rnatilishi qishloq xo’jaligini butunlay yakson qilgan vayronkor tendensiyalarni keltirib chiqardi, bu esa, Rossiya kabi, Turkistonni ham ommaviy ocharchilik qamrab olishiga sabab bo’ldi[1].

1919 yili Turkistonda non taqchilligi qariyb 100 million pudni tashkil qildi. Turkiston bug’doyzorlarining shiddat bilan qisqarishi hamda Rossiyadan paxta evaziga keladigan don hajmining kamayib ketishi buning sababi edi.

1916 yili Rossiya ichki guberniyalaridan Turkiston paxtasi evaziga 22 millon pud don yetkazilgan bo’lsa, 1917 yili bu ko’rsatkich 1,9 millionni tashkil etdi, 1919 yilda esa hech narsa olib kelinmadi.

Turkistonning o’zida o’sha yili faqat 5,3 million pud non tayyorlab qo’yilgan edi. Yil hisobida bir kishiga bir necha kilogramm non to’g’ri kelardi, xolos[2]. Natijada Turkistonni misli ko’rilmagan ocharchilik qamrab oldi, 1,2 million kishi uning qurboni bo’ldi[3].

Qishloq aholisi bo’yniga og’ir yuk bo’lib Qizil armiyani boqish majburiyati tushdi. Turkistonning o’zidagina 100 ming qizil armiya askari bor edi. Ko’p hollarda qizil armiya va bosmachilar o’rtasidagi harbiy to’qnashuvlar chog’ida ekinlar tag-tubi bilan yo’q qilinar edi.

TurkSIK favqulodda komissiyasi tekshiruvi natijalariga ko’ra, 1921 yili sentabr–oktabr oylarida 80029 xo’jalik xonavayron bo’ldi, och qolayotgan odamlar soni 227059 kishini tashkil etdi, 64336 kishi ochlikdan halok bo’ldi, 159959 kishi esa ocharchilik tahdidi ostonasida turgan edi. 1919 yil birinchi yarmida Kaspiyorti frontining o’zida 198 sisterna o’simlik yog’i yoqilg’i sifatida ishlatildi.

Turkiston temir yo’llari parovozlari uchun bunday yog’ning 53 sisternasi ishlatildi. Aholi ehtiyojlariga esa 63 sisterna yog’ ajratildi. Umuman olganda, 1919 yil fevraligа kelib yoqilg’i sifatida 600 ming pud o’simlik yog’i ishlatildi.

O’tin va ko’mir yetishmovchiligi tufayli yoqilg’i sifatida boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ham qo’llandi. Masalan, Orol dengizi uchastkasida quruq baliq va kunjara yoqilg’i vazifasini bajardi[4].

1919 yili Turkston Kompartiyasining 3-s’ezdida Sovnarkom raisi K.E. Sorokin shunday dedi: «Farg’onada sovet hokimiyati yo’q, faqat rus aholi yashaydigan shaharlar bundan mustasno. Ammo musulmon qishlog’ida sovet hokimiyati mavjud emas”. S’ezdda chiqish qilgan boshqa bir notiqning shohidlik berishicha, «partiya tashkilotlarida politsiyaning sobiq amaldorlari, jandarmalar va ko’plab boshqa jinoiy unsurlari o’rnashib olgani holatlari kuzatildi. Buning natijasida ko’plab ma’sul mansablarga bezorilar, poraxo’rlar va piyonistalar, mansab spekulyantlari o’rnashib olib, ular aholini talon-taroj qilgan, uni qatag’on qilib, bu bilan sovet hokimiyatiga dushman orttirgan”[5].

O’sha yillar hujjatlarida qayd qilinishicha, 1921 yil bahoridan Rossiya ichki guberniyalaridan kelgan och-nahor odamlarning ulkan to’lqini «Orenburg dashtlarini shiddat bilan to’ldirib, Turkiston markaziga yetib bordi va katta partiyalar bilan Toshkentda o’rnashdi”[6].

1921-1922 yillarda, ocharchilik zarbasi ostida qolgan Rossiya guberniyalaridan kelgan qochqinlardan tashqari, Turkiston 500 ming kishini boqimandalikka qabul qildi. Turkistonga kelganlarning asosiy qismi qishloq tumanlariga yuborildi[7].

Turkistonda «Volgabo’yi va Uralbo’yida och qolayotganlarga yordam” jamg’armasiga mablag’ va oziq-ovqat to’plash aksiyalari keng ko’lam kasb etdi. Iyul oyining oxirida Orenburgga 10 vagon non va 6 vagon baliq yuborildi – bu mahsulotlar Toshkent va Toshkent uyezdi aholisi tomonidan to’plangan edi.

Shu bilan bir qatorda, 31 iyulda Pom.Gol Markazqo’mi (SK Pomoщ golodayuщim) Yettisuv viloyatidan 24 vagon oziq-ovqat yuklangan yo’nalishli poyezd yo’lladi. 1 avgust kuni o’sha yerdan yana 25 vagon yo’llandi.

Xullas, 1921 yil kuzining boshiga kelib Turkiston aholisi yordamida Rossiyada och qolayotgan odamlarga 600 ming pud non yuborildi. Bundan tashqari, Turkiston respublikasi hukumati 1922 yil 1 yanvaridan Pom.Gol Markazqo’mi ixtiyoriga kelib tushuvchi «ochlik solig’i”ni joriy etdi.

Natijada 1922 yil 1 yanvaridan 1 dekabriga qadar Pom.Gol Markazqo’miga Turkistondan 24,5 million rubl pul va xayriya, 69 ming pud oziq-ovqat va 14,4 ming kiyim-kechak buyumi kelib tushdi[8].

1922 yili Turkistonda maxsus vazifa bajarayotgan Sergo Orjonikidze vaziyatga ichkaridan baho berdi va I.V. Djugashviliga (Stalin) 1922 yil 13 mayida yo’llangan maktubida quyidagilarni xabar qildi: «Turkiston patriarxal-qabilaviy turmushini majburiy tabaqalashtirishga urinishdan iborat muvaffaqiyatsiz siyosat, shariatga qarshi uquvsiz va ma’suliyatsiz kurash, jazo otryadlarining xuddi shunaqa fe’l-atvori va boshqa bir qator sabablar chinakam fojiaga olib keldi. …Bosmachilik go’yoki aholidan uzilib qolgan, uning tomonidan ta’qib etiladigan talonchilik to’dasi ekanligiga ishonmayman. Turkistondagi siyosatimizni tubdan qayta ko’rib chiqish, har qanday kommunistik eksperimentlardan

qat'iyan voz kechish зарур… Musulmon ziyolilarini jalb qilish, so'l kommunistlarning o'yinlarini yig'ishtirish…»[9].

Grigoriy Konstantinovich Orjonikidze (Sergo) 1937 yili qatag'on qilingan va otib tashlangan edi.

1926 yil sentyabrida markaziy matbuotda Rossiya kommunistik qizil armiyasi boshlig'i M.N. Tuxachevskiy chiqish qildi (darvoqe, u ham 1937 yili qatag'onga uchrab, otib tashlangan edi). Bolsheviklarning Turkistondagi faoliyati haqida u quyidagilarni yozdi: «Farg'onaning deyarli butun aholisi paxta yetishtirishga bog'liq edi. Farg'onada non yetishmas edi, uni boshqa yerdan yetkazish talab qilinar edi. Shu tariqa, Farg'onaning tub aholisi mavjudligining yagona manbai – paxta konfiskatsiyasi fakti oldida lol qoldi, va shu bilan bir qatorda o'sha payti boshlangan va sekin-asta kuchayib borayotgan ocharchilik bilan yuzma-yuz qoldirildi.

Bu siyosatning natijasi shu bo'ldiki, aholi unga paxtachilikning tezkor va qat'iy qisqartirilishi bilan javob berdi. Ochlik yana non ekinlariga o'tishga majbur qildi. Paxta nonga nisbatan ko'proq ishchi kuchi talab qilishi munosabati bilan shundan so'ng ulkan ishsizlik kelib chiqdi, u bir necha yuz ming kishidan tez orada 700 ming kishiga yetdi. Kuchayib borayotgan ochlik shundan keyin boshlanib ketgan sovet hokimiyatiga qarshi kurashda bosmachi otryadlari uchun to'yinish manbaiga aylanib qoldi"[10].

Ma'lumki, 1920-yillar o'rtasida, Toshkent «non shahri" shuhratini qozonganida mintaqa serhosil o'lka ramziga aylandi. 1921 yil davomida Turkiston darhaqiqat Volgabo'yidan ochlarni qabul qildi. Turkistondagi ocharchilik, guvohlarning bildirishicha, «miqyosiga ko'ra 1920-1921 yillari Volgada ro'y bergan ocharchilikdan qolishmas edi. Faqat bu yerda mamlakatning farovon hududlariga tashkiliy evakuatsiya ham, xalqaro tashkilotlar yordami ham bo'lmadi"[11].

O'n yil ichida Turkistonda mahalliy aholi vakillaridan millionlarcha kishi o'ldirildi. O'zbekistonlik tarixchi Mansurxo'ja Xo'jayevning daraklariga ko'ra, sovet hokimiyati Turkiston milliy ozodlik harakatini bostirish maqsadida Farg'ona vodiysida muntazam armiyaning oxirgi standartlar bo'yicha qurollangan 260-270 ming askaridan foydalangan.

Tarixchilarning fikriga ko'ra, O'rta Osiyoda sovet hokimiyati o'rnatilgan yillari qurbonlarning umumiy soni 5-6 million kishini tashkil qildi[12].

Bolsheviklar terrori qurbonlari haqidagi tadqiqotlarda ham deyarli shunaqa raqamlar keltiriladi. Masalan, M.Buttinoning sinchiklab o'tkazilgan statistik hisob-kitoblari Turkiston fojiasining butun miqyosini yaqqol ko'rsatib berdi: «1915 yildan 1920 yilgacha bo'lgan davrda u yerda ishlov berilgan yer maydoni qisqarib ketdi, uy chorvasi miqdori 7,5 foizga tushib ketdi, paxta yetishtirish esa amalda to'xtadi. Lekin turli ijtimoiy guruhlarning yo'qotishlari o'zaro teng emas edi va, agarda rus krestyanlarida ishlov berilgan yer hajmi 28 foizga, uy chorvasi miqdori 6,5 foizga qisqargan bo'lsa, o'troq mahalliy aholida bu ko'rsatkichlar tegishlicha 39 va 48 foizni, ko'chmanchilarda esa 46 va 63,4 foizni tashkil etdi. O'lka aholisi soni o'sha besh yillik davr ichida 25 foizga, qishloq aholisi 30 foizga kamaydi"[13]

Bolsheviklarning uqtirishicha, sovet tuzumi davrida go'yoki Turkistonning butun aholisi, kelib chiqishi, millati, diniy mansubiyati va boshqa jihatlaridan qat'iy nazar, o'zaro teng va erkin edi. O'zaro tenglik haqidagi ushbu bolshevistik «xo'jako'rsin"ni amalga oshirish yo'lida hatto xo'jako'rsinga «erkin" respublikalar ham tashkil etildi.

Aslida esa mahalliy aholi ham, ular mavjudligining yangi siyosiy shakli ham asl mustaqillikdan tamomila ayrilgan edi. Ular hech qanday siyosiy erkinliklarga ega emasdi, xalqaro huquq sub'ektlari hisoblanmasdi, shunchaki bolshevik loyihasining huquqsiz parchalari bo'lib, yangicha usuldagi mustamlakachilik konsepsiyasining yangi va dahshatli ifodasi edi.

Petrogradda 1917 yil oktabridagi bolshevik to'ntarishi, undan keyin Turkiston o'lkasi, xususan, Toshkentda va Qo'qonda oktabr-noyabr oylarida bo'lib o'tgan voqealar mahalliy ziyolilarni o'z faoliyatini boshqa yo'nalishga qaratishga majbur qildi.

Agar faoliyatining boshida jadidlar gazeta sahifalari va ziyolilar yig'ilishlarida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatiga qarshi faol chiqishlar qilib kelgan bo'lsa, endilikda ular qo'lida qurol bilan bolsheviklarning dahshatli hukmronligiga, dashnoqlarning talonchiligi va sovetlarning mustamlakachiligiga qarshi muqaddas urush e'lon qila boshladilar.

Jadidlar – sobiq o'qituvchi va ziyokorlarning Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatiga qarshi ilg'or modernizm usuli bilan qarshi kurashish faoliyati sekin-asta dashnoqlar va bolsheviklarga qarshi harbiy konfrontatsiya va partizanlik urushiga aylanib ketdi. Jadidlar Turkiston ziyolilarining asosini tashkil qilar edi. Ular bolsheviklar terroriga qarshi mahalliy aholining ozodlik kurashiga boshchilik qildi.

Sovet-bolshevik va dashnoq otryadlarining qattiqqo'lligi va shafqatsizligi intiqom o'tini alangalatdi. Turkiston milliy ozodlik harakat otryadlarining harbiy dala komandirlari – qo'rboshilar xalqni dashnoqlar va bolsheviklarga qarshi g'azotga chaqirdi.

Shiddatli urush va to'qnashuvlar tinmadi, mayda keskinliklar, hujumlar va aktlar esa 40-yillarga qadar davom etdi. Bu harakat yaqqol aksildashnoq, aksilbolshevik va aksilsovet xususiyatlarini namoyon qilar edi. Bu Vatanning milliy mustaqilligi va erkinligi yo'lidagi kurash edi.

1918 yildan 1919 yilga qadar «inqilobiy diktatura" va Andijondagi bolshevistik hokimiyat dashnoqlar nazorati ostida bo'ldi. Turkistonda ocharchilik hukmronlik qilayotgan iqtisodiy inqiroz shart-sharoitlarida hokimlik resursidan foydalangan holda dashnoqlardan tuzilgan qizil armiya otryadlari bosmachilarga qarshi kurash bahonasida musulmon qishloqlariga hujumlar uyushtirar, «inqilob haqqi" ularni talon-taroj qilar va mol-mulklarini o'zlashtirar edi[14].

Dashnoqlar tarafidan bolsheviklar ko'magida Farg'ona vodiysi tinch aholisining qirg'in qilinishi mahalliy aholining javob xatti-harakatlarini keltirib chiqardi.

Buning natijasi 1918 yil bahorida dastlab Farg'ona vodiysida boshlanib, so'ng Turkistonning barcha mintaqalariga tarqalgan keng miqyosli milliy ozodlik urushi bo'ldi.

Dashnoqlar va bolsheviklarning keng miqyosli va dahshatli qo'poruvchilik

harakatlari xalq noroziligining portlashiga olib keldi, endilikda ushbu harakat Turkiston milliy ozodlik harakatidan bolsheviklarga qarshi chinakam g'oyaviy siyosiy, harbiy kurashga aylanib ketdi. Ya'ni Turkiston muxtoriyatining yo'q qilinishi va mahalliy aholining dashnoqlar tomonidan qirg'in qilinishiga javoban mahalliy aholi orasida milliy ozodlik ruhidagi partizanlik harakati keng quloch yozdi. Bu jarayon sovet tarixshunosligida bosmachilik deb ataladi. U sovet hokimiyati tomonidan faqat 30-yillar o'rtalarida tugatildi[15].

Rasman Rossiya imperiyasining kolonial tuzumi qulatilgan bo'lsa-da, bolsheviklar hukmronligi davrida mustamlakachilik siyosati to'xtamadi, balki takomillashib, yangicha shaklda amalga oshirilishda davom etdi. Bolsheviklar mustamlakachilarning «munosib" vorislari bo'ldi[16].

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turkestan v nachale XXv.: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. Tashkent, 2000. B.48

2. Istoriya narodnogo xozyaystva Uzbekistana. Tashkent, T. 1. 1962. B.50-51.

3. Tileukulov S. Turkestan na istoricheskom povorote 1917-1920g. // Tileukulov S., Golovanov A.A., Orazimbetov SH., Kasanbayev S. B.144.

4. Narodnoye xozyaystvo Turkestana. 1919. № 3. B.20. № 6. B.2.

5. Trudы 3-go s'ezda Kommunisticheskoy partii Turkestanskoy respubliki Rossiyskoy Sovetskoy Federatsii, 1-15 iyunya 1919g. Tashkent, 1919. B.73, 104.

6. Kotyukova T.V. kand. ist. nauk uchyonogo sekretarya Vserossiyskogo nauchno-issledovatelskogo instituta dokumentovedeniya i arxivnogo dela. Grajdanskaya voyna v razreze regionalnoy istorii: golod v Turkestane 1918-1920-x g. so ssilkoy na SGA RUz. F. 17. Op. 1. D. 1197a. L. 19-21. SGA RUz. F. 41. Op. 1. D. 32. L. 68. SGA RUz. F. 17. Op. 1. D. 296. L. 536.

7. Makarova G.P. Nar.Kom. po delam natsionalnostey RSFSR (1917-1923g.). Istoricheskiy ocherk. M., 1987. B.126.

8. Turkestan v nachale XXv. B.491. B.492., SGA RUz. F. 25. Op. 1. D. 483. L. 567., SGA RUz. F. 22. Op. 1. D. 54. L. 15-16.

9. RGASPI. F. 2, op. 1, d. 23181, l. 6.

10. Tuxachevskiy M.N. Borba s kontrrevolyusionnimi vosstaniyami // Voyna i revolyusiya. 1926, kn. 9, B.6-7.

11. Semenyuta V. Golod v Turkestane v 1917-1920gg. // Chelovek i politika. 1991. Dekabr.B.72. Sm. takje: Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. Tashkent, 2000. B.269-284.

12. Xo'jayev M. Shermuhammadbek qo'rboshi. Toshkent: «SHARQ", 2008. b.3.

13. Buttino M. Study of the Economic Crisis and Depopulation in Turkestan, 1917-1920 // Central Asian Survey. 1990. Vol. 9/4. P.61-69.

14. Revolyusiya i natsionalnыy vopros. Dokumentы i materiali po istorii natsionalnogo voprosa v Rossii i SSSR v XX veke. Pod red. Dimanshteyna S.M. T.3. 1917.

Fevral – Oktabr. M., 1930. B.354-359.; Xodjayev F. K istorii revolyusii v Buxare. Tashkent, 1926. B.41-53; Gudovich A. Na pomoщ // Voyna v peskax. Grajdanskaya voyna v Sredney Azii. Materiali po istorii grajdanskoy voyni k XII tomu. Pod redaksiyey Gorkogo M., Ivanova V., Minsa I., Kolesova F. M.: OGIZ, 1935. B.276-289.

15. Aleksyenkov P. Kokandskaya avtonomiya. Tashkent: Uzgiz. 1931. 74 ctr.

16. Usmanov K., Sadikov M. Istoriya Uzbekistana. (1917-1991gg.). Uchebnik dlya uchaщihsya 1 kursa akademicheskix litsyev i professionalnix

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

ACTIVITIES OF RUSSIAN EXPLORERS IN SEARCH AND PRESERVATION OF HISTORICAL MONUMENTS IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE XIX CENTURY AND THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

Butunboyev Zohid[1]

Samarkand State University

KEYWORDS

Academician Barthold, Vyatkin, N. P. Petrovsky, N. I. Veselovsky, Samarkand, Shahriston, works on the history of the East, Circle of Archaeologists

ABSTRACT

This article provides detailed information about the activities of Russian researchers in the search and protection of historical monuments in Turkestan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7951339
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master, Faculty of History, Department of "History and Source Studies", Samarkand State University, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

RUS TADQIQOTCHILARINING XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHI TURKISTONDA TARIXIY YODGORLIKLARNI IZLAB TOPISH VA MUHOFAZA QILISH BORASIDAGI FAOLIYATLARI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Akademik Bartold, Vyatkin, N. P. Petrovskiy, N. I. Veselovskiy, Samarqand, shahriston, Sharq tarixiga oid ishlar, Arxeologlar to’garagi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada rus tadqiqotchilarining XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshi Turkistonda tarixiy yodgorliklarni izlab topish va muhofaza qilish borasidagi faoliyatlari haqida ba’tafsil ma’lumotlar keltirilgan.

XX asr boshlariga kelib Turkiston o’lkasida arxeologik tadqiqotlar yangi bosqichda olib borildi. Bu borada ayniqsa rus tadqiqotchi olimlari jonbozlik ko’rsatishdi. Akademik Bartold va Vyatkinlarning say-harakatlari tufayli Samarqand hududi va Afrosiyob qo’rg’onlarida keng ko’lamli arxeologik tadqiqotlar olib borildi. Akademik V. Bartold o’zining “Sharq tarixiga oid ishlar” nomli to’plamining IX tomida XX asr boshlarida olib borilgan tadqiqotlar va arxeologik ishlar bo’yicha hisobot va xulosalar berib ketgan. Jumladan, 1904-yilda Samarqandda amalga oshirilgan tadqiqotlar haqida quyidagicha hisobotga duch kelamiz:

1904 yilning bahorida meni Arxeologik tadqiqotlar qo’mitasi Samarqand va uning atrofidagi shaharning Temur davrigacha bo’lgan relyefi, uning hozirgi o’lchamlari va rus bosqinchilari tomonidan topilgan ko’chalar tartibini aniqlashtirish maqsadida yuborilgan edi. bu erda, qat’iy edi. Men ishimni yilning birinchi kunlaridan kechiktirmay boshlashni kutgandim

Birinchi oyni asosiy aholi punkti — Afrosiyobni topografik o‘rganishga, ikkinchi oyni xuddi shu aholi punkti o‘rnida olib borilgan sinoviy qazishmalarga, uchinchi oyni qolgan aholi punktlarini o‘rganishga va kamida uch oy sarflash niyatida bo‘lsin va ularga kamida uch oy vaqt ajratsin. Qadimgi yodgorliklar uzun devorlar ichida, bir vaqtlar shaharni chekka hududlari bilan o’rab turgan va qisman bizning davrimizga qadar saqlanib qolgan. Afsuski, mon hisob-kitoblari to’liq amalga oshmadi; kasallik tufayli men Sankt-Peterburgni kutilganidan uch hafta keyin tark etdim; bundan tashqari, yozning o‘rtalarida oilaviy sharoitim tufayli qisqa muddatga Sankt-Peterburgga qaytishga majbur bo‘ldim; Sankt-Peterburgda qolish bilan birga u erga va qaytib kelish uchun taxminan bir oy vaqt ketdi. Samarqanddagi faoliyatim ikki oydan kamroq davom etdi, shundan birinchisi (25-maydan 19-iyungacha) Afrosiyob manzilgohini tekshirish va o‘rganishga, ikkinchisi (17-iyuldan 13-avgustgacha) bu yerda olib borilgan qazishmalarga bag‘ishlandi. xuddi shu aholi punktidan. Vaqt yo’qligi sababli qolgan vazifamdan voz kechishga majbur bo’ldim; bu yo’nalishdagi tayyorgarlik ishlari 1903 yilda qo’mita topshirig’iga binoan mahalliy kuchlar tomonidan

amalga oshirildi. Hozircha qo'mita bu ishlar bo'yicha hisobot olgani yo'q, lekin Samarqandda bilganimdek, bu hisobot tuzilmoqda va kelajakda Qo'mitaga yuboriladi. Shaharning tarixiy topografiyasini aniqlashtirish uchun hududni o'rganish va ushbu tekshiruv natijalarini yozma manbalarning guvohliklari bilan solishtirish kerak edi. Safar oldidan ham Afralabning ichki shahar bilan o'xshashligiga amin bo'ldim", yoki fors (va mahalliy) terminologiyasi bilan aytganda, X asr arab geograflari ta'riflagan "Samarqand Shahristoni". Bu ichki shahar musulmonlardan oldingi asl shahar aholi punkti bo'lib, uning atrofida allaqachon musulmonlar yashagan odam davrida shahar atrofi vujudga kelgan, u yerda hayot asta-sekin Shahristonga o'tgan; Biroq, ikkinchisi 1220 yildagi mo'g'ul pogromasidan keyingina aholi tomonidan tashlab ketilgan. [1]

Afrosiyobni ko'zdan kechirar ekanman, arab geograflari tilga olgan Shahristonning to'rtta darvozasining joylashuvini aniqlash, shaharni suv bilan ta'minlash masalasiga oydinlik kiritish uchun ma'lumotlar yig'ishga harakat qildim. Manbalarda keltirilishicha, suv bozorlarning tomlari bo'ylab va shu maqsadda qurilgan tosh ark tepasi bo'ylab yotqizilgan qo'rg'oshin suv quvuri (yoki oluk) orqali janubdan Shahristonga olib kelingan. Afrosiyobda o'tkazilgan o'rganish aholi punktini faqat janubiy tomondan va faqat suv quvuri orqali suv bilan ta'minlash mumkinligini to'liq tasdiqladi. Bu o'ziga xos inshoot (keyinchalik mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan) qayerda bo'lishi mumkinligini aniqroq aniqlash uchun Samarqand viloyati irrigatsiya boshqarmasi boshlig'i, malakali shaxsning mehribon yordamidan unumli foydalandim. N.P. Petrovskiy. Mening iltimosim bilan N.P.Petrovskiy tekislash ishlarini olib bordi, shundan ma'lum bo'lishicha, suv quvuri hozirgi un bozori yaqinidagi hududdan 1-Afrosiyobdagi Hazrati Xizr masjidigacha tortilgan.

Turar joyning bir qancha joylarida qazish ishlari olib borilgan, lekin asosan qal'aning g'arbidagi hududda; Bu yerda, men arab geograflarining ma'lumotlarini prof. 1885 yilda N. I. Veselovskiy min., ehtimol keyinroq edi. shahar sobori masjidi. Qazishmalar davomida ko'plab mayda buyumlar, xususan, shisha idishlar bo'laklari bilan bir qatorda ko'k va oq koshinli ko'p miqdorda kuydirilgan g'isht bo'laklari, shuningdek, bezakli bino (xuddi shu materialdan yasalgan) bo'laklari topilgan. bu yerda masjid borligini to'liq tasdiqladi. Ushbu binoning poydevorini topish va izlarini topishga urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi; masjidga hech qanday aloqasi bo'lmagan va katta qiziqish uyg'otmagan faqat taxta binolar topilgan .

Qazishmalar yakuniga ko'ra, yanada muhimroq natijaga erishildi: gips ustida g'ayrioddiy o'lchamdagi (uzunligi 45%/sm, eni 371/2 sm, qalinligi 7 sm gacha) kuygan g'isht plitalaridan qurilgan bino topildi. sement. Qurilish asosi to'rtburchak shaklida bo'lgan (uzunligi 2 sazhens 101/2 vershok, eni 2 sazhens 6 vershok, balandligi 1 sazhens 3 vershok); Ustiga xuddi shu materialdan yana bir kvadrat konstruksiya (uzunligi va eni 5 arshin, balandligi 15% /, vershoks) va uning yonida kichik taxta devor (uzunligi 2 arshin 12 vershok, eni 1 arshin 5 vershok, balandligi 1 arshin 7) o'rnatilgan; ustki g'isht konstruktsiyasi ham, taxta devor ham tashqariga chiqib ketgan. pastki asosiy bino. Alohida g'isht bo'laklarida kufiy yozuvli muhrlar saqlangan; bu yozuvlarda qisman o'ziga xos nomlar

(Ixshid, Museyab va boshqalar), qisman joy nomlari (Ishtixon va boshqalar) mavjud bo‘lib, aftidan, g‘ishtning kelib chiqishini ko‘rsatgan. Musulmongacha bo’lgan So’g’d hukmdorlarining unvoni bo’lgan id so’zi bo’lgan g’ishtlar alohida qiziqish uyg’otdi, bu ma’noda ham, hijriy to’rt asrdan keyin ham shaxs nomi sifatida uchramaydi. Xuddi shu davr (eramizning X asridan kech bo’lmagan) yozuvning tabiati bilan ham, xuddi shu joydan, bir xil chuqurlikdan topilgan IX-X-asr tangalarida ham ko’rsatilgan. Shunday qilib, O’rta Osiyoda olib borilgan qazishmalar davomida birinchi marta ming yillik qadimiy binoni topish mumkin bo’ldi. [2]

Binoning maqsadiga kelsak, bu haqda mintaqaning mahalliy aholisi va rus mutaxassislari tomonidan uch xil taxmin qilingan: bir fikrga ko’ra, bu daxma (maqbara), boshqa bir fikrga ko’ra, minora poydevori, uchinchisi, masjidga kirish arkining ikkita ustunidan biri" Bu savolni faqat butun atrofni batafsil o’rganish orqali hal qilish mumkin edi, endi bunga vaqtim yo’q edi. Ketishdan oldin men mahalliy hokimiyatdan so’radim. Qazilgan joyni himoya qilish choralarini ko’rish yoki buning iloji bo’lmasa, maydonni yana tuproq bilan qoplashni buyurish kerak. Bundan ko’rinib turibdiki tadqiqotchilar madaniy-tarixiy yodgorliklarni saqlanishi va muhifazasiga alohida e’tibor berishgan.

Akademik. V.V. Bartoldning ish faoliyatiga ko’plab olimlar ham yaqindan yordam berishgan. Jumladan olimning o’zi bu borada quyidagicha yozib o’tadi: Mening ishimda viloyatdagi V. L. Vyatkin va N. P. Petrovskiy kabi mutaxassislarning qimmatli yordamidan bahramand bo’ldim; qazilmalarni kuzatishga Toshkent o‘qituvchilar seminariyasi kursini tamomlagan G. L. Vyatkinning ishtiroki (dastlabki ikki hafta ichida) katta yordam berdi. Ishning muvaffaqiyatiga prof. N. I. Veselovskiy va bunday ishning texnikasi bilan yaxshi tanish. O’tkazilgan tadqiqotlarning topografik va arxeologik natijalari mening buyurtmam bo’yicha mahalliy fotograf janob Litvinov tomonidan a’lo darajada bajarilgan 20 ta fotosurat bilan tasvirlangan [3].

Ma’lumki, 1895-yilda Arxeologlar to’garagi tashkil etilgan. Ushbu muassasa tashabbusi bilan olib borilgan faoliyat diqqatga sazovordir. Fevral inqilobi voqealaridan keyin muassasa ish jarayoni o’zgarib boradi. Bu haqida akademik V. V. Bartold quyidagicha ma’lumot beradi: Muvaqqat hukumatga ko’ra Turkiston o’lkasida barcha yerlarni mehnatkashlarga berish haqidagi qonunni kengaytirish nazarda tutilmagan; shunga qaramay, Turkistonda arxeologik va tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan yer uchastkalarini muhofaza qilish choralarini ko’rish zarur. Siyosiy o’zgarishlar o’sha o’tmish yodgorliklari taqdiriga ta’sir qilmasligi uchun ehtiyot bo’lish kerak, ularni himoya qilish avvalgi tuzum davrida ilmiy muassasalarning qator arizalaridan so’ng zarur deb topilgan edi. Bu yodgorliklar ichida eng qimmati bo’lsa kerak. Samarqand shimolidagi Afrosiyob manzilgohi. Qazishmalar ko‘rsatganidek, aholi punkti 1220-yildagi mo‘g‘ullar istilosidan so‘nggina tashlab ketilgan musulmonlardan oldingi Samarqandga to‘g‘ri keladi. Samarqand har doim bo‘lmasa ham, avvalgi davrlarda ham butun mintaqa hayotining siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo‘lgan. Musulmon davri va o’rta asrlarda. Bunday shahar o’rnida arxeologik tadqiqotlar juda katta qiziqish uyg’otdi va bu aholi punkti hududining XII asrdan

keyin paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. sug'orishdan mahrum bo'lgan va iqtisodiy ahamiyatga ega emas edi; Afrosiyobning faqat janubiy qismi ilm-fan uchun qo'ldan ketdi, bu yerlarni ruslar istilosidan oldin ham musulmonlar va yahudiylar qabristonlari egallab turgan edi. Rossiya hukmronligi ostida ilm-fan manfaatlariga ko'proq zarar yetdi; qabriston aholi punkti ichida shimolga to'siqsiz ko'chib o'tdi; Afrosiyobning shimoliy qismida xususiy tadbirkor tegirmon va bog' qurish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bir necha marta ilm-fanni tejash uchun ilmiy muassasalar aralashuvini talab qildi. nima mumkin edi. 1883 yilda Imperator arxeologik komissiyasining iltimosiga binoan, general-gubernator Chernyaevning buyrug'i bilan olib borilgan qazishmalar to'xtatildi.

1917-yil sentabrda Fanlar akademiyasi tomonidan tuzilgan Tarix va arxeologiya yodgorliklari bo'lgan yer uchastkalarini muhofaza qilish komissiyasining majlisida yodgorliklarni muhofaza qilish holati to'g'risida to'rtta ma'ruza tinglandi. Komissiya buyrug'i bilan ushbu hisobotlar alohida risola sifatida nashr etildi. Ushbu nashr V. V. Bartold tomonidan tuzilgan ushbu risolaning bir qismini nashr etadi. <O'rta Osiyoda qadimiy yodgorliklarni muhofaza qilish masalasi Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyingina yo'lga qo'yildi [4].

Shunday qilib, 1924-yilda musulmonlargacha bo'lgan davrda ham, islom davrida ham mahalliy madaniy hayotning markazi bo'lgan O'rta Musulmon Osiyoning tarixiy poytaxti, garchi qazilmalarsiz, deyarli hozirgi davrgacha yana arxeologik tadqiqotlar ob'yekti bo'ldi. Ushbu tadqiqotlarni savollarni yangi shakllantirishga urinish bilan qayta tiklash haqiqati, shubhasiz, ilmiy ahamiyatga ega, hatto ishning bevosita natijalari yanada oqilona formulalar bilan bir xil bo'lmasa ham. o'lkashunoslik, madaniy va siyosiy fanlar bo'yicha mutaxassislarning ishtiroki. Shu nuqtai nazardan, Kohn-Wiener, uning hisobotlarida ko'rsatilishicha, bu mavzu bo'yicha asosiy manbalar yoki adabiyotlar bilan mutlaqo tanish emas. Uning yodgorliklar tarixini tushunishga va arxeologik xususiyatlarini aniqlashga urinishlari Topilmalar yana bir bor shuni ko'rsatadiki, yozma manbalar ishtirokisiz, faqat ob'ektlarning tashqi belgilaridan kelib chiqib, bunday masalalarni hal qilib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. В. В. Бартолд.Сочиения. Издательство "Наука"Москва-1977. Ст.130-133
2. Захидов П. Самарканд. Школа зодчих XIX - начало XX вв. Т., 1965.
3. Zasipkin B.N. Arxitektura Sredney Azii. M., 1948.
4. M. Masson. Arxitektura yodgorliklari.243-bet

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

STEAM TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Dekhkambaeva Zulfiya Abubakirovna[1]

Umerova Zarema Remzievna[2]

Tashkent Pedagogical University named after Nizami

KEYWORDS

STEAM, technology, preschool education, creativity, modern, education, pedagogue, talent

ABSTRACT

This article presents information about the content of STEAM technology, features of its use, wide possibilities, efficiency and importance of using STEAM technology in the preschool education system.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7951368
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Associate Professor of the Department “Methods of Preschool Education”, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan

[2] Student of the Faculty “Preschool education”, Tashkent Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

STEAM ТЕХНОЛОГИИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

KALIT SO'ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

STEAM, технология, дошкольное образование, творчество, современное, образование, педагог, талант.

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о содержании технологии STEAM, особенностях ее использования, широких возможностях, эффективности и важности использования технологии STEAM в системе дошкольного образования.

STEAM - это один из инновационных методов, который в настоящее время является основной традицией мировой системы образования. На первый взгляд аббревиатура Steam кажется довольно сложной, но если мы увидим ее отдельно, мы можем обнаружить, что она проста и понятна, а именно: S – science, T – technology, E – engineering, A – art, M – mathematics, или естественные науки, технологии, инженерное искусство, творчество, математика. Проще говоря, это самые востребованные дисциплины в современном мире.

Технология STEM в образовании была разработана в Америке. Американские исследователи организовали эксперимент, в ходе которого некоторые школы обратили внимание на способности выпускников и решили объединить такие предметы, как естественные науки, технологии, инженерия и математика, и таким образом сформировалась система STEM. (Наука, техника, инженерия и математика). Позже было добавлено сокращение Art, и теперь STEAM окончательно сформировался. Исследователи считают, что знания по этим предметам, а точнее по этим дисциплинам, помогут в будущем студентам стать высококвалифицированными специалистами. В STEAM LAB дети будут стремиться получить хорошее образование, и у них будет возможность сразу же применить его на практике. Не секрет, что для достижения больших успехов во многих отраслях науки требуется интеграция знаний из различных областей, которые необходимо освоить. Именно в решении таких проблем помогает технология STEAM. Данная методика позволяет формировать навыки ведения обучения смешанного типа и уметь применять полученные теоретические знания в повседневной жизни. STEAM (sfan, t-технология, e - инженерия, a - искусство, M - математика)-это современный подход, объединяющий науку, технологии, инженерию, искусство и математику.

Сегодня STEAM-образование развивается как одна из основных тенденций в мире, и практика основана на интеграции пяти областей в единую схему обучения при применении этого подхода. Условиями такого воспитания являются его преемственность и развитие умения детей взаимодействовать в группах, благодаря чему они могут накапливать идеи и обмениваться идеями. Поэтому в базовую

образовательную программу входят такие модули развития логического мышления, как: LEGO-технологии, детские исследования.

Благодаря подходу STEAM дети понимают природу, систематически познают мир и тем самым развивают свои интересы, инженерный стиль мышления, умение выходить из критических ситуаций, умение работать в команде и осваивать основы лидерства, самовыражения, что, в свою очередь, обеспечивает принципиально новый уровень развития детей. Формирование уверенности в себе. При таком подходе дети “запускают” созданные своими руками мосты и дороги, самолеты и автомобили, “развивают” и испытывают подводные и воздушные сооружения, каждый раз приближаясь к цели. “Продукт", который не дал хороших результатов, снова и снова тестируется и совершенствуется. В результате само решение всех проблем, достижение цели принесет детям вдохновение, победу, адреналин и радость. Каждая победа внушает больше уверенности в своих силах. Учит активному общению и организации командной работы.

Steam также отличаются активным общением и обучением работе в группе. На этапе обсуждения дети учатся не бояться высказывать свое мнение. В процессе занятий дети не сидят за столом фронтальным способом, а тестируют и разрабатывают “изделия” на основе своих конструкций. В процессе деятельности дети все время заняты общением с воспитателями и их друзьями в коллективе, что обеспечивает сотрудничество. Развивать интересы по техническим наукам.

Задача обучения STEAM в дошкольном и младшем школьном возрасте-создать предпосылки для развития интереса. В естественных и технических науках для детей любовь к тому, что они делают, является основой для развития любопытства.

STEAM-это очень весело и динамично для детей, он не дает детям скучать. Они не чувствуют, что время идет, но и не устали S - science – естественные науки T - technology – технология E – engineering – инженерия a - art – искусство M-Math. - математика. Эти маршруты-система, которая становится самой популярной в современном мире. Поэтому сегодня система STEAM развивается как одна из основных тенденций.

Направление обучения STEAM и применение практического подхода также основаны на интеграции всех пяти областей в единую систему образования. STEAM был разработан в Америке. Некоторые школы решили обратить внимание на таланты своих выпускников и объединить такие предметы, как естественные науки, технологии, инженерия и математика, и именно так сформировалась система STEM. (Наука, техника, инженерия и математика). Позже здесь был добавлен ART, и теперь STEAM окончательно сформировался. Учителя считают, что знания по этим предметам, а точнее по этим дисциплинам, помогут в дальнейшем ученикам вырасти в высококвалифицированных специалистов.

В технологии STEAM дети стремятся получить хорошее образование и сразу же применять его на практике. Если мы скажем, что основная цель традиционного

образования-научить знаниям и использовать эти знания для мышления и творчества, подход Steam научит нас сочетать полученные знания с реальными навыками. Это дает школьникам возможность не только получить некоторые идеи, но и применить их на практике и воплотить в жизнь. Если мы скажем, что основная цель традиционного образования-научить знаниям и использовать эти знания для мышления и творчества, подход STEAM научит нас сочетать полученные знания с реальными навыками. Это дает дошкольникам возможность не только получить некоторые идеи, но и применить их на практике и воплотить в жизнь. Самый известный пример подхода STEAM – Массачусетский технологический институт (MIT). Девиз этого мирового университета - “Mens et manus” (разум и рука). Массачусетский технологический институт разработал курсы STEAM, чтобы дать детям возможность заранее изучить и познакомиться с концепцией STEAM, и даже создал учебные центры STEAM в некоторых учебных заведениях. Согласно статистике, с 2011 года уровень спроса на профессии STEAM вырос на 17%, в то время как спрос на обычные профессии вырос только на 9,8%, что свидетельствует о большом спросе на эту систему образования во всем мире.

Во многих странах STEAM-образование является приоритетом почему-то: в ближайшее время спрос на инженеров, специалистов высокотехнологичного производства в мире, а значит и в Узбекистане, будет очень высоким. В долгосрочной перспективе у нас будут профессии, связанные с технологиями и высокотехнологичным производством в сочетании с естественными науками, особенно с большим спросом на специалистов в области био и нанотехнологий. Профессионалам потребуется обширное образование и опыт в различных областях технологий, естественных наук и инженерии. Преимущества обучения в STEAM включают интеграцию обучения по “темам”, а не по учебным предметам, применение технических знаний в реальной жизни, развитие навыков критического мышления и решения проблем, активное общение и командная работа. В Республике Узбекистан осуществляются реформы по реформированию системы образования. Можно отметить Указ Президента Республики Узбекистан “Об организации современных школ”, Указ Президента “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах”, Указ Президента "О мерах по организации президентских школ" и многие другие реформы, направленные на приравнивание системы образования в нашей республике к зрелым системам образования в мире.

Для достижения этих целей с 2016 года в национальной системе образования говорится о появлении STEM. В настоящее время система образования STEM получает широкое признание во всем мире. В некоторых странах эта система образования обозначена как национальная система образования. По итогам 2016 года по распределению выпускников школ по системе образования STEAM первое место занял динамично развивающийся в сфере высоких технологий Китай, США и

Россия заняли 3 и 4 места соответственно. Что такое STEM-образование? Слово STEM на английском языке – это аббревиатура, состоящая из инициалов 4 слов, в которых: s –Science – Science T – technology – Technology E –Engineering – Engineering M – mathematics-Mathematics. В ближайшие дни к этой апелляции был добавлен раздел A - art – arts. То есть в системе STEAM обучение ведется с акцентом на эти 4 направления, а кроме того, с указанием их взаимосвязи.

Чтобы не отставать от технологических изменений эпохи глобализации, одной из основных задач современных педагогов, педагогических технологий является формирование новых технологий, баз, знание таких трендовых технологий, как искусственный интеллект, обучение в соответствии с ними. STEAM интегрирует инновации из нашей повседневной жизни в систему образования.

Исследования показывают, что через систему образования Steam у ребенка формируются творческие способности, усердие, любопытство и самая важная в настоящее время черта - способность решать проблемы (навыки решения проблем). В течение последних 2 лет в Республике Узбекистан ведется работа по внедрению системы STEAM в государственную систему образования. Но в то время как в частных школах это легче сделать, существует ряд проблем, связанных с внедрением системы образования STEAM в систему общего образования. В декабре 2019 года министерство народного образования приняло участие в Шанхайской международной выставке STEAM EDUCATION EXPO (steamex) в Китае. В Узбекистане привлечен американский специалист по внедрению системы образования STEAM в общенациональное образование. Кроме того, наш Президент Мирзиеев Ш.М президентских школах, созданных в стране по инициативе Мирзиеева, обучение будет проходить через систему образования Steam.

Современные исследования утверждают, что, хотя система Steam относится к системе школьного образования, важно внедрять ее с самого раннего возраста, начиная с дошкольного возраста. Важность внедрения STEAM в систему с самого раннего возраста является корнем успеха. На самом деле мышление начинается с детствf. Даже когда ребенок не умеет ходить, он может понять взаимосвязь, последовательность и вероятность процессов. Эти характеристики следует всячески поощрять. В системе дошкольного образования деятельность по системе STEAM может осуществляться на основе ежедневного плана работы. Важно разрабатывать и внедрять действия, основанные на принципах обучения Steam.

Пример. Одним из эффективных механизмов является внедрение системы образования Steam в жизнь маленького ребенка с помощью книг. Книга может стать мощным трамплином для знакомства ребенка с системой Steam. Книга станет для ребенка связующим звеном между деятельностью и процессом. Например, можно поговорить с детьми о рыбке из книги и изучить рыбок, которые живут в аквариуме в детском саду. Книга усиливает интерес ребенка к науке с раннего возраста, благодаря книге у ребенка увеличивается словарный запас по науке. Здесь важно не

путать книгу, основанную на принципах Steam, с книгами энциклопедии. Как структурировать книги для детей младшего возраста в образовательной системе Steam: s-Science может использовать книги о предмете, морских животных, растениях и насекомых, чтобы познакомить детей младшего возраста с миром науки. T-Technology. Увлекательные книги с предметами техники, которые встречаются вокруг нас, в детской комнате, в нашей повседневной деятельности, переносят ребенка в мир технологий. Ножницы, колесо, машина, стиральная машина медведя, телефон и т. д. Можно показывать в книге, показывая изнутри, Читать рассказы о предметах. Иллюстрация технологических предметов, представленная интересным рассказом, может побудить ребенка к возникновению вопросов в уме, к аналитическому мышлению. Привлечение детей в сферу электронной инженерии можно начать с изучения форм. Полезным инструментом будет книга о формах, их отражении в окружающих нас предметах, о взаимоотношениях форм с одним из них. A-Art необходимо начинать с детства, чтобы познакомить ребенка с миром искусства.

При формировании основ системы STEAM в развитии детей в дошкольных образовательных организациях в соответствии с задачами, поставленными перед нами президентом, во всех аспектах зрелости и в соответствии с требованиями современности целесообразно выполнить следующие задачи: отбор книг в соответствии с принципами STEAM в процессе книжного обеспечения ДОО; Включить в план работы системы ДОО механизмы ведения дел с книгами, основанными на принципах Steam; увеличить словарный запас детей младшего возраста с помощью книг Steam; стимулировать производство книг Steam, предназначенных для детей младшего возраста, состоящих из инновационных технологий; разработать механизмы ознакомления педагогов МТТ с системой образования Steam.

Использованная литература:

1. И. Грошева, Л.Евстафьева, Д.Т.Махмудова, Ш.В.Набиханова, С. Пак, Г.Е.Джанипесова. Государственная образовательная программа «Илк кадам» Т: 2018. 1-81-b;

2. Т.С.Волосов, В.А.Маркова, С.А.Аверина. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. М. Бином. Лаборатория знаний 2019.

3. И. А. Помораева, В.А. Позина. Занятия по формированию элементарных математических представлений в средней группе детского сада. М: 2019

4. И. Грошева, Г.Е. Джанипесова, У.Т. Михаилова, М.А. Кенжабаева, Обучение через игру. Т:.2020.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

CONDUCTING AND ORGANIZING WORK IN UZBEK, THE STATE LANGUAGE OF UZBEKISTAN

Qayumova Sevinch Abduqosimova[1]

Karshi City University of Economics and Pedagogy

KEYWORDS

Uzbek language, Uzbek nation, value, state language status

ABSTRACT

This article is about the richness of the Uzbek language, its importance for our nation, value, and also about preserving our Uzbek language.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7951381
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Student of NTM Primary Education Department, Karshi City University of Economics and Pedagogy, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT TILI BO‘LGAN O‘ZBEK TILIDA ISH YURITISH VA TASHKIL ETISH

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

o‘zbek tili, o‘zbek millati, qadriyat, davlat tili maqomi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqola O‘zbek tilining naqadar boyligi, millatimiz, qadriyatimiz uchun ahamiyatliligi va qolaversa O‘zbek tilimizni asrab avaylash haqidadir.

Til har bir millatning ko‘zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni Onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o‘z onasini ko‘rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so‘zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”.

1989-yil 21-oktyabr… Aynan shu kunda o‘zbek tilining haqiqiy jozibasini anglashni boshlashga imkoniyat berildi. O‘zbek millati uchun dunyoga tuynuk ochildi.

2020-yil 21-oktyabr… Roppa-rosa o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligiga 31 yil to‘ldi. Xo‘sh, mana shu davr mobaynida o‘zbek tilining haqiqiy jozibasi, uning go‘zalligini dunyoga tanitish uchun qanday ishlar amalga oshirildi?

Ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o‘zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlandi. O‘zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so‘ng barcha davlat hujjatlari o‘zbek tilida yuritila boshlandi, gazeta va jurnallarning o‘zbek tilida chop etilishi yo‘lga qo‘yildi. 1993-yil 2-sentyabrda “Lotin tiliga asoslangan o‘zbek alifbosini tuzish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so‘ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o‘rin egallashiga yo‘l ochdi. Shu o‘rinda statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratsak: dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo‘lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o‘zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma’no va jozibadorligining yorqin dalilidir. Rossiyalik tilshunos olima, professor A. M. Kozlyanina “O‘zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador” deb bejiz ta’kidlamagan edi.

Lekin, shu o‘rinda savol tug‘ilish tabiiy: nahotki o‘zbek tili biror bir joyga nom qo‘yish uchun ham yaroqli bo‘lmasa?! Afsus, barchamizga ma’lumki, ko‘chalarda do‘konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go‘zallik salonlari, turli xil osmono‘par binolar, bog‘chalarga qo‘yilgan nomlar o‘zbek tilida emas balki, boshqa xorij tillarida yozilganligining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bu haqiqatni isbotlash uchun siz ulkan bir ilmiy

izlanish qilishingiz shart emas, aynan ko‘chaga otlanib turib, qo‘lingizga qalam va ruchka olgan holatda chiqsangiz kifoya. Naqadar achinarli holat bo‘lishiga qaramay, biz bunga ko‘nikib yashab kelmoqdamiz! Axir biz O‘zbekistonda yashayapmiz-ku, nima uchun unda joy nomlarini o‘zbek tilida nomlay olmaymiz? Buning uchun kim aybdor: davlat organlarimi yoki o‘zbek millatimi? O’zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo’lib hozirgi kunda yer yuzining qariyb 50 million aholisi so’zlashadigan tildir.Bu esa tilimizning kelajagi uchun qayg’urishimiz, kelajak avlod uchun (sof til)tilimizning sofligi saqlashimiz muhim sanaladi. Bu borada hozirgi kunda ona tilimizni nufuzini oshirish, davlat tili sifatida mavqeyini oshirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda . 1989-yil 21-oktabrda “O’zbek tili davlat tili maqomi” berildi. Bu kun tilimiz yangi tug’ildi desak mubolag’a bo’lmaydi. Tilimiz ko’p yillar tahqirlandi. Yoshlarimizni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalamog’imiz lozim.Til-millatning ruhidir.Til bor millat yashaydi .Hozirgi kunda yer yuzidan ko’p tillar yo’qolib ketish arafasida turibdi. Biz tilimizni umrboqiy bo’lishi uchun yoshlarimizda tilga hurmat ruhida tarbiyalamog’imiz lozim. Tilimiz shunshalik boy, go’zal jozibadorki tilimizda bor ba’zi so’zlar boshqa tillarda mavjud emas.Jumladan “ibo”,”hayo”,”iffat” kabi so’zlarning boshqa tillarda tushunchalari mavjud emas.Turkiy tilimiz qanchalik boy ekanligini A.Navoiy bobomiz o’zining “Muhokamat ul-lug’atayn”asosida isbotlangan .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxojonovich, A. S., & Usmoilovich, A. Y. (2022). About the Problems of Language Teaching to Little Children. International Journal of Culture and Modernity, 14, 30-34.

2. Abdiloyev, S. O. (2022). Nemis tili darslarida frazeologizmlardan foydalanishning innovatsion usullari. Архив научных исследований, 2(1).

3. Oxojonovich, A. S. (2022). On the General Associative Aspects of Allegoric Symbols. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 424-428.

4. Aziz, A., & Shavkat, A. (2022). Aristocrats Sympathetic to Heine. International Journal of Formal Education, 1(10), 40-43.

5. Aziz, A., & Shavkat, A. (2022). Symbol of the Paris of Inspiration. International Journal of Formal Education, 1(11), 17-20.

6. Умаржонова, Г. М., & Абдиллоев, Ш. О. (2022). НЕМИС ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “HAND”-“ҚЎЛ” КОМПОНЕНТЛИ СОМАТИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРНИНГ СТРУКТУР-ГРАММАТИК ТАҲЛИЛИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 226-231.

7. Oxonjonovich, A. S. (2022). GERMAN PHRASEOLOGICAL UNITS WITH A ZOONYM COMPONENT. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 239-244.

8. Oxonjonovich, A. S. (2023). Peculiarities of Semantics of Phraseological Units with Zoonyms. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 17, 98-102.

9. Абдилоев, Ш. О. (2023). АЙРИМ УЙ ҲАЙВОНЛАРИ БИЛАН БОҒЛИҚ БЎЛГАН ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ТУРЛИ ХАЛҚЛАРДА МАЪНО ИФОДАЛАНИШИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY

JURNALI, 3(5), 122-128.

10. Абдилоев, Ш. О. (2023). ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР—ХАЛҚ ҲАЁТИНИНГ ИНЪИКОСИ. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 1(2), 157-159.

11. Абдилоев, Ш. О. (2023). ЎЗБЕК, РУС, ТОЖИК ВА НЕМИС ТИЛЛАРИДАГИ ЗООНИМ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЎХШАШ ВА ФАРҚЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. IQRO JURNALI, 3(1), 156-159.

12. Urinova, S. (2022). ОСОБЕННОСТИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО В УЗБЕКИСТАНЕ. Science and innovation, 1(B7), 1274-1276.

13. угли Мухаммаджонов, С. Т. (2022). ПОНЯТИЕ" РЕБЕНОК" И ИХ СРЕДСТВА В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ. PEDAGOGS jurnali, 23(1), 196-199.

14. Salohiddin, M. (2022). EUROPEAN LITERATURE AND ITS FORMATION. Confrencea, 4(4), 34-36.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' SPATIAL IMAGINATION IN THE PROCESS OF TEACHING ENGINEERING GRAPHICS

Jo‘rayeva Mohigul Uyg‘un qizi[1]

Karshi State Pedagogical Institute

KEYWORDS

descriptive geometry, drawing, psychology, pedagogy, positional problem, metric problem, perception, imagination, abstract, reproductive, productive, imagination, thinking, comparison.

ABSTRACT

This article shows the role of engineering graphics and its pedagogical and psychological foundations in the development of students' spatial imagination and thinking.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7952597
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Master, Karshi State Pedagogical Institute, Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 2, ISSUE 2 / ISSN 2181-2675

MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALARNING FAZOVIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

KALIT SO‘ZLAR/
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

chizma geometriya, chizmachilik, psixologiya, pedagogika, pozitsion masala, metrik masala, idrok, hayol, abstract, reproduktiv, produktiv, tasavvur, tafakkur, taqqoslash

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada talabalarning fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishda muhandislik grafikasi fanlarining o‘rni va uning pedagogik, psixologik asoslari ko‘rsatilgan.

Bo‘lajak pedagog o‘z sohasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi kerak. Pedagogika va psixologiya kitoblarida bu terminlarga mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Masalan, bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui. Ko‘nikma – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati. Malaka – muayyan harakat, faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli[2]. Bo‘lajak pedagoglarning o‘z mutaxassisliklaridan yetarli darajada salohiyatga ega bo‘lishini ta’minlashga davlat ahamiyati darajasida e’tibor berilishi kerak.

Mamlakatimiz Prezidenti o‘z nutqlarida “…nafaqat akademik ilm-fanni, balki oliy o‘quv yurtlaridagi ilm-fanni yanada rivojlantirish muhim vazifa hisoblanadi”[3] deya aytib o‘tdilar. Bundan xulosa shuki, oliy ta’limda ijodkor va fikri mustaqillik ko‘nikmasiga ega yosh avlodni voyaga yetkazish har doimgi dolzarb masalalasidir. Bunda muhandislik grafikasi fanlarining salmoqli o‘rni mavjud.

Inson faoliyatida texnikaning roli chuqurroq tahlil qilib ko‘rilsa, quyidagi ikki xulosaga kelish mumkin. Birinchidan, insonning obrazli tafakkur qilish qobiliyatini rivojlanishiga, uning fazoviy tasavvurini qo‘zg‘aluvchanligiga bo‘lgan talablar oshib bormoqda. Ikkinchidan, predmetning fazoviy xususiyat va munosabatlari haqida axborotlar berish va ularni saqlashda grafik vositalarning roli mislsiz oshib bormoqda[4].

Chizmachilik fani bo‘yicha bilimlarni talabalar tomonidan o‘zlashtirishda fazoviy tasavvur va tafakkurning rivojlangan bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Talaba fazoviy shakllarni tekislikda tasvirlash usullarini o‘zlashtirishi muhim yo‘nalishlarning biri bo‘lsa,

[2] Inoyatov U., Muslimov N., Usmonboyeva M., Inog‘omova D. Pedagogika: 1000 savolga 1000 javob. -T.: “TDPU rizografi”. 2012.61- bet.

[3] Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. 2016 yildagi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. 46-bet.

[4] Umronxo‘jayev A. Maktabda chizmachilik o‘qitishni takomillashtirish. –T.: “O‘qituvchi”, 1993. 7-bet.

ikkinchisi bu shakllarning orasidagi pozitsion va metrik munosabatlarni aniqlash usullarini bilishidir. Lekin bu operatsiyalar tekis shakllar orqali amalga oshiriladi. Fazoviy shakllarning orasidagi munosabatlarni aniqlashda bajarilayotgan yasash bilan bog‘liq operatsiyalarning fazoviy obrazlari ya’ni fazodagi harakatlari talabaning ko‘z o‘ngida gavdalanib turishi kerak, ya’ni talaba ularni tekis shakllar asosida hajmli qilib “ko‘rib turishi” ya’ni - tasavvur qilishi kerak.

Fazoviy tasavvur va tafakkur, idrok va hayol tushunchalari psixologik protsesslardir, shuning uchun bular bilan bog‘liq psixik jarayonlar haqida psixologiya ilmidan ba’zi ma’lumotlarni keltiraylik.

Rus psixologi I.P.Pavlov qilgan tajribalardan ma’lum bo‘lishicha, agar analizatorga bironta yakka qo‘zgovchi emas, balki qo‘zgovchilarning jami muntazam ta’sir qilib tursa, bundan tug‘iladigan reaksiya har bir qo‘zg‘ovchining o‘z xususiyatiga qarab emas, balki bu qo‘zgovchilarning o‘zaro qanday bog‘lanishiga, o‘zaro munasabatiga qarab tug‘ilar ekan. I.P.Pavlov bu hodisani munosabat refleksi deb atadi.

Munosabat refleksi narsalarining ayrim xossalarining o‘zaro obyektiv bog‘liqligini aks ettirishdan iboratdir. Har qanday narsa yoki hodisani o‘rganish uni idrok qilishdan boshlanadi. Chizmachilik fanining proyeksion chizmachilik bo‘limida model va detallarning ko‘rinishlarini bajarish qoidalari o‘rganiladi. Bunda talaba idrok qilgan narsasining tekislikdagi proyeksiyalarini qurishni o‘rganadi. “Idrok – bu bevosita sezgi a’zolariga ta’sir etayotgan obyektiv mavjudot, predmet va hodisalarning kishi ongidagi in’ikosidir”[5].

Idrok protsesslari faqat tevarak-atrofdagi narsalarning sezgi organlarimizga ta’sir qilib turishi natijasidagina emas, balki shu bilan birga idrok qilayotgan odam o‘zining materialni bilish va amaliy faoliyatida narsalarga ta’sir qilishi natijasida ham vujudga keladi.

Idrok protsesslarida diqqat goyat katta ahamiyatga egadir. Diqqat idrokning faolligini oshiradi va idrokning mukammal, raso va ravshan bo‘lishiga xizmat qiladi.

Muayyan sohaga tegishli narsa va hodisalarni sistematik va uzoq vaqt davomida ixtiyoriy idrok qilib borish kuzatish deb ataladi. Lekin kuzatish samarali bo‘lmog‘i, yetarli darajada kuchli, barqaror diqqat bilan birga faol fikrlash mavjud bo‘lishi shart. Chizmachilikdagi “Loyihalash” mavzusini o‘qitishda ham turli detal va buyumning berilgan shartga binoan loyihalash ishlarini talabalarga ko‘rsatish orqali buyumni idrok qiladi va mavzuning asl mohiyatini tushunadi.

Tasavvur ham idrok singari sezgi obrazidir. Lekin tasavvur idrokdan farqli o‘laroq, narsalar obrazi shu onda ta’sir qilmay, balki qachondir ta’sir qilgan bo‘ladi. Tasavvur predmet yoki hodisaning ikkilamchi obrazidir.

Tasavvur – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘ylash, hayol qilish, ko‘z oldiga keltirish, o‘ylab zehnda gavdalantirish degan ma’nolarni beradi. Ya’ni, birinchidan narsa, hodisa va shu kabilar haqida kishi onggi-hayolidagi ma’lumot, bilim, tushuncha. Ikkinchidan, shunday ma’lumot, tushuncha, bilim shakllanishining manbai sifatidagi ong, hayol. [6]

[5] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2 жилд, 2006-175 б.
[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 4 жилд, 2008-7 б.

Tasavvur qilish deganda esa – hayolda tiklash, gavdalantirish, idrok qilishni tushunamiz. Falsafa va psixologiyada bu terming nisbatan idrok qilingan, his etilgan narsa yoki hodisaning kishi onggida aks etishi, gavdalanishi tushuniladi.

Psixologiyada tasavvurni ikki asosiy turga bo‘lishadi: xotira tasavvuri (avval idrok qilingan narsalar obrazining qayta tiklanishi) va hayol obrazlari - xotirada saqlangan obrazlarning transformatsiya (qayta ishlanishi) natijasida yangi obrazlarning shakllanishi. Aynan hayol obrazlari orqali loyihalash masalalarining yechimini aniqlash ham talaba uchun, ham pedagog uchun qiziq jarayon hisoblanadi. Chunki o‘qituvchi loyihalash masalasining shartini e’lon qiladi va uning yechimiga qanday yondashish yuzasidan maslahatlarini beradi.

Chizmachilikni o‘qitish jarayonida talabalarda tasavvurning bu ikki turining rivojlanishi muhimdir. Masalan, talaba avval idrok qilgan detaliga qanday qirqim berish maqsadga muvofiqligini, qirqim bajarilgandan so‘ng u qanday ko‘rinishga ega bo‘lishini tasavvur qilishi xotira hamda hayol tasavvurlarining uyg‘unligini ta’minlaydi. Yoki hayolida loyihalagan detalining ko‘rinishlarini bajarish, unga tuzatishlar kiritish hayol obrazlarini qog‘ozda aks ettirishiga imkon beradi.

U yoki bu narsa haqidagi tasavvur uni ko‘p marta idrok qilish natijasida shakllanar ekan. Bu jarayonda narsa yoki hodisadagi belgilarni saralash ro‘y beradi va xotirada shu narsaga tegishli eng xarakterli xususiyat saqlanib qoladi. Masalan, talaba ko‘zdan kechirish, ko‘rinishlari bajarish, kuzatish natijasida turli texnika vositalarini kuzatish natijasida idrok qilgan detal va buyumlari asosida yangi detal yoki moslamani loyihalashi uchun idrokidagi buyumlarning xarakterli jihatlarini, belgilarini saralashi lozim bo‘ladi.

Idrokdan tasavvurga o‘tishda sezgi obrazlarining ma’lum soddalashishi ro‘y beradi. Masalan, talaba detalni loyihalagan dizayni talabga javob berishi, tejamkorligi, arzon va sifatliligi nuqtayi nazaridan eng to‘g‘ri variantni ajrata olishi va uni yanada takomillashtirilishiga e’tibor qaratiladi.

Tasavvurda avvalo narsalarning eng axborotlisi, asosiy elementlari ya’ni “suyagi” (asosi) saqlanadi. Bunday “suyak” sifatida odatda narsaning shakli, aniqrog‘i shaklning o‘zgachaligi namoyon b‘ladi. Masalan, loyihalash deganda yangi narsani ixtiro qilish ekanligini tasavvur qilamiz.

Aftidan, akslanayotgan narsa obrazini miya axborot bazasida bunday soddalashtirib saqlash tejamli hisoblansa kerak. Lekin obrazni soddalashtirish axborotning ma’lum qismini tushirib qoldirish bilan ya’ni yo‘qotish bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham tasavvur o‘zining to‘liqligi jihatidan idrokday bo‘la olmaydi.

E.V.Shoroxovaning o‘tkazgan tadqiqotlariga ko‘ra tasavvurda narsaga nisbatan odam tomonidan amaliy faoliyat ishga oshirilganda, narsaning eng avvalo ana shu amaliy faoliyat bilan bog‘liq belgilari saqlanib qolar ekan. Ayniqsa, qaysi faoliyat mahsuloti yoki asboblar yordamida amalga oshirilgan bo‘lsa, ular haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘linadi. Shuning uchun ham talabalarda u yoki bu tasavvurni shakllantirish uchun kerakli narsalarni faqat

namoyish qilish bilan cheklanish kamlik qilar ekan. Namoyish albatta amaliy harakatlar bilan qo‘shib olib borilishi darkordir. Demak, loyihalash masalalari to‘g‘risida qanchalik gapirmaylik, loyihalangan buyumlardan foydalanmaylik talabada to‘laqonli bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lishni ta’minlay olmaymiz. Shuning uchun albatta, ularga mustaqil ravishda grafik topshiriq bajarishni vazifa sifatida yuklashimiz shart. Shundagina ularda loyihachilik va konstruktorlik faoliyatiga oid tasavvur kuchli darajada saqlanib qoladi

Tasavvurni shakllantirishda narsalarning fazoviy xususiyatlarini abstraktlashtirish va umumlashtirishda so‘z muhim rolni bajaradi.

Narsalarning qismlarga ajralgan fazoviy tasavvurini shakllantirish maqsadida ularni namoyish qilish bilan birga amaliy harakatlar ularni albatta so‘z bilan tahlil qilinib borishi zarurdir chunki bu jarayonda narsalar shakli elementlarining orasidagi o‘zaro pozitsion munosabatlar oshkor bo‘lib boradi.

Narsani uning tasviri orqali tasavvur qilish ham juda foydalidir. Lekin tasvirlar ham har xildir, masalan, narsaning ko‘rgazmali yaqqol tasviri bilan uning ortogonal proyeksiyalari(tasvirlari) orasida katta farq bor, shuning uchun ham bunday vaziyat ularning har biriga alohida yondashishni taqozo qiladi.

Fazoviy tasavvurni shakllantirishda real predmetlarni idrok qilish va so‘z bilan ularni tavsiflash eng samarador usul hisoblanadi. Hozirgi kunda ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish an’anaga aylanib bormoqda. Demak, chizmachilik darslarida ham, ayniqsa “Loyihalash” mavzusini o‘qitishda undan samarali foydalanish zarur. Ya’ni, detalni loyihalash jarayonida amalga oshirilayotgan geometrik amallar yoki qirqish, o‘yish, pardozlash ishlarini AutoCAD va 3D max dasturlari yordamida 360^0 da ko‘rsatish hamda uni so‘z orqali tushuntirib berish talabaning tasavvurini juda kengaytiradi.

Tasavvur – hayol uchun asosiy qurilish materialidir. Aslini olganda, hayol - tasavvurning qayta o‘zgartirilishidan iboratdir, ya’ni ularni fikran qismlarga ajratish , birlashtirish, transformatsiya qilish va h.k.

Psixologiyada hayolni ikki turga bo‘lishadi: qayta tiklaydigan (yoki reproduktiv) va ijodiy (produktiv).

Birinchi holda odam narsa haqida avval idrok qilmagan ammo u haqida tavsif, sxema va boshqalar to‘g‘risida axborot olgan. Bunday obrazlarga xususan chizmalarni, sxemalarni o‘qish jarayonida hosil bo‘lgan tasavvurlar yotadi.

Ijodiy hayol jarayonida yangi obrazlar shakllanadi, ularning realizatsiyasi yangi moddiy va madaniy boyliklar yaratishga olib keladi (masalan, mashinaning konstruksiyasi, adabiy obrazlar va h.k.).

Hayolni rivojlantirish odamning chizma bajarish va uni o‘qish, umuman grafik faoliyatida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shuning bilan bir qatorda chizmachilikni o‘qitish jarayoni hayolning rivojlanishida eng muhim vosita hisoblanadi.

Odamning faoliyatida hal qiluvchi rolni erkin hayol ya’ni faoliyatning maqsadga yo‘naltirilgan erkin hayoli o‘ynaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda hayol o‘qitish jarayonida rivojlanadi. Bu jarayonda muhim vazifalardan biri talabalarda hayol usullarini shakllantirish hisoblanadi. Bu yerda chizmachilik katta rol o‘ynaydi. Agar talabaga biror detal berilsa va vazifa sifatida uning dizayni takomillashtirish va vaznini kamaytirish masalalasi qo‘yilsa maqsadga yo‘naltirilgan erkin hayol qilish jarayoni boshlanadi.

Umuman olganda fazoviy hayolni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri - amaliy faoliyatdir. Ammo, amaliy harakatlardan miyadagi harakatga o‘tish avtomatik ravishda ro‘y bermaydiganga o‘xshaydi. Bunda hayolning rivoji harakat bilan so‘zning qo‘shilish birligini talab qiladi.

Amaliy va nazariy masalalarini yechishda insonda tafakkur muhim o‘rinni egallaydi.

Tafakkur – inson faoliyatining yuksak formasidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Sezgi va idroklarga, xotira va tasavvurlarga nisbatan tafakkur odamlarning bilish va amaliy faoliyatida alohida ahamiyatga ega.

Tafakkur – arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, fikr yuritish, o‘ylash, fikrlash degan ma’nolarni beradi. Birinchidan, obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in’ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati, fikrlash, ikkinchidan, o‘ylash, fikr yuritish, muhokama, o‘y deb tushuniladi.[7]

Tafakkur – voqelikning umumiylashtirib aks ettirilishidir.

Narsa yoki hodisalar o‘rtasidagi eng muhim bog‘lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi.

Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyaitidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to‘g‘ri), to‘liq, chuqur va umumiylashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning yanada oqilona amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi. Masalan, oldindan ko‘rib turish o‘z oldimizga geometrik, konstruktiv, dizayn va arzon tannarx shartlarini qo‘yishimizga va shu maqsadlarga muvofiq harakat qilishimizga imkon beradi.

Fazoviy tafakkur ham aqliy faoliyat turi bo‘lib, amaliy va nazariy masalalarni yechish jarayonida fazoviy obrazlarni barpo qilish va ular bilan fazoviy obrazlar harakatlarini ta’minlaydi. Masalan, loyihalanayotgan buyumni dastlab tasavvur qilishimiz, hayolan tekshirishimiz, uni qog‘ozdagi tasvirini loyihalashimiz kerak bo‘ladi. Bunda fazodan tekis chizmaga va aksincha, tekis chizmadan fazoga ko‘chish jarayoni va bu vaqtda uni takomillashtirishga oid aqliy faoliyat yuritish ishi amalga oshiriladi.

Tasavvur faoliyati fazoviy tafakkurning asosiy mexanizmidir. Obrazlar bilan harakatlarni amalga oshirish va qayta almashlashlar uning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Fazoviy tafakkurda muttasil ravishda qayta kodlash sodir bo‘lib turadi, ya’ni fazoviy real obyektdan ularning shartli grafik tasvirlariga, uch o‘lchamli tasvirdan ikki o‘lchamli tasvirga va aksincha ko‘chib turiladi. Misol tariqasida berilgan uchta teshikdan tig‘iz o‘tadigan modelning loyihasini ishlab chiqish uchu teshik va unga mos geometrik sirtlar hamda bu sirtlar kombinatsiyasidan model hosil qilishni ko‘z oldiga keltirish lozimligini ko‘rsatishimiz

[7] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 4 жилд, 2008-7 б.

mumkin. Bunday detalni ko‘z oldiga keltirgandan so‘ng uni tasavvur faoliyati orqali fazoviy tafakkur etish jarayoni sodir bo‘ladi.

Tafakkur qilish - aqliy harakatlar qilish tarzida sodir bo‘ladi. Taqqoslash, tahlil va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, konkretlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir.

Taqqoslash – shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalalar o‘rtasida o‘xshashlikni yoki tafovutni, tenglik eki tengsizlik borligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.

Taqqoslash fikr qilish protsessi bo‘lib, bu protsess idrok qilinayotgan narsalarning o‘xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo‘lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o‘xshashlik va tafovutni topish lozim bo‘lgan hollarda sodir bo‘ladi. Masalan, mavjud moslamani takomillashtirish so‘ralganda uning yangidan farqi, afzalligi shuningdek, o‘xshashliklarini taqqoslash orqali anglash mumkin, ya’ni talabaga vazifa sifatida taqqoslashni berish lozim.

Buyumlarni bir-biri bilan taqqoslash chog‘ida ham abstraksiyalash jarayoni sodir bo‘ladi. Biron muayyan jihatlar hamisha bir-biri bilan taqqoslanadi, buyumlar yoki hodisalarning muayyan belgisiga (tusiga, shakliga, harakatlarining tezligiga va shu kabilarga) qarab, ular bir-biri bilan taqqoslanadi.

Tafakkur konkret va abstrakt tafakkur deb ikkiga bo‘linadi. Agar biz fikr yuritilayotgan narsani idrok qilsak yoki tasavvur qilsak, bu tafakkur konkret tafakkur bo‘ladi.

Bizning o‘zimiz shu onda ko‘rib turgan geometrik shakllar to‘g‘risidagi muhokamalarimiz mana shunday konkret tafakkurning bir misolidir. Biz tasavvur qilishimiz mumkin bo‘lgan biror egri chiziq to‘grisidagi, biror sirt to‘g‘risidagi muhokamalar ham konkret tafakkurga misol bo‘la oladi.

Bu – narsalarning obrazlariga bevosita tayanuvchi tafakkurdir. Bu - yaqqol tafakkurdir.

Konkret tafakkur ham predmetli-yaqqol tafakkur deb va obrazli-yaqqol tafakkur deb ikki xilga bo‘linadi.

Tafakkur obyekti bevosita idrok qilinadigan tafakkur predmetli-yaqqol tafakkur deb ataladi.

O‘zimiz ko‘rib turgan geometrik shakllar to‘g‘risidagi muhokamalarimiz mana shunday predmetli-yaqqol tafakkurga misol bo‘la oladi.

Dars vaqtida talaba biror murakkab sirtning tuzilishin izohlash bilan birga uni detal tarkibida mavjud ekanligini talabalarga ko‘rsatayotganida o‘qituvchining va o‘quvchining tafakkuri – obrazli-yaqqol tafakkur bo‘lishi mumkin. Tafakkurning bu turi, asosan, idrokka tayangan holda sodir bo‘ladi.

Predmetli-yaqqol tafakkur faqat muhokamalardagina emas, shu bilan birga bevosita harakatlarda ham namoyon bo‘ladi. Bunday tafakkur predmetli-harakatli tafakkurdir. “Loyihalash” mavzusini o‘qitishda ham predmetli-yaqqol tafakkur ham predmetli-harakatli

tafakkur qilish jarayoni amalga oshiriladi. Ya'ni bevosita bir nechta variantda loyihalanayotgan dinamik modellar yoki detallar ko'rgazmasi namoyish etiladi.

Tafakkur qilinayotgan narsani idrok qilmasdan, balki faqat tasavvur qilgan vaqtimizdagi tafakkur obrazli-yaqqol tafakkur deb ataladi. Bunday tafakkur xotira yoki hayol tasavvuriga tayanadi. Masalan, talabaga berilgan razmetka chiziqlari asosida modelni loyihalash vazifasida faqat detalning yaqqol tasvirida qirqish va kesish ishlari amalga oshirilib detal hosil qilinadi va obrazli-yaqqol tafakkur orqali detal tasavvur qilinadi hamda uning ortogonal proyeksiyalari bajariladi.

Har bir inson murakkab narsalarni (masalan, mashinalarni, tabiat hodisalarini) bevosita idrok va tasavvur qilgan hamma hollarda ham u haqida konkret tafakkur qiladi.

Abstrakt tafakkur umumiy va abstrakt tushunchalarga asoslanadi. Bu – tushunchalardan tarkib topgan tafakkurdir, bu tafakkur, asosan, ikkinchi signal sistemasining - nutq signal sistemasining faoliyati tufayli vujudga keladi.

Loyihalash masalalarini yechish vaqtidagi muhokamalarimiz abstrakt tafakkurga misol bo'la oladi.

Abstrakt tafakkur konkret tafakkurdan o'zinig g'oyat kengligi bilangina farq qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga, voqelikni juda chuqur bilishga imkon berishi bilan ham farq qiladi. Bunda biz bir hukmning o'zida hamma narsalarga aloqador bog'lanishlar va qonunlar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Ayrim abstrakt muhokamalarda biz idrok ham, tasavvur ham qilib bo'lmaydigan narsalar to'g'risida fikr yuritishimiz mumkin. Biz shu paytgacha ko'zimiz tushmagan yoki biz bilmagan buyumlar to'g'risida, borliq to'g'risida abstrakt fikr yuritishimiz mumkin. Biz o'zi yurar mashinalar va unda joylashgan moslamalar to'g'risida ham fikr yuritishimiz mumkin bo'ladi.

Abstrakt tafakkur haqiqatga erishishga va voqelikni tag'in ham chuqurroq va to'laroq bilishga olib boradigan yo'ldir.

Abstrakt tafakkur va konkret tafakkur odamning yaxlit tafakkurini tashkil qiladi, bu ikkala tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Bu bog'lanish avvalo shundaki, abstrakt tafakkur tarixan konkret tafakkur asosida taraqqiy qilgan. Masalan, ikki proyeksiyasi berilgan detalning uchinchi proyeksiyasini aniqlashda uning yechimini bir variantda aniqlash mumkin. Ammo yechim ko'p variantli bo'lishiga nima sabab bo'ladi. Aslida berilgan ikki proyeksiyada detal to'g'risida ma'lumotlar yetarli yoki aniq emasligidan bu muammo kelib chiqadi. Biroq qo'shimcha variantlar abstract tafakkur orqali vujudga keladi va ular biz bilgan geometrik sirtlardan ya'ni konkret tafakkurimizdagi ma'lumotdan tashkil topadi.

Ikkinchidan, abstrakt tafakkur bilan konkret tafakkurning birligi shundaki, har qanday konkret fikr abstrakt fikrga muayyan bir darajada kiradi va har bir abstrakt tafakkur jarayoni konkret tafakkurga tayanadi. Hatto eng oddiy konkret muhokamalarda abstraktlik momenti bor. Masalan, "Bu – asosi to'rtburchak piramida" va "Bu asosi to'rtburchak prizma" degan konkret muhokamalarda "asos", "to'rtburchak" degan so'zning o'zi abstrakt tushunchadir. Umumiyat faqat ayrim narsalar orqali mavjuddir. Har bir ayrim narsa

umumiydir. Har qanday umumiyat narsaning ayrim bir tomoni (qismi yoki jihati, yoki mohiyatidir).

Tafakkurning turiga qarab, nazariy va amaliy tafakkurlarga ajratiladi.

Hodisalarni izohlashaga qaratilgan tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Biror narsani izohlab berish, noma'lum narsani ma'lum qilish demakdir. Buning uchun esa noma'lum narsani ma'lum narsa bilan bog'lash lozim. Demak, turli va ayrim tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlarni va munosabatlarni ochib berish hamda shu bog'lanishlarni muhokamalarda izohlab berish kerak bo'ladi.

Jumladan, izohlab berish – izohlanayotgan hodisaning sababini topish demakdir; bunday izohlash izohlanayotgan narsani shu narsa mansub bo'lgan turkum to'g'risidagi tushuncha doirasiga kiritib, uning farq qiladigan belgilarini ko'rsatib berish demakdir; biror hodisaning maqsadini, uning nima uchun mavjudligini, uning ahamiyatini va vazifasini ko'rsatib berish demakdir.

Izohlovchi tafakkur jarayonlarida bir qancha savollarga, masalan: "buning o'zi nima?", "nega?", "nima sababdan?","nima uchun?", "falon xil hodisalar yoki tushunchalar o'rtasida qanday o'xshashalik yoki farq bor?" degan va shu kabi savollarga javob beriladi. Masalan: "Tarelka, piyola, kosa va laganlarning ostida silindrik, konus yoki yarim sferik botiqlar mavjud", "Geopmetrik sirtlar formasidan geometrik jismlar, modellar, detallar hosil bo'ladi", "Buyumlarni loyihalashda geometrik sirtlar kombinatsiyasidan foydalaniladi". Mana shu misollarning hammasida hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlar qayd qilinmoqda.

Agar izohlovchi tafakkur umumiy (abstrakt) hukmlarda ifodalansa, bunday tafakkur nazariy tafakkur deb ataladi. Masalan, "Loyihalanayotgan buyum dizayni estetik jihatdan yuqori pog'onaga chiqadi", "Buyumning foydali ish koeffitsiyenti oshadi", "Loyihalash masalasi talabaning fazoviy tasavvurini o'stiradi" "Loyihalash masalalari talabalarni ijodiy izlanishga jalb qiladi" degan muhokamalar ayni vaqtda ham nazariy, ham abstrakt tafakkurdir.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki ortogonal proyeksiyada pozitsion, metrik masalalarni yechish jarayonida talabadagi psixologik holatni pedagogik nuqtayi nazar bilan uyg'unlashtirish lozim ekan. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Inoyatov U., Muslimov N., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 savolga 1000 javob. -T.: "TDPU rizografi". 2012.61- bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. 2016 yildagi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi nutqi. – T.: "O'zbekiston", 2017. 46-bet.
